# ZABUR

## Kirish

Zabur kitobi Xudoga bag'ishlangan turli mazmundagi she'rlarning majmuasidir. Ularni ba'zan qo'shiq qilib kuylashgan, ba'zan esa yakka tartibda yoki guruhda ibodat sifatida aytishgan. Kitob 150 ta sanodan iborat bo'lib, aksariyat sanolarning muallifi shoh Dovud hisoblanadi. Sanolar yillar davomida to'plangan. Isroil xalqining Xudoga sajda qilishida bu sanolar muhim o'rin egallaydi.

Sanolarda ibroniy she'riyatining parallelizm deb atalgan usuli keng qo'llanilgan. Odatda bu usul biror g'oyani tasdiqlash, unga urg'u berish yoki qo'shimcha ma'no ifodalash maqsadida ishlatiladi. Parallelizm hosil qilishda mazmunan yaqin bo'lgan gaplar juft misralarda birin–ketin, turli so'zlar bilan takrorlanadi. Misol uchun,

"Ey shohlar! Endi aql bilan ish qiling.
Ey zamin hukmdorlari! Ogoh bo'ling." (2:10)

Sanolarda Muqaddas Kitob tarkibidagi ko'p kitoblarning bosh g'oyasi o'z aksini topadi. Bu g'oyalar hamdu sano, shukrona, imon, umid–ishonch, gunoh oqibatidagi qayg'u, Xudoning sodiqligi va madadi kabilardan iborat. Barcha sanolarning tub mag'zida Xudoga bo'lgan qattiq ishonch, Unga nisbatan samimiy izzat–hurmat yotadi. Sanolarning ijodkorlari o'zlarining chinakam his–tuyg'ularini ifodalab, Xudoni cheksiz marhamati uchun olqishlaydilar, qiyinchilik paytlarida esa yurakdagi dardlarini to'kib soladilar.

Qadimgi Isroilda sanolar mazmuniga ko'ra turli holatlarda quyidagicha ishlatilgan:

Xudoga hamdu sano aytish uchun (masalan, 104–sano),
qayg'u–g'amlarni ifodalash uchun (masalan, 12–sano),
ta'lim berish uchun (masalan, 1–sano),
Isroil shohiga izzat–hurmatini ifoda etish uchun, uning hukmronligi davrida adolat ustun bo'lishini tilab, Xudoga ibodat qilish uchun (masalan, 71–sano),
jamiki borliq ustidan hukmron bo'lgan Xudoning qudratini e'tirof etish uchun (masalan, 46–sano),
Quddusga bo'lgan sevgini izhor etish uchun (masalan, 121–sano),
bayramlarni nishonlash uchun (masalan, 125–sano).

Albatta, aksariyat sanolardan bittadan ortiq maqsadda foydalanilgan.

Iso Masih va'z qilganda va ta'lim berganda sanolardan foydalangan. Yangi Ahd mualliflari ham sanolarning ba'zilarini o'z kitoblarida qayd etib o'tganlar. Ilk masihiylar ham sajda qilganlarida, ta'lim berganlarida, Iso Masih haqidagi Xushxabarni boshqalarga hikoya qilib berganlarida sanolardan foydalanganlar.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

# 1–SANO

1 Shunday insonlar saodatlidir:
Ular fosiqlar maslahatiga yurmaydi,
Gunohkorlar yoʻlida ular turmaydi,
Mazaxchilar orasida oʻtirmaydi.
2 Ha, ular Egamizning qonunidan zavq oladi,
Tunu kun taʼlimotining magʻzini chaqadi.
3 Unday insonlar oqar suv boʻyiga oʻtqazilgan
Daraxtlarga oʻxshaydi.
Ular oʻz mavsumida mevasini beradi,
Barglari aslo qurimaydi.
Ular neki qilsa, muvaffaqiyatga erishadi.

4 Fosiqlar esa bunday emaslar,
Shamolda toʻzgʻib ketadigan somonga oʻxshaydi.
5 Hukmda fosiqlar oqlana olmaydi,
Solihlar jamoasidan gunohkorlar joy ololmaydi.
6 Egamiz solihning yoʻlini qoʻriqlaydi,
Fosiqning yoʻli halokatga yetaklaydi.

# 2–SANO

1 Nega quturadi xalqlar?!
Nega behuda fitna qilar elatlar?!
2 Zamin shohlari Egamizga
Va U tanlagan shohga qarshi saf tortadilar.
Hukmdorlar fitna qoʻzgʻab, shunday deydilar:
3 "Sindiraylik ular solgan kishanlarni,
Olib tashlaylik boʻynimizdan sirtmoqlarni."

4 Samoda hukmron boʻlgan Rabbiy esa
Ularni masxaralab, ustidan kuladi.
5 Rabbiy gʻazab bilan ularni ogoh etadi,
Qahrini sochib, vahimaga solib aytadi:
6 "Men Sionga*, Oʻzimning muqaddas tepaligimga
Oʻz shohimni joylashtirdim."

7 Egamizning soʻzlarini shoh eʼlon qilmoqda:
"Egamiz menga shunday dedi:
«Sen Mening oʻgʻlimsan,
Bugun Men senga ota boʻldim*.
8 Tila, xalqlarni senga mulk qilib beraman,
Yerning toʻrt tomoni seniki boʻladi.
9 Temir xivchin ila ularni urib ezasan*,
Sopol koʻzani sindirganday ularni parchalaysan.»"

10 Ey shohlar! Endi aql bilan ish qiling.
Ey zamin hukmdorlari! Ogoh boʻling.
11 Qoʻrquv ila Egamizga sajda qiling!
Vahima ila tavba qiling!*
12 Uning oʻgʻliga* taʼzim qiling,
Boʻlmasa U gʻazablanadi,
Yoʻlingizda yoʻq boʻlib ketasiz,
Uning gʻazabi tez alanga oladi.

Naqadar baxtlidir Unda panoh topganlar!

## 3–SANO

1 *Oʻgʻli Absalomdan qochib ketgandan keyin*
*Dovudning aytgan sanosi.*

2 Ey Egam! Gʻanimlarim naqadar koʻpdir!
Menga qarshi qoʻzgʻalganlar qanchalar koʻpdir!
3 Koʻplar men haqimda:
“Xudodan unga najot yoʻq”, deb aytadilar.
4 Ey Egam, Mening qalqonimsan!
Shuhratim Sensan!
Sen boshimni yuksaltirasan.

5 Egamizdan madad soʻrab qilaman faryod,
Muqaddas tepaligidan* U menga beradi javob.
6 Egamiz meni himoya etgani uchun
Yotib uxlab, yana uygʻonaman.
7 Har tomondan meni qurshab turgan
Oʻn minglarcha gʻanimlarimdan qoʻrqmasman.

8 Qoʻzgʻalgin, ey Egam!
Najot ber, ey Xudoyim!
Hamma gʻanimlarimning yuzlariga urasan,
Qabihlarning tishlarini sindirasan.
9 Ey Egam! Najot Sendan keladi!
Barakalaring xalqingga kelsin!

## 4–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar joʻrligida*
*aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey mening odil Xudoyim!
Iltijo qilganimda javob ber!
Kulfatda qolganimda meni ozod qilding.
Menga shafqat qilib, ibodatimni eshit.

3 Ey insonlar, qachongacha sha'nimni yerga urasiz?!
Qachongacha puch so'zlarga ko'ngil bog'laysiz?!
Qachongacha yolg'onlarni izlab yurasiz?!*
4 Unutmangki, Egamiz O'zi uchun tanlaydi
taqvodorni,
Iltijo qilganimda, Egamiz eshitadi meni.
5 Hatto g'azablanganingizda ham gunoh qilmang*,
Tunda yotganingizda o'ylang, sukut saqlang.
6 Munosib qurbonliklar keltiring,
Umidingizni Egamizga bog'lang.

7 Ko'p odamlar aytadi:
"Yaxshi zamonlarni kim bizga ko'rsatadi?!" deb.
Ey Egam, jamoling bizga nurlarini sochsin!
8 Don va sharobi mo'l bo'lganlar quvonadi,
Sen yuragimga undan ham ko'proq shodlik berding.
9 Yotganimda xotirjam uxlayman,
Ey Egam, yolg'iz Sen meni omon saqlaysan.

# 5–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Nay jo'rligida aytiladigan
Dovud sanosi.*

2 So'zlarimga quloq tut, ey Egam!
Diqqat qilgin nolalarimga.
3 Eshitgin, madad so'rab iltijo etaman,
Sen ham Shohimsan, ham Xudoyimsan!
Shu bois Senga ibodat qilaman.
4 Ey Egam! Tong chog'i ovozimni eshitasan,
Subhidamda Senga yolvoraman,
Sendan javob kutaman.

5 Qabihlikdan mamnun bo'lmaydigan Xudosan Sen,
Senga mehmon bo'lolmas gunohkor inson.
6 Takabburlar huzuringda tura olmaydilar,
Hamma badkirdorlarni Sen yomon ko'rasan.
7 Yolg'on gapiradiganlarni Sen qirib tashlaysan,
Ey Egam, qonxo'r, yolg'onchilardan Sen jirkanasan.

8 Men esa sodiq sevgingning mo'lligi sabab
Sening uyingga kiraman.
Muqaddas Ma'badingda ta'zim qilaman,
Qo'rquv ila Senga sajda qilaman.
9 Naqadar dushmanlarim ko'p, ey Egam,
Odilliging bilan meni so'qmog'ingdan yetakla,

O‘z yo‘llaringni menga ravshan qil.

10 Dushmanlarim og‘zidan haqiqat chiqmaydi,
Ularning yuraklari baloyu ofatdir.
Ochiq qabr kabidir og‘izlari,
Tillari xushomad qiladi.
11 Ey Xudo, ularni jazolagin!
Yomon niyatlari o‘zlarining boshiga yetsin.
Ular Senga qarshi isyon qilganlar.
Gunohlari ko‘pligi uchun ularni haydab yuborgin.

12 Senda panoh topganlarning hammasi sevinsin,
To abad shodlikdan ular kuylasin.
Ularni Sen himoya qilganing uchun,
Seni sevganlar sevinch ila jo‘shsin.
13 Ey Egam! Sen solih kishilarga baraka berasan,
Sening himmating ularni qalqonday himoya qiladi.

## 6–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Sakkiz torli asbob jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey Egam! G‘azab bilan menga tanbeh bermagin,
Qahring sochib, menga jazo bermagin.
3 Ey Egam, madorim yo‘q, rahm qil menga,
Suyaklarim zirqiraydi xastalikdan,
Ey Egam, shifo ber menga.
4 Azob chekmoqda jonim,
Qachongacha kuttirasan, ey Egam, qachongacha?

5 Kel endi, ey Egam, qutqar jonimni,
Sodiq sevging haqi ozod qil meni.
6 Axir, o‘lganda eslamas hech kim Seni,
O‘liklar diyorida* kim shukur qilar Senga?!

7 Oh–voh qilaverib charchadim,
Tunlari ko‘z yoshlarim tufayli o‘rnim ho‘l bo‘ldi,
Yig‘laganimdan to‘shagim shalabbo bo‘ladi.
8 Ko‘zlarim nuri so‘ndi g‘amdan,
Zaiflashdi ko‘zlarim dushmanlarim dastidan.

9 Yo‘qolinglar ko‘zimdan hammangiz, ey badkirdorlar!
Nola–yig‘ilarimni Egam eshitdi.
10 Egam eshitdi mening iltijoimni,
Egam qabul qiladi mening ibodatimni.

11 Jamiki dushmanlarim uyalib qoladi,
Hammasi vahimaga tushib qoladi,
Oʻsha on sharmanda boʻlib, qaytib ketadi.

## 7–SANO

1 *Benyamin qabilasidan boʻlgan Kushning qilmishlari tufayli Dovudning Egamizga aytgan marsiyasi.*

2 Senda panoh topaman, ey Egam Xudo,
Payimga tushganlardan xalos et, qutqar meni.
3 Yoʻqsa, ular meni sherday gʻajib tashlaydi,
Burda–burda qiladi, hech kim meni qutqarolmaydi.

4-5 Ey Egam Xudo!
Agarda kimgadir nohaqlik qilgan boʻlsam,
Doʻstimni dushmaniga sotgan boʻlsam mabodo,
Gʻanimimni sababsiz talagan boʻlsam,
Ha, agarda u ishlarni qilgan boʻlsam,
6 Dushmanlarim ta’qib qilsin, tutsin meni,
Tanamni tuproqqa qorsin,
Jasadimni yerga tashlasin.

7 Qani, gʻazabingni sochgin, ey Egam!
Qoʻzgʻal yovlarimning qahriga qarshi!
Koʻrib, adolat qilgin!
8 Xalqlarni atrofingga toʻplagin,
Balanddagi taxtingda oʻtirib,
Ular ustidan hukmronlik qilgin.

9 Ey Egam, oliy Hakam Oʻzingsan,
Sen xalqlarni hukm qilasan.
Ey yuksalgan Egam,
Hukm paytida yuzimni yorugʻ qil,
Bilasan–ku, solihman, begunohman.
10 Fosiqlarning yovuzligi barham topsin,
Solihlar barqaror boʻlsin.
Ongu yuraklarni sinaguvchi Sensan,
Ey odil Xudo!

11 Mening qalqonimdir yuksalgan Xudo,
Pokdillarga U najot beradi.
12 Adolatli hakamdir Xudo,
Qabihga U doim gʻazabini sochadi.
13 Agar inson tavba qilmasa,
Xudo qilichini charxlaydi,
Kamonini tayyor qilib turadi.

14 Qirg‘in qurollarini shay qilib qo‘ygan,
Olovli o‘qlarini tayyorlab qo‘ygan.

15 Ana, qabihlar qabihlikdan urug‘ orttiradi,
Dardu balolardan homilador bo‘ladi,
Oxir–oqibatda yolg‘onni tug‘adi.
16 Ular chuqur qaziydilar,
Ammo chohga o‘zlari qulaydilar.
17 Ularning dardu balosi o‘ziga qaytadi,
Zo‘ravonligi o‘zlarining boshiga yetadi.

18 Egamizga, adolating uchun shukur, deyman.
Egamiz — Xudoyi Taologa hamdu sanolar
kuylayman.

# 8–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Soz jo‘rligida aytiladigan*
*Dovud sanosi.*

2 Ey Egam, bizning Rabbimiz!
Butun yer yuzida Sening noming ulug‘vordir!
Osmondan ham yuksakdir Sening shuhrating!
3 Dushmanlaringning, qasoskorlarning
Ovozini o‘chiray deya,
Sen bolalar va chaqaloqlarni
O‘z qudratingni so‘ylashga o‘rgatding.
4 Qo‘llaring ijodi bo‘lgan osmoningga qaradim,
O‘zing joylashtirgan yulduzlaru oyga boqdim.
5 Inson zoti nedirki, u haqda o‘ylagaysan?!
Bandalar* nedirki, Sen ularni ardoqlagaysan?!

6 Sen ularni O‘zingdan* andak past qilding,
Izzatu sharaf tojini ularga kiygizding.
7 Jamiki yaratganing uzra ularni hukmron qilding*,
Bor narsani ularning oyog‘i ostiga qo‘yding:
8 Jamiki molu qo‘ylarni ham,
Barcha yovvoyi hayvonlarni ham,
9 Samodagi qushlarni va dengizdagi baliqlarni,
Dengizda suzuvchi har xil maxluqlarni.
Ha, ularning ustidan insonni hukmron qilding.

10 Ey Egam, bizning Rabbimiz!
Butun yer yuzida Sening noming ulug‘vordir!

# 9–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Qizlar*” kuyiga aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Butun yuragimdan, ey Egam, Senga shukur aytaman,
Barcha ajoyib ishlaringni so‘ylayman.
3 Sen tufayli shodlanib, quvonaman.
Qo‘shiq aytib, Seni madh etaman,
Ey Xudoyi Taolo!

4 Dushmanlarim chekinib qochganlarida,
Qoqilib, nobud bo‘ldi Sening huzuringda.
5 Sen adolat ila hukm qilib taxtga o‘tirding,
Meni hukm etib, yuzimni yorug‘ qilding.
6 Xalqlarni Sen vahimaga solding,
Qabihlarni qirib tashlading.
Ularning nomini bir umrga o‘chirding.
7 Vayronalar ichra dushmanimiz to abad g‘oyib bo‘ldi,
Ularning shahrini Sen vayron etding,
Ularning xotirasi tamoman o‘chdi.

8 Egamiz esa to abad O‘z taxtida o‘tiradi,
U taxtini hukm qilish uchun qurgandir.
9 U olamni adolat bilan boshqaradi,
Xalqlarni odilona hukm qiladi.
10 Mazlum uchun Egamiz qal’aday bo‘ladi,
Ha, qayg‘uli damlarda U panoh bo‘ladi.

11 Ey Egam, Seni taniydiganlar
O‘zingga umid bog‘laydi.
Senga yuz burganlarni tark etmaysan.

12 Hamdu sano kuylang Quddusda* taxt qurgan Egamizga!
Uning ishlarini e’lon qiling xalqlar orasida!
13 Qasoskor Egamiz mazlumlarni yodida tutadi,
Jafokashlar faryodini U unutmaydi.

14 Rahm qil menga, ey Egam, qara!
Mendan nafratlangan g‘animlarim azob bermoqda!
O‘lim og‘zidan meni qaytaradigan Sensan!
15 Shu bois go‘zal Quddus darvozalari oldida
Senga hamdu sano aytayin,
Menga najot bergan Sensan,

Shu bois ham quvonayin.

16 Xalqlar oʻzlari qazigan chuqurga oʻzlari yiqildi*,
Yashirgan toʻrlariga oyoqlaridan ilindi.
17 Egamiz adolatli hukmi ila
Oʻzining kimligini koʻrsatdi.
Qabihlar oʻzlari qoʻygan tuzoqqa ilindi.

18 Qabihlar va Xudoni unutgan jamiki xalqlar
Oʻliklar diyoriga* tushar.
19 Muhtojni Xudo bir umrga unutmas,
Bechoraholning umidini to abad yoʻqqa chiqarmas.

20 Qani, ey Egam! Inson zoti gʻolib chiqmasin,
Xalqlar huzuringda hukm qilinsin.
21 Ularni qoʻrquvga sol, ey Egam!
Xalqlar inson zoti ekanligini bilsin.

22 Nechun, ey Egam, uzoqda turibsan?
Qaygʻuli damlarda Oʻzingni yashirasan?

23 Takabbur qabihlar bechorani taʼqib qiladi,
Toʻqigan igʻvolari oʻzlarining boshiga yetsin.
24 Qabihlar yovuz ehtiroslari bilan maqtanadi,
Ochkoʻzlar Egamizni laʼnatlaydi, Undan nafratlanadi.
25 Xudoga intilmaydi oʻziga bino qoʻygan qabihlar,
“Xudo yoʻqdir”, deb doim oʻylaydi ular.
26 Qabihlarning doim ishi yurishadi,
Xudoning amrlarini ular tushunmaydi,
Dushmanlarini pisand qilmaydi.
27 Ular oʻz koʻnglida oʻylaydilar:
“Biz hech qachon qoqilmaymiz,
Hech qachon kulfatlarga duch kelmaymiz.”
28 Qabihlarning ogʻzidan laʼnat, hiyla, poʻpisa chiqadi,
Soʻzlari bilan ular odamlarni yaralab, barbod qiladi.
29 Ular qishloqlarda yashirinib oladi,
Begunoh insonni poylab oʻldiradi.
Koʻzlari ojiz qurbonni qidiradi.
30 Sherga oʻxshab panada kutib turadi,
Bechorani ushlayman deb, pisib yotadi,
Zaifni oʻz sirtmogʻiga ilintirib, ushlab oladi.
31 Qabihlar oʻz kuchi bilan zaifni yiqitadi,
Uni yotqizib, ezib tashlaydi.
32 Ular oʻz koʻngillarida: “Xudo qilmishlarimizni
unutgan,
U koʻzlarini yumib olgan, hech narsani koʻrmaydi”,

deb oʻylaydi.

33 Qani, ey Egam! Urgin qabihlarni,
Ey Xudo! Unutmagin mazlumlarni!
34 Nechun qabihlar Sendan nafratlanadi?
Nechun oʻz koʻnglida ular:
“Xudo Mendan hisob soʻramaydi”, deb aytadi?
35 Sen esa koʻrib turasan,
Bilib turasan kulfatu azobda qolganlarni.
Qoʻllaringni ularga uzatasan,
Ojiz oʻzini Sening panohingga topshiradi,
Sen yetimga doim yordam bergansan.
36 Qabihlaru yovuzlarning qoʻlini qirqqin,
Qilmishlari uchun ulardan hisob soʻra,
Toki ular boshqa yovuzlik qilmasin.

37 Egamiz Shohdir to abad,
Oʻzga xalqlar yoʻq boʻladi Uning yurtidan.

38 Ey Egam, mazlumlarning istaklariga quloq solasan,
Ularning yuraklariga dalda berasan.
Yetimu mazlumning dodini Sen eshitib,
39 Yer yuzida banda ularni vahimaga solmasin deya,
Ularga Sen adolat qilasan.

# 10–SANO

*Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

1 Egamizda men panoh topaman,
Qanday qilib siz menga:
“Qush kabi uchib ketgin togʻlarga”, deysiz?
2 Sizlar menga:
“Qara, pokdilning yuragini panadan otmoq uchun
Qabihlar yoylarini tayyorladi,
Oʻqlarini shaylab, moʻljalga oldi.
3 Qonun oyoq osti boʻlganda,
Solih nima qila oladi?!” deb aytasiz.

4 Egamiz Oʻzining muqaddas Ma’badidadir,
Egamizning taxti samodadir.
U insonni koʻzdan qochirmaydi,
Nigohi insonni tekshirib turadi.
5 Egamiz solihni hamda qabihni sinaydi,
Zulmni sevuvchidan U nihoyatda nafratlanadi.

6 Qabihning ustiga choʻgʻ, oltingugurt yogʻdiradi*,

Ularga ulush qilib garmselni* beradi.
7 Egamiz adolatlidir, U to‘g‘ri ishlarni sevadi,
To‘g‘ri yuradigan inson
Uning marhamatidan bahramand bo‘ladi.

## 11–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Sakkiz torli asbob jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Najot bergin bizga, ey Egam!
Taqvodor bir inson qolmadi,
Senga sodiq inson yo‘q bo‘lib ketdi.
3 Hamma bir–biriga yolg‘on so‘zlaydi,
Xushomadgo‘ylik bilan bir–birini aldaydi.

4 Xushomadgo‘y tillarni Egamiz kesib tashlasin,
Maqtanchoq og‘izlarni U qirib tashlasin.
5 Axir, ular: “Og‘zimiz bilan erishamiz har narsaga,
Tilimiz o‘zimizniki, kim xo‘jayin bizga?!” deb aytadi.

6 Egamiz aytmoqda: “Muhtoj ezilib ketdi,
Bechora nola qildi. Endi qo‘zg‘alaman,
O‘zlari intilgan najotga yetkazaman.”
7 Egamizning va’dalari g‘oyatda pokdir,
Uning so‘zlari o‘choqda
Yetti karra tozalangan kumushga o‘xshaydi.

8-9 Har tarafda qabihlar daydib yuradi,
Har yoqda odamlar yomonlikni maqtab yuradi.
Ey Egam! Bulardan bizlarni saqlagaysan,
To abad bu nasldan bizni himoya qilgaysan.

## 12–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Egam, qachongacha meni unutasan?
Nahotki meni to abad unutsang?!
Qachongacha mendan yuz o‘girasan?
3 Qachongacha jonim azobda qoladi,
Kun bo‘yi yuragim g‘amga to‘ladi?
Qachongacha dushmanim mendan ustun keladi?
4 Javob ber, ey Egam Xudo, boq holimga!
Kuchimni qaytargin, toki ketmayin o‘lim uyqusiga.
5 “Uni yengdim”, deb aytmasin dushmanim,
Yiqilganimda sevinmasin yovlarim!

6 Men umid bogʻlayman sodiq sevgingga,
Najotingdan qalbim toʻladi quvonchga.
Ey Egam, qoʻshiq aytaman Senga,
Zero, Sen inoyat aylading menga.

## 13–SANO

*Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

1 Ahmoqlar* oʻz koʻnglida: “Xudo yoʻq”, deydi.
Ular yaramaslardir, qilmishi jirkanch ishlardir,
Yaxshilik qiluvchi biron zot yoʻqdir.

2 “Idrokli biron zot bormikan?
Bormikan Menga yuz burgan?” deya
Insonga Egamiz samodan boqar.
3 Hammasi adashgan, birday buzilgan,
Yaxshilik qiluvchi bir kimsa yoʻqdir,
Hatto bironta ham yoʻq!

4 Ular idroksiz, badkirdor,
Xalqimni bir luqma nonday yeb yuboradi,
Hech qachon Egamizga sajda qilmaydi.
5 Ana, bosayotir ularni qattiq vahima,
Xudo solihlar bilandir birga.
6 Badkirdorlar mazlumning niyatini puchga chiqarsa ham,
Egamiz mazlumlarning panohidir.

7 Eh, Quddusdan* Isroilga najot kelsaydi!
Egamiz Oʻz xalqini yana farovonlikka erishtirsa,
Yoqub nasli shod boʻlgay, Isroil sevingay!

## 14–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Ey Egam, kim yashaydi Sening maskaningda?
Kim makon topadi Sening muqaddas togʻingda?*

2 Toʻgʻri yurib, toʻgʻri ish qilganlar yashaydi,
Yurakdan haq gapni aytganlar yashaydi.
3 Boshqalarga boʻhton qilmaganlar yashaydi,
Doʻstlariga yomonlik qilmaganlar yashaydi,
Qoʻshnilarini haqorat qilmaganlar yashaydi.
4 Razil kimsalardan nafratlanganlar yashaydi,
Ey Egam, Sendan qoʻrqqanlarni izzatlaganlar yashaydi,

O‘ziga zarar bo‘lsa ham, ahdida turganlar yashaydi.
5 Qarz berib sudxo‘rlik qilmaganlar yashaydi.
Aybsizga qarshi guvohlik berish uchun pora
olmaganlar yashaydi.

Bularni qilganlar tinch–omon bo‘ladi.

## 15–SANO

*Dovud qo‘shig‘i.*

1 O‘zing saqla meni, ey Xudo!
Men Senda panoh topaman.

2 Egamga aytdim: “Mening Rabbimsan,
Sendan boshqa mening buyuk baxtim yo‘q.”
3 Naqadar ulug‘vordir yurtdagi taqvodorlar,
Ulardan men g‘oyat zavq olaman.
4 Soxta xudolarga ergashganlarning kulfati ortadi.
Ularning ichimlik nazri qon ekan,
Men ularning bu nazrlariga qo‘shilmayman,
Soxta xudolarning ismlarini tilga olmayman.

5 Ey Egam! Barqarorligim Sensan,
Muvaffaqiyatim ham O‘zingdirsan,
Kelajagimni Sen ta’minlaysan.
6 Hosildor yerni meros olgan insonga o‘xshayman.
Axir, Sen meni ajoyib mulkning sohibi qilding!

7 Egamni olqishlayman,
U menga yo‘l ko‘rsatadi,
Tunda ham qalbim menga o‘git beradi.
8 Men doim Egamga ko‘z tikaman,
U o‘ng tomonimda bo‘lgani uchun
Meni hech narsa qo‘zg‘ata olmas.

9 Shu bois, ey Egam, yuragim quvonchga to‘la,
Jonim ham quvonadi.
Tanam xavf–xatarsiz yashaydi.
10 Meni o‘liklar diyorida* qoldirmaysan,
Taqvodoringni* qabrda chiritmaysan.
11 Menga hayot so‘qmog‘ini O‘zing ko‘rsatasan,
Huzuringda shodlik meni qamrab oladi,
Menga boqiy huzur–halovatni Sen berasan.

# 16–SANO

*Dovud ibodati.*

1 Ey Egam, haqli da’voimni eshit,
Faryodimga e’tibor ber.
Hiylasiz ogʻzimdan chiqqan
Ibodatimga quloq tut.
2 Begunohligimni koʻrsatgin Sen,
Adolatni koʻrsin koʻzlaring.

3 Hatto yuragimni taftish qilib,
Tunda meni sinab koʻrsang,
Agar meni imtihon qilsang,
Yomon niyatni menda topa olmasding.
Ogʻzim gunoh qilmas, qarorim shudir.
4 Insonlar qilmishini men qilmadim,
Sening amringga men itoat etdim,
Zoʻravonning yoʻllaridan oʻzimni saqladim.
5 Qadamlarim soʻqmoqlaringda sobit boʻldi,
Oyoqlarim hech qachon toyib ketmadi.

6 Senga iltijo qilaman, ey Xudo,
Bilaman, Sen menga javob berasan.
Menga quloq tutib, soʻzlarimni eshitgin.
7 Sodiqligingni zohir et ajoyib ishlar ila.
Raqiblardan qochib Senga borganlarga
Oʻng qoʻling bilan najot berguvchi Sensan.
8 Meni koʻzlaring qorachigʻiday asragin,
Meni qanotlaring soyasida yashirgin,
9 Meni talaydigan fosiqlardan asragin,
Atrofimda shay turgan ashaddiy yovlarimdan
yashirgin.
10 Ularning yuragida shafqatga joy yoʻq,
Ogʻizlari bilan kiborlarcha gapiradi.
11 Ular meni ta’qib qilib, oʻrab olganlar,
Yerga urmoq uchun menga koʻzlarini tikadi.
12 Dushmanlarim meni gʻajimoqchi boʻlgan sherga
oʻxshaydi,
Pana joyda pisib yotgan yirtqich sherga oʻxshaydi.

13 Kel, ey Egam! Ularga qarshi yuz bur,
Tiz choʻktirgin ularni!
Qiliching ila fosiqlardan qutqargin meni!
14 Ey Egam! Qudrating ila
Meni bunday insonlardan qutqargin,

Ularning nasibasi faqatgina bu dunyodadir.
Tayyorlab qo‘ygan achchiq ko‘rgiliklaring bilan
Ularni to‘ydirgin,
Hatto bolalariga ham yetsin,
Nabiralari ham totib ko‘rsin.

15 Solih bo‘lganim uchun men Seni ko‘rgayman,
Uyg‘onib, jamolingni ko‘rganimdan rozi bo‘lgayman.

## 17–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Egamizning quli Dovud sanosi. Egamiz Dovudni jamiki dushmanlari va Shoulning qo‘lidan ozod qilgandan keyin Dovud Egamizga atab shu qo‘shiqni aytdi.*

2 Seni sevaman, ey Egam, mening qudratim.

3 Egam suyangan qoyamdir*, mening qal’am,
qutqaruvchimdir.
Ha, Xudodir mening qoyam, Unda panoh topaman.
Udir mening qalqonim, qudratli najotkorim*,
qo‘rg‘onim.
4 Egamga iltijo qilaman,
G‘animlarimdan U meni xalos qiladi.
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

5 Meni o‘lim to‘rlari chirmab olgandi,
Balo–qazo sellari dahshat ila bosib kelgandi.
6 Ha, o‘liklar diyorining* to‘rlari meni o‘rab olgandi,
O‘lim o‘z tuzog‘iga meni asir qilgandi.
7 Kulfatda qolganimda Egamga iltijo qildim,
Ha, nola qildim Xudoyimga.
U Ma’badidan turib, ovozimni eshitdi,
Ohu nolam qulog‘iga yetib bordi.

8 O‘sha zamon yer yuzi titrab, tebrandi,
Tog‘larning poydevori larzaga keldi,
Egam g‘oyat g‘azabga mingan edi.
9 Burnidan tutun buruqsab chiqardi,
Og‘zidan otash pishqirardi,
Oldidan qip–qizil cho‘g‘ yog‘ilardi.
10 U ko‘klarni yorib, pastga tushdi,
Oyoqlari ostida — qora bulut.
11 Egam bir karubga* minib uchdi,
Yel qanotlari uzra uchib keldi.
12 Atrofini zulmat bilan o‘radi,

Quyuq, qora bulutlarni O‘ziga chayla qildi.
13 Ulkan nur Egamning oldidan chiqdi,
Do‘l va qip–qizil cho‘g‘ qop–qora bulutlarni
parchaladi.
14 Egamizning ovozi ko‘klarda guldiradi,
Xudoyi Taoloning sadosi eshitildi*.
15 O‘qlarini otdi,
Chaqmoq chaqtirib, yovlarini tirqiratdi,
Ularni sarosimaga soldi.
16 Egamizning tahdidlaridan,
Uning qahrli nafasidan
Dengizning tubi ko‘rinib qoldi,
Zamin poydevori* yalang‘och bo‘lib qoldi.

17 Egam yuqoridan qo‘l uzatib, meni tutdi,
Bahaybat suvlardan meni chiqarib oldi.
18 Meni kuchli g‘animlarim qo‘lidan,
Mendan nafratlangan yovlarimdan qutqardi,
Ular mendan kuchli edilar.
19 Qora kunimda ular menga hamla qildilar,
Ammo Egam menga tayanch bo‘ldi.
20 Meni bexavotir joyga chiqarib qo‘ydi,
Mendan mamnun bo‘lib, najot berdi.

21 Egam solihligim uchun meni mukofotlaydi,
Aybsizligim uchun meni taqdirlaydi.
22 Zero, men Egamning yo‘lidan yurdim,
Axloqsizlik qilmadim, Xudoyimdan yuz o‘girmadim.
23 Uning hamma qonun–qoidalariga rioya qildim,
Farmonlarini chetga surib qo‘ymadim.
24 Uning oldida benuqson bo‘ldim,
Gunoh qilishdan o‘zimni saqladim.
25 Shu sababli Egam meni pok deb bildi,
Solihligimga yarasha mukofot berdi.

26 Ey Egam! Senga sodiq bo‘lganga Sen sodiq
bo‘lasan,
Yaxshi insondan yaxshiligingni ayamaysan,
27 Pok kishiga pokligingni ko‘rsatasan,
Egrining ayyorligini o‘z boshiga solasan.
28 Ahli kamtarga esa najot berasan,
Dimog‘dorni yerga urasan.

29 Ey Egam Xudo! Chirog‘imni yoquvchi O‘zingsan,
Zulmatni men uchun yorug‘likka aylantirasan.
30 Ey Xudoyim! Senga suyanib lashkarni yo‘q

qilaman,
Senga suyanib devorlardan oshib oʻtaman.

31 Xudoning yoʻli komildir,
Egamizning kalomi chin haqiqatdir,
Panoh izlab borganga U qalqondir.
32 Egamizdan boshqa Xudo kim ekan?!
Xudoyimizdan boʻlak suyanchiq Qoya bormikan?!
33 Meni qudratli qiluvchi Xudodir,
Yoʻlimni Oʻzi bexatar qiladi.
34 U oyoqlarimni kiyik oyogʻiday qiladi,
Choʻqqilar uzra meni bexatar yurgizadi.
35 Qoʻllarimni jang qilishga oʻrgatadi,
Barmoqlarim bronza yoyni buka oladi.
36 Ey Egam, Sen menga zafar qalqoningni bergansan,
Oʻng qoʻling menga tayanch boʻladi,
Madading esa meni yuksaltiradi.
37 Oyoqlarim uchun yoʻlimni keng qilgansan,
Oyoqlarim sira ogʻib ketmaydi.

38 Gʻanimlarimni quvlab, tutib oldim,
Ularni yoʻq qilmay ortga qaytmadim.
39 Shunday ezdimki ularni, tura olmadilar,
Oyoqlarim ostida choʻzilib qoldilar.
40 Sen menga quvvat berib, jangga yubording,
Menga qarshi otlangan yovni oldimda bosh
egdirding.
41 Gʻanimlarimni mendan qochirding,
Mendan nafratlanganlarni men yoʻq qildim.
42 Ular madad soʻrab faryod qildilar,
Najotkorni esa topolmadilar,
Ey Egam, gʻanimlarim Senga yolvordilar,
Ammo Sen javob bermading.
43 Shamolning changiday ularni ezdim,
Yoʻldagi loydek sidirib tashladim.

44 Sen meni xalqning urush–janjalidan xalos etding.
Meni ellarga yoʻlboshchi qilding,
Oʻzim tanimagan elat menga qaram boʻldi.
45 Ovozimni eshitiboq quloq tutdi,
Yot ellar menga boʻyin egdi.
46 Yot ellar holsizlanib yiqildi,
Qaltirab manzilidan chiqib qochdi.

47 Egam barhayotdir! Suyangan Qoyamga olqishlar
boʻlsin!

Najotkorim Xudo yuksalsin!
48 Qasdimni olgan Xudodir,
Xalqlarni menga U tobe qilgan,
49 Meni gʻanimlarimdan U qutqargan,
Bosqinchilardan meni ustun qilgan,
Meni zoʻravonlar qoʻlidan xalos etgan.

50 Shu bois, ey Egam, xalqlar ichra
Senga hamdlar aytaman!
Seni kuylab sano aytaman!

51 Egamiz Oʻz shohini ulugʻ zafarlarga erishtiradi,
Oʻzi tanlagan shoh Dovud va uning nasliga
To abad sodiq sevgisini koʻrsatadi.

## 18–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Xudoning shuhratini samolar namoyon qiladi,
Uning ijodini falak toqi aytib turadi.
3 Osmon kundan–kunga buni bildiradi,
Har tun bundan xabardor qiladi.
4 Samo, falak aytmas bir gap, yo bir jumla,
Chiqmas ulardan hech bir sado.
5 Ammo xabarlari* har tomonga tarqaladi,
Olamning chetigacha yetib boradi.

Xudo samolarda quyosh uchun chodir qurgan.
6 Quyosh goʻshangadan chiqqan kuyovga oʻxshaydi.
Qahramonlarga oʻxshab gʻayrat bilan yoʻlagidan
boradi.
7 Samolarning bir chetidan u chiqib,
Aylanib, boshqa bir chetiga yoʻl oladi,
Uning taftidan hech narsa yashirina olmaydi.

8 Egamizning qonuni mukammaldir,
Bizga yangi kuch ato etadi,
Egamizning farmonlari ishonchlidir,
Soddalarga donolik beradi.
9 Egamizning buyruqlari toʻgʻridir,
Qalblarni shodlikka toʻldiradi,
Egamizning amrlari ravshandir,
Ular koʻzlarga nur beradi.
10 Egamizdan qoʻrqish poklikdir,
Bu to abad davom etadi.
Egamizning qoidalari haqiqatdir,

Hammasi g‘oyat adolatlidir.
11 Ular sof oltindan ham a’lodir,
Toza asaldan ham shirinroqdir.

12 Ey Egam, qoidalaring menga, O‘z qulingga o‘git
beradi,
Qoidalaringga itoat etganlar buyuk mukofot oladi.
13 Kim o‘z xatosini bila oladi?!
Yashirin xatolardan meni O‘zing poklagin.
14 Men, qulingni oshkora gunohdan saqlagin,
Ustimdan gunoh hokim bo‘lmasin.
Shunda men aybsiz bo‘laman,
Og‘ir gunohdan ham xoli bo‘laman.

15 Ey Egam, suyangan Qoyam, Qutqaruvchim!
Og‘zimdan chiqqan so‘zlar,
Yurakdagi niyatlarim Senga ma’qul bo‘lsin.

## 19–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Kulfatda qolganingda, Egamiz senga javob bersin,
Bobomiz Yoqubning Xudosi seni tinch–omon
saqlasin.
3 Muqaddas maskanidan U senga madad yuborsin,
Quddusdan* U senga tayanch bo‘lsin.
4 U sening hamma nazrlaringni yodda tutsin,
Kuydirilgan qurbonliklaringni qabul etsin.
5 Ko‘ngling istaganini Egamiz senga in’om qilsin,
Hamma rejalaringni ro‘yobga chiqarsin.
6 Shunda biz zafaringni sevinch ila kuylaymiz,
Xudoyimiz nomi bilan bayroqlar o‘rnatamiz,
Hamma iltijolaringni Egamiz ro‘yobga chiqarsin.

7 Bilaman, Egamiz O‘zi tanlagan shohga najot beradi,
Egamiz muqaddas samosidan unga javob beradi,
Egamiz o‘ng qo‘li bilan unga buyuk g‘alaba ato qiladi.
8 Ba’zilar jang aravalariga ishonadi,
Ba’zilar otlari bilan maqtanadi,
Biz esa Egamiz Xudoga ishonamiz.
9 Ular holsizlanib yiqiladilar,
Biz esa kuchayib qad rostlaymiz.

10 Ey Egam, shohimizga ato qilgin g‘alaba,
Iltijo qilganimizda, javob bergin bizga*.

## 20–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Egam! Sening qudrating tufayli shoh quvonadi,
Sen bergan zafarlardan u naqadar lazzatlanar!
3 Ko‘nglidagi istaklarini ro‘yobga chiqarding,
Uning tilaklarini rad qilmading.
4 Ulug‘ barakani unga ato qilding,
Uning boshiga sof oltin toj kiygizding.
5 Sendan umr so‘raganda, umr berding,
Uzoq hamda boqiy umr baxsh etding.
6 Shohning shuhrati Sen bergan zafarlar tufayli
ulug‘dir,
Unga dabdaba, ulug‘vorlik ato qilgan Sensan.
7 Sen to abad unga baraka berasan,
Unga juda yaqin bo‘lib,
Uni shodlikka to‘ldirasan.
8 Egamizga shohimiz umid bog‘laydi,
Xudoyi Taoloning sodiq sevgisi tufayli
U hech qachon qoqilmaydi.

9 Ey shohimiz, qo‘ling barcha dushmanlaringni
mag‘lub qiladi,
Ha, o‘ng qo‘ling sendan nafratlanganlarni mag‘lub
qiladi.
10 Sen zohir bo‘lganing zamon
Qizigan tandirday ularni yondirasan.
Egamiz O‘z g‘azabi bilan ularni yutib yuboradi,
Alanga ularni yondirib tashlaydi.
11 Ey shohimiz, ularning naslini
Yer yuzidan qirib tashlaysan,
Zurriyotini insoniyat orasidan yo‘qotasan.
12 Dushmanlaring senga qarshi yomonlikni reja
qilsalar,
Ular senga qarshi fitna qo‘zg‘asalar,
Hech narsaga erisha olmaydilar.
13 Kamoningdan ularga o‘qlar otasan,
Ortiga qochishga majbur qilasan.

14 O‘z qudrating tufayli yuksalaver, ey Egam,
Qudratingni kuylab, hamdu sano aytamiz.

## 21–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Tongda chiqqan kiyik” kuyiga*

*aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey Xudoyim! Nega meni tark etding?!
Nega mendan uzoqdasan shu qadar?!
Ey Xudoyim! Nechun menga najot bermaysan?!
Ohu nolalarimni eshitmaysan?!
3 Ey Xudoyim, kun bo‘yi iltijo qilaman,
Sen esa javob bermaysan.
Tun bo‘yi yolvoraman,
Ammo menga tinchlik yo‘q.

4 Baribir Sen Muqaddas Xudosan,
Isroilning hamdu sanosi qurshab olgan taxtingni.
5 Ota–bobolarimning umidi Senda edi,
Sen ularga najot berding.
6 Ular Senga nola qilib, najot topdilar,
Ular Senga ishonib, uyalib qolmadilar.

7 Axir, men inson emas, bir qurtdirman.
Odamlar hazar qilgan, xalqlar nafratlangan.
8 Meni ko‘rgan har kim ustimdan kular,
Meni haqoratlab, bosh chayqab derlar:
9 “Egangga ishon, O‘zi qutqarib olar,
Egang sendan mamnun bo‘lsa, U najot berar.”

10 Onam qornidan Sen meni chiqargan eding,
Onam bag‘rida O‘zing meni omon saqlagan eding.
11 Senga tayanaman tug‘ilganimdan buyon,
Mening Xudoyimsan onam dunyoga keltirgandan
buyon.
12 Mendan uzoq bo‘lmagin!
Axir, kulfat yonginamda–ku,
Menga madad berguvchi biron kimsa yo‘q!

13 Bir gala buqalar* Meni qurshab olgan,
Ha, Bashan o‘lkasining* kuchli buqalari Meni o‘rab
olgan.
14 O‘kirib o‘ljasini pora qiladigan sherga o‘xshab,
Men tomon ular og‘izlarini katta ochgan.

15 Hayotim suv kabi to‘kildi,
Suyaklarim bo‘g‘inidan bo‘shashdi,
Yuragim mum kabi ichimda erib ketdi.
16 Madorim qurib, sopol parchasiday bo‘lib qoldim*,
Tilim tanglayimga yopishib qoldi,
Meni o‘lim to‘shagiga yotqizding.

17 Atrofimda ko‘ppaklar izg‘iydi,
Badkirdorlar to‘dasi meni qurshab olgandir,
Qo‘lu oyoqlarimni ular ilma–teshik qiladi*.
18 Hamma suyaklarim ko‘rinib turadi,
Dushmanlarim ko‘zlarini chaqchaytirib,
Yeb qo‘ygudek bo‘ladi.
19 Kiyimlarimni ular o‘zaro bo‘lishgan,
Libosim uchun qur’a tashlashgan.

20 Mendan uzoq turma, ey Egam!
Kuchim manbayi Sensan! Tez kel, yordam ber!
21 Jonimni qilich damidan qutqar,
Hayotimni ko‘ppaklar changalidan qutqar!
22 Sherlar og‘zidan qutqargin meni!
Yovvoyi buqalar shoxidan asragin meni!

Sen iltijoimga javob berding.
23 Birodarlarimga Sen haqingda aytaman,
Jamoa orasida Senga hamdu sano o‘qiyman.
24 Ularga shunday deyman:
“Egamizga hamdu sano ayting, ey Undan
qo‘rqqanlar!
Egamizni ulug‘lang, ey Yoqub nasli!
Egamizni izzatlang, ey Isroil nasli!
25 Kulfatda qolgan bechoradan Egamiz yuz o‘girmadi.
Uning qayg‘ularidan hazar qilmadi, nafratlanmadi.
Bechoraning nolalarini Egamiz eshitdi.”

26 Ulug‘ jamoa ichra
Hamdu sano aytishimning sababi Sensan.
Sendan qo‘rqqanlar oldida ontimni ado etaman.
27 Ey Egam, qashshoqlar yeb to‘yadilar*,
Senga yuz burganlar Seni madh qiladilar,
Ular dunyo turguncha tursinlar!

28 Egamizni eslab, Unga yuz bursinlar
Yer yuzidagi jamiki insonlar!
Jamiki urug‘u elatlar
Unga sajda qilsinlar!
29 Egamiz hokimiyati mutlaqdir,
Elatlar ustidan U hukmrondir.

30 Jamiki boylar ham ziyofat yeb, Unga ta’zim qiladi.
Tuproq ostiga ketayotganlar ham Unga sajda qiladi,
Hatto o‘z hayotini saqlay olmaydiganlar ta’zim qiladi.
31 Avlodlar Unga xizmat qiladi,

Kelgusi nasllar Rabbiy haqida eshitadi.
32 Ular kelib Egamizning najoti haqida e’lon qiladi,
Uning qilganlarini hali tug‘ilmagan xalqlarga aytadi.

## 22–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egam Mening cho‘ponimdir,
Men muhtojlik ko‘rmasman aslo.
2 Yam–yashil yaylovlarda U menga orom beradi,
Sokin irmoqlar bo‘yida U meni yetaklaydi.
3 U menga qayta kuch baxsh etadi.
O‘zining nomi haqi–hurmati
Meni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi.

4 Ey Egam!
Hatto zulmat vodiysida* yursam ham,
Xavf–xatardan qo‘rqmayman,
Axir, Sen men bilan birgasan.
Sening cho‘pon tayog‘ing*,
Xiviching* meni himoya qiladi.

5 Dushmanlarimning ko‘z o‘ngida
Men uchun dasturxon tuzaysan.
Boshimga moy surtib,
Sen meni hurmat bilan kutib olasan.
Kosamni lazzatli ne’matlarga lim–lim to‘ldirasan.
6 Umrim bo‘yi Sening mehr–shafqating izimdan yuradi,
Ey Egam, Sening uying to abad mening maskanim bo‘ladi.

## 23–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egamiznikidir zamin, undagi butun borliq,
Olamu unda yashovchi jamiki jonzot.
2 U olamni o‘rnatgan dengizlar uzra,
Mustahkam qilgan uni ummonlar uzra*.

3 Kim turishi mumkin Egamizning muqaddas makonida?
Kim chiqishi mumkin Uning tepaligiga?*
4 Qo‘li halol, qalbi toza insonlar,
Soxta narsalarga ko‘ngil qo‘ymaganlar,
Yolg‘ondakam ont ichmaganlar.

5 Egamiz ularga baraka beradi,
Najotkor Xudo ularni oqlaydi.
6 Egamizga yuz burgan jamoa oʻshandaydir.
Ha, Xudoga intilgan Yoqub nasli* shundaydir.

7 Qaddingizni rostlang, ey darvozalar!
Ochilinglar, ey azaliy eshiklar!
Toki kira qolsin ulugʻvor Shoh!
8 U ulugʻvor Shoh kim ekan?
Janglarda gʻolib boʻlgan,
Kuchli, qudratli Egamiz Shohdir!
9 Qaddingizni rostlang, ey darvozalar!
Ochilinglar, ey azaliy eshiklar!
Toki kira qolsin ulugʻvor Shoh!
10 U ulugʻvor Shoh kim ekan?
Sarvari Olamning Oʻzi ulugʻvor Shohdir.

## 24–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Yuragimni ochaman Senga, ey Egam!
2 Senga umid bogʻlayman, ey Xudoyim!
Sharmanda boʻlishimga yoʻl qoʻymagin,
Dushmanlarim mendan ustun kelmasin.
3 Senga ishonganlar aslo boʻlmasin sharmanda.
Sharmandalik kelsin
Senga asossiz xiyonat qilganlarning boshiga.

4 Ey Egam, yoʻllaringni menga koʻrsat,
Soʻqmoqlaringni menga oʻrgat.
5 Oʻzing meni boshlab borgin,
Haqiqatingni menga oʻrgatgin,
Najotkorim Xudo Oʻzingsan,
Kun boʻyi Sendan umid qilaman.

6 Yodingda tut, ey Egam, buyuk shafqatingni
Hamda sevgida sodiqligingni.
Axir, azaldan Sen shunday qilgansan.
7 Yoshlikda qilgan gunohlarimni esga olmagin,
Itoatsizliklarim uchun meni jazolamagin.
Sodiq sevging haqi yodga ol meni,
Axir, Sen yaxshisan, ey Egam!

8 Egamiz yaxshi, adolatlidir!
U gunohkorlarga yoʻl–yoʻriq koʻrsatadi.
9 U kamtarni toʻgʻrilikka boshlaydi,

Kamtarin insonni O‘z yo‘liga o‘rgatadi.
10 Egamiz qilgan har ishi orqali
Uning ahdiga rioya qilganlarga
Sevgisiyu sadoqatini ko‘rsatadi.

11 Mening ayblarim ko‘p.
Ey Egam, O‘z noming haqi
Ayblarimni kechirgin.

12 Agarda inson Egamizdan qo‘rqsa,
Egamiz unga to‘g‘ri yo‘l tanlashni o‘rgatadi.
13 O‘sha inson umrini farovonlikda o‘tkazadi,
Uning nasli yurtni mulk qilib oladi.
14 Egamiz Undan qo‘rqadiganlarga
O‘z niyatlarini ishonib bildiradi,
O‘z ahdini ularga ma’lum qiladi.
15 Nigohim doimo Egam tomondadir,
U oyoqlarimni tuzoqdan xalos qiladi.

16 Ey Egam, holimga boq, mehribonlik qil.
Men yolg‘izman, tushkunlikka tushganman.
17 Yurakdagi g‘amlarim ortib bormoqda,
Shu kulfatdan meni qutqargin.
18 Kulfatu g‘amlarimni ko‘rib,
Barcha gunohlarimdan o‘tgin.

19 Qara, dushmanlarim naqadar ko‘p,
Mendan qattiq nafrat qilarlar.
20 Hayotimni asra, qutqargin meni,
Sharmandali ahvolga solmagin meni,
Zotan, Senda panoh topaman men.
21 Haqqoniylik, to‘g‘rilik saqlasin meni,
Zotan, Sendan umid qilaman men.

22 Ey Xudo, qutqargin Isroilni
Jamiki kulfatlaridan!

## 25–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Ey Egam, to‘g‘ri yurganim uchun
Meni oqlagin.
Qoqilmasdan Senga tayandim.
2 Sinab, imtihon qil meni, ey Egam!
Yuragimni, niyatimni sinab ko‘r!
3 Sening sodiq sevging ko‘z o‘ngimdadir,

Senga doim sodiqman*.

4 Yolg‘onchilarga men sherik bo‘lmayman,
Munofiqlar bilan do‘st bo‘lmayman.
5 Fosiqlar to‘dasidan nafrat etaman,
Qabihlarga men sherik bo‘lmayman.

6 Namoyon qilmoq uchun aybsizligimni
Qo‘llarimni yuvaman, ey Egam.
Qurbongohing atrofida yuraman,
7 Baland ovoz ila shukrona qo‘shig‘ini kuylayman,
Jamiki mo‘jizalaring haqida aytaman.

8 Ey Egam, sevaman Sen maskan qilgan uyni,
Ulug‘vorliging porlagan joyni.
9 Gunohkorlar qatori jonimni olma,
Qonxo‘rlar qatori hayotimga chek qo‘yma.
10 Ularning qo‘llari tuzadi yovuz reja,
O‘ng qo‘llari poraga to‘la.

11 Men esa pok hayot kechiraman,
Qutqar meni, qil menga shafqat.
12 To‘g‘ri yo‘ldan og‘mayman,
Ey Egam, ulug‘ yig‘inlarda Seni olqishlayman.

## 26–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egam nurim va najotimdir,
Kimdan qo‘rqaman?!
Egam hayotimning qal’asidir,
Kim meni qo‘rqita olar?!
2 Meni o‘ldirmoqchi bo‘lib,
Yovuzlar ustimga bostirib kelganda,
Ha, g‘animu dushmanlarim menga hujum qilganda,
Qoqilib, yiqilib tushadilar.
3 Hatto butun lashkar meni o‘rab olsa ham,
Yuragimda aslo qo‘rquv paydo bo‘lmas.
Hatto menga qarshi jangga otlansa ham,
Ishonchim hech ham yo‘qolmas.

4 Bir narsani Egamdan so‘raganman,
Ha, Undan istaganim bitta narsadir:
Egamning uyida to abad yashay,
Egamning jamolini ko‘ray,
Ma’badda turib, Unga muntazir bo‘lay.

5 Kulfatda qolgan kunlarimda
U meni Oʻz chaylasida omon saqlaydi.
Chodiri ostida meni yashiradi,
Baland qoya tepasiga oʻtqazib qoʻyadi.

6 Endi esa har tarafdagi gʻanimlarim ustidan
Boshim magʻrur koʻtarilgandir.
Shodlikdan hayqirib,
Egamning Chodirida qurbonlik keltiraman.
Egamni olqishlab, qoʻshiq aytaman.

7 Eshitgin, ey Egam, iltijo qilganimda,
Shafqat qilgin, javob ber menga.
8 “Menga intil!” deganingni qalbim eshitdi,
Ha, ey Egam, men Senga intilaman.
9 Mendan yuz oʻgirmagin,
Gʻazab ila men, Oʻz qulingdan voz kechmagin,
Madadkorim Sen boʻlgansan–ku, ey Egam.
Rad etma, tark aylama meni, ey najotkorim Xudo!
10 Ota–onam meni tark etsa hatto,
Ey Egam, Sen meni qabul qilasan.
11 Yoʻlingni menga koʻrsat, ey Egam,
Dushmanlarim poylab turgani uchun
Meni toʻgʻri soʻqmoqlaringdan yetakla.
12 Gʻanimlarim qoʻllariga topshirma meni.
Axir, soxta guvohlar, nohaq ayblovchilar
Menga qarshi chiqdilar.

13 Shubham yoʻq, tiriklar diyorida
Egamning ezguligini albatta koʻraman.
14 Egamizga umid bogʻla,
Dadil boʻl, yuragingga dalda ber,
Egamizga umid bogʻla!

## 27–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Senga iltijo qilaman, ey Egam,
Meni eshitmay qolmagin, ey suyangan Qoyam.
Agar menga gapirmay sukut saqlasang,
Qabrga tushgan odam kabi boʻlib qolaman.
2 Eshitgin, Senga iltijo qilaman.
Muqaddas maskaningga* qoʻllarimni choʻzib,
Faryod qilib, Sendan madad soʻrayman.

3 Meni fosiqlarning qatoriga qo‘shmagin,
Ularning qilmishlari yomonlikdir,
Qo‘shnilariga tilyog‘lamalik qiladi,
Yuraklarida esa yovuz niyatdir.
4 Qilmishiga yarasha ularga jazo bergin,
Iflosliklariga yarasha jazolagin.
Qabih ishlariga yarasha adabini bergin,
Xizmatiga yarasha ularga qaytargin.
5 Ey Egam, ular ishlaringni qadrlamas,
Sening ijodingga e’tibor qilmas,
Sen ularni yiqitasan,
Ular qaytib tiklanolmas.

6 Olqishlar bo‘lsin Egamizga,
Iltijolarimni U eshitdi.
7 Egam — mening qudratim, qalqonimdir,
Yurakdan Unga umid bog‘laganman.
Egam menga madad berdi, baxtiyorman.
Qo‘shig‘im ila Unga shukrona aytaman.

8 Egamiz O‘z xalqining qudratidir,
O‘zi tanlagan shohning najot qo‘rg‘onidir.

9 Xalqingga najot ber, ey Egam,
O‘z elatingga baraka bergin.
Ularning cho‘poni bo‘lgin,
To abad ularga g‘amxo‘rlik qilgin.

# 28–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egamizga hamdlar ayting, ey ilohiy zotlar*,
Egamizning qudratiyu shuhratiga hamdlar o‘qing.
2 Egamizning sharafiga hamdlar o‘qing,
Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!*

3 Egamizning ovozi suvlar uzra eshitiladi,
Ulug‘vor Xudo guldirab sado beradi.
Ha, azim suvlar uzra
Egamiz guldirab sado beradi.
4 Egamizning ovozi qudratlidir,
Egamizning ovozi haybatlidir.

5 Egamizning ovozi sadr daraxtlarini qulatadi,
Hatto Lubnondagi sadr daraxtlarini* parchalab

tashlaydi.
6 Lubnon tog‘larini Egamiz buqaday sakratadi,
Ha, Xermon tog‘ini* yovvoyi buzoqday sakratadi.
7 Egamizning ovozi chaqmoq chaqtiradi,
8 Egamizning ovozi sahroni titratadi,
Egamiz Kadesh sahrosini larzaga soladi.

9 Egamizning ovozi ulkan daraxtlarni egib yuboradi*,
O‘rmonlarni yalang‘ochlab, shilib yuboradi,
“Egamiz ulug‘vordir”, deb Ma’badida hamma
kuylaydi.

10 Egamiz to‘fonni* jilovladi,
U to abad Shoh bo‘lib taxtda o‘tiradi.
11 Egamiz O‘z xalqiga kuch ato etsin,
O‘z xalqiga tinchlik bilan baraka bersin.

# 29–SANO

1 *Dovud sanosi. Egamizning uyi bag‘ishlangan paytda aytilgan qo‘shiq.*

2 Ey Egam, Seni ulug‘layman!
Qabr og‘zidan meni qutqarding,
Dushmanlarim mening ustimdan kulishiga yo‘l
qo‘ymading.
3 Sendan madad so‘rab yolvordim, ey Egam Xudo,
Menga Sen berding shifo.
4 Ey Egam, o‘liklar diyoridan* jonimni olib chiqding,
Qabrdan meni qutqarib qolding.

5 Ey Egamizning taqvodorlari!
Egamizga hamdu sano kuylanglar,
Uning muqaddas nomini olqishlang.
6 Egamizning g‘azabi bir lahza davom etadi,
Lutfu karami bir umr tugamasdir.
Shu bois qayg‘u–alam tun bo‘yi davom etsa ham,
Tong bilan birga shodlik ham kirib keladi.

7 Ishlarim yurishganda,
“Aslo qoqilmasman!” der edim.
8 Ey Egam, lutfu karaming bilan
Meni tog‘day mustahkam qilganding.
Ammo yuzingni o‘girganingda,
Men dahshatga tushdim.

9 Ey Egam, men Senga iltijo qildim,

Shafqat so‘rab, ey Rabbiy, Senga yolvordim:
10 Agar men kirib ketsam qabrga,
Mening o‘limimdan ne foyda Senga?!
Tuproq Senga hamdu sano aytarmi?!*
Sening sodiqligingni u so‘ylarmi?!
11 Eshit, ey Egam, menga rahm qilgin,
Ey Egam, menga madadkor bo‘lgin!

12 Azamni Sen to‘yga aylantirding,
Aza libosini* egnimdan olib tashlading,
Shodlikni menga kiygizding.
13 Qalbim sukut saqlamay, Seni kuylab sano o‘qisin,
Ey Egam Xudo, Senga to abad shukur aytaman.

## 30–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Egam, Senda men panoh topaman,
Sharmanda bo‘lishimga aslo yo‘l qo‘yma,
Adolatlisan, meni qutqargin.
3 Quloq tut menga, darrov xalos qilgin,
Mening panoh qoyam bo‘lgin.
Najot topay, mustahkam qo‘rg‘onim bo‘lgin.

4 Chindan ham Sen suyangan qoyamsan, qal’amsan,
O‘z noming haqi meni yetakla, yo‘l ko‘rsatgin.
5 Sen mening panohimsan.
Qo‘yilgan tuzoqdan meni qutqargin.
6 Hayotimni Senga topshiraman, ey Egam,
Meni qutqarasan, ey sodiq Xudo.

7 Soxta xudolarni izzatlaganlarga
Men nafratimni sochaman.
Ey Egam, men Senga umid bog‘layman.
8 Sodiq sevging ila shod–xurram bo‘lay,
Qayg‘ularimni O‘zing ko‘rgansan,
Jonim azobda qolganini bilasan.
9 Meni g‘anim qo‘liga bermading,
Oyoqlarimni bexavotir yerga qo‘yding.

10 Rahm qil, ey Egam, kulfatda qoldim,
Ko‘zlarim qayg‘udan toldi,
Jonu tanam adoyi tamom bo‘ldi.
11 Hayotim azob bilan tugaydi,
Yillarim oh–voh bilan bitadi.
Gunohlarim* dastidan kuchdan qoldim,

Etlarim suyaklarimga yopishib ketgan.

12 Dushmanlarim meni haqorat qiladi,
Qo‘shnilarim mendan hazar qiladi.
Do‘stlarim ham mendan qo‘rqadi,
Ko‘chada ko‘rib meni, qochib ketadi.
13 Meni unutdilar, go‘yo o‘lganman,
Go‘yo singan sopol idish kabiman.
14 Eshityapman, ko‘pchilik g‘iybat qiladi,
Atrofimni dahshat o‘rab olgan.
Birgalikda menga qarshi fitna to‘qishadi,
Meni o‘ldirmoqni niyat qilishadi.

15 Ey Egam, men Senga umid bog‘layman,
“Mening Xudoyim Sensan”, deb aytaman.
16 Hayotim Sening qo‘lingdadir,
G‘animlarim qo‘lidan,
Payimga tushganlardan meni qutqargin.
17 Jamoling men, qulingga nurlarini sochsin,
Sen sodiqsan, meni qutqargin.
18 Yo‘l qo‘yma, ey Egam, sharmanda bo‘lishimga,
Madad so‘rab iltijo qildim Senga.
Qabihlar sharmandayi sharmisor bo‘lsin,
O‘liklar diyoriga* jim kirib borsin.
19 O‘chsin ularning yolg‘onchi ovozlari,
Zero, takabburlik va nafrat bilan
Ular solihga qarshi so‘ylar.

20 O, naqadar buyukdir Sening ezguliging!
O‘zingdan qo‘rqqanlarga uni saqlab qo‘ygansan,
Senda panoh topganlarga hadya qilasan,
Hammaning ko‘zi oldida in’om qilasan.
21 Huzuringda ularni himoya qilasan,
Inson fitnalaridan omon saqlaysan.
Ularni O‘z chodiring ostida
Ig‘volardan saqlab turasan.

22 Qamalda qolgan shaharday bo‘lganimda
Menga ajoyib sadoqatingni ko‘rsatganing uchun
Ey Egam, Senga olqishlar bo‘lsin!
23 Vahimaga tushib men:
“Ey Egam, Sening nazaringdan mahrum bo‘ldim”,
degandim.
Ha, madad so‘rab Senga yolvorganimda
Iltijolarimni eshitding.

24 Ey Egamizning taqvodorlari, Uni seving!
Unga sodiq boʻlganlarni Egamiz himoya qiladi,
Takabburlarga toʻliq jazo beradi.
25 Bardam boʻling, dadil boʻlsin yuragingiz,
Ey siz, Egamizdan umid qilganlar!

# 31–SANO

*Dovud qasidasi*.*

1 Itoatsizligi kechirilganlar baxtlidir,
Egamiz kimning gunohidan oʻtgan boʻlsa,
Oʻsha inson baxtlidir.
2 Egamiz kimning aybini yozmagan boʻlsa,
Oʻsha inson baxtlidir,
Ruhida hiyla boʻlmaganlar baxtlidir.

3 Ey Egam, gunohimni boʻynimga olmay, rad
qilganimda,
Tanam qoq suyak boʻlib qolgandi,
Kun boʻyi oh–voh qilib chiqardim.
4 Kechayu kunduz tarbiya berishdan toʻxtamading,
Saraton issigʻidagiday madorim qurib qoldi.
5 Endi oldingda gunohimni e'tirof etdim,
Aybimni yashirmay, oʻzim aytdim:
"Egam oldida itoatsizligimni boʻynimga olaman."
Sen esa mening gunohimni kechirding.

6 Shu bois har bir taqvodor
Vaqt borida Senga ibodat qilsin.
Shunda azim suvlar toʻfoni
Taqvodorlarga yetib bormas.
7 Sen mening panohimsan,
Meni kulfatlardan Sen asraysan,
Najot qoʻshigʻi ila meni oʻraysan.

8 Egamiz aytar: "Sizlarga Men yoʻl koʻrsataman,
Yuradigan yoʻllaringizni oʻrgataman,
Maslahat beraman, sizlarni kuzataman.
9 Ongsiz ot yoki xachir kabi boʻlmanglar,
Ularni yoʻlga solmoq uchun suvluq, jilov kerak,
Boʻlmasa ular yoningizga kelmaydi."

10 Fosiqning azobi koʻpdir,
Lekin Egamizdan umidvorlarni
Sodiq sevgi qurshab oladi.
11 Ey solihlar, Egamiz tufayli shodlaning, quvoning!

Ey barcha ko‘ngli poklar, shodlikdan kuylang!

## 32–SANO

1 Sevinch ila Egamizga qo‘shiq kuylang, ey solihlar!
Unga hamdu sano aytmoq pokdil insonlarga
munosibdir!
2 Lira chalib, Egamizga hamdlar ayting,
O‘n torli arfa chalib, Unga qo‘shiq kuylang.
3 Egamizga yangi bir qo‘shiq ayting,
Mahorat ila tor chalib, shodlikdan hayqiring.

4 Egamizning kalomi haqiqatdir,
Uning barcha ishlari ishonchlidir.
5 Egamiz adolatu haqiqatni sevadi,
Zamin Uning sodiq sevgisiga to‘la.

6 Samolar bunyod bo‘lgan Egamizning kalomidan,
Samodagi jismlar yaralgan Uning nafasidan.
7 U dengiz suvlarini yig‘ib qo‘ygan,
Tubsiz suvlarni go‘yo omborga joylab qo‘ygan*.

8 Butun yer yuzi Egamizdan qo‘rqsin,
Butun olam ahli Undan hayiqsin.
9 U gapirdi, aytgani mavjud bo‘ldi,
Amr qildi, zamin yaratildi.

10 Egamiz xalqlarning rejalarini parokanda qiladi,
U xalqlarning niyatlarini puchga chiqaradi.
11 Egamizning rejalari to abad sobit turadi,
Uning niyatlari nasldan naslga o‘tib boradi.
12 Egamizni o‘z Xudosi deb bilgan xalq baxtlidir!
Egamiz, azizim deb tanlagan xalq baxtlidir!

13 Egamiz samodan boqar,
Inson zotini U ko‘rib turar.
14 U taxt qurgan joyidan turib,
Hamma yer yuzida yashovchilarni kuzatar.
15 U hammaning yuragini yaratgan,
Hammaning ishlarini anglagan.
16 Lashkari ko‘pligidan shoh qutulmaydi,
Kuchi ko‘pligidan jangchi g‘olib bo‘lavermaydi.
17 “Jang otlari najot berar” deyish puch xayoldir,
Ular qudratli kuchi bilan qutqara olmaydi.

18 Egamiz ko‘rib turar O‘zidan qo‘rqqanlarni,
Uning sodiq sevgisiga umid qilganlarni.

19 Egamiz ularni oʻlimdan qutqaradi,
Ochlikdan saqlab, tirik qoldiradi.

20 Jonimiz Egamizga muntazirdir,
U bizning madadkorimiz, qalqonimizdir.
21 Biz Muqaddas Xudoga umid bogʻlaymiz,
U tufayli yuragimiz shodlikka toʻla.

22 Ey Egam! Senga hamon umid bogʻlaymiz,
Sodiq sevging bizga yor boʻlsin.

## 33–SANO

1 *Dovud Abumalek oldida oʻzini telbalikka solib, uning huzuridan quvilgandan keyin* aytgan sanosi.*

2 Har doim Egamni olqishlayman,
Uning madhi tilimdan aslo tushmaydi.
3 Egam bois jonim faxrlanadi,
Mazlum eshitib, shod boʻlsin.
4 Men bilan birga olqishlang Egamni,
Birgalikda ulugʻlaylik Uning nomini.

5 Egamga yuz burdim, U javob berdi,
Hamma qoʻrquvlardan U xalos qildi.
6 Egamizdan umid qilganlarning yuzlarida nur,
Ularning yuzlari aslo shuvut boʻlmaydi.
7 Bu bechora iltijosin Egamiz eshitdi,
Barcha uqubatlardan uni qutqardi.
8 Egamizdan qoʻrqqanlarning atrofida
Egamizning farishtasi qarorgoh qurib,
Ularga najot baxsh etadi.
9 Egamizning muruvvatini tatib koʻr,
Egamiz yaxshi ekanligini bilib ol.
Naqadar baxtlidir Unda panoh topganlar.
10 Ey taqvodorlar, Egamizdan qoʻrqing.
Undan qoʻrqqanlar aslo muhtojlik koʻrmas.
11 Hatto yirtqich sherlar ovqatsiz,
Ular ochlikdan azob chekadi.
Egamizga yuz burganlardan esa
Farovonlik ayrilmaydi.

12 Keling, ey bolalar, tinglangiz meni,
Oʻrgatayin men Egamizdan qoʻrqishni.
13 Hayotdan zavqlanishni,
Baxtli uzoq umr koʻrishni istaysizmi?
14 Demak, tilingizni yomon soʻzlardan tiying,

Og‘zingizni yolg‘on gaplardan asrang.
[15] Yomonlikdan qayting, yaxshilik qiling,
Tinchlik istang, ha, tinchlik payida bo‘ling.

[16] Egamiz solihlarni kuzatib turadi,
Ularning nolasini Egamiz eshitadi.
[17] Badkirdorlardan esa yuz o‘giradi,
Ularning xotirasini yer yuzidan o‘chiradi.
[18] Taqvodorlar yolvoradi, Egamiz eshitadi,
Barcha balolardan ularni Egamiz qutqaradi.
[19] Ko‘ngli cho‘kkanlarga Egamiz yaqindir,
Ruhan ezilganlarni U qutqaradi.

[20] Solihlarning qayg‘ulari ko‘p bo‘lsa,
Hamma qayg‘ulardan Egamiz xalos qilar.
[21] Ularning o‘zini Egamiz saqlaydi,
Bironta ham suyagi sindirilmaydi.
[22] Fosiqqa o‘z yovuzligi o‘lim keltiradi,
Solihdan nafratlangan mahkum bo‘ladi.
[23] Egamiz O‘z qullarining hayotini qutqaradi,
Egamizda panoh topuvchilar mahkum bo‘lmaydi.

# 34–SANO

*Dovud sanosi.*

[1] Ey Egam, menga qarshi chiqqanlarga O‘zing qarshi bo‘l.
Menga hujum qilganlar bilan O‘zing jang qil.
[2] Qalqonu sovutingni ol,
Qani, menga yordamga kel.
[3] Meni ta’qib qilganlarga qarshi
Nayzayu boltangni olgin.
“Senga najot beraman”, deb
O‘zing menga va’da bergin.

[4] Mening jonimga qasd qilganlar
Sharmandayu sharmisor bo‘lsin!
Menga qarshi fitna qilayotganlar
Uyatga qolib, orqaga qaytsin!
[5] Ey Egam, Sening farishtang ularni quvsin.
Ha, ular xuddi shamolda uchgan somonday bo‘lsin.
[6] Qorong‘i, sirpanchiq bo‘lsin ularning yo‘li,
Ey Egam, Sening farishtang ularni quvsin.

[7] Sababsiz menga tuzoq qo‘ydilar,
Meni tutib olib o‘ldirmoq uchun

Sababsiz menga chuqur qazidilar.
8 To‘satdan ularning boshiga halokat kelsin,
Qo‘ygan tuzog‘iga o‘zlari o‘ralib qolsin,
Qazigan chuqurga o‘zlari yiqilib, bitsin.

9 Shunda, ey Egam, Sen tufayli shod bo‘laman,
Najot berganing uchun quvonaman.
10 Butun vujudim xitob qiladi:
“Senga o‘xshashi yo‘q, ey Egam,
Bechorani zo‘ravondan qutqarasan,
Faqirni talonchidan qutqarasan.”

11 Yovuz niyatli guvohlar paydo bo‘ladi,
Bilmaydigan narsalarimni mendan so‘raydi.
12 Ular yaxshiligimga yomonlik qaytaradi,
O‘zimni tamom yolg‘iz his qilaman.
13 Ular xasta bo‘lganlarida esa
Men qanor kiyib, ro‘za tutib, qayg‘u chekardim*.
Boshimni quyi solib, ibodat qilardim*.
14 Do‘stim, birodarim, deya tashvish tortardim,
Tuqqan onam uchun aza tutganday,
Qayg‘udan boshimni egib yurardim.

15 Qoqilganimda esa ular shod bo‘ldilar,
Menga qarshi yig‘ilishib keldilar,
Bexabar ekanman, ular kallakesar ekan,
To‘xtovsiz menga bo‘hton qildilar.
16 Shakkoklarday ayovsiz masxara qildilar,
Menga qarab tishlarini g‘ijirlatdilar.

17 Ey Egam, qachongacha qarab turasan?
Qutqargin meni ularning hujumidan,
Xalos qilgin jonimni o‘sha sherlardan!
18 Buyuk jamoa ichra Senga shukur aytaman,
Xalq yig‘inlarida Senga hamdlar o‘qiyman.

19 Asossiz menga dushmanlik qilganlar
Ustimdan kulmasinlar,
Mendan sababsiz nafrat etganlar
Ko‘zlarini o‘ynatmasinlar.
20 Tinchlik so‘zini og‘izga olmas ular,
Ammo yurtda tinch yashayotganlar ustidan
Yolg‘on so‘zlarni o‘ylab toparlar.
21 Menga qarshi shang‘illab aytarlar ular:
“Aha, ko‘zlarimiz bilan ko‘rdik qilmishlarini.”

22 Oʻzing koʻrgansan, ey Egam, sukut saqlama!
Ey Rabbiy, mendan hech uzoqlashma!
23 Qani, boʻl, himoya qilgin meni,
Men uchun jang qilgin, ey Xudoyim, Rabbim!
24 Sen odilsan, ey Egam Xudo,
Shu bois meni oqlagin.
Dushmanlarim aslo ustimdan kulmasin.
25 Ular oʻzlariga oʻzlari:
“Aha, istaganimiz boʻldi–ku!” deb aytmasin.
“Uni yutib yubordik–ku”, demasin.

26 Kulfatlarimdan zavqlanganlarning hammasi
Sharmandayu sharmisor boʻlsin.
Mendan oʻzlarini yuqori qoʻyganlar
Sharmandalik, badnomlikka oʻralsin.

27 Men haq boʻlib chiqishimni istaganlar
Xursand boʻlsin, sevinch ila kuylasin.
Har doim aytaversin ular:
“Qulining saodatidan huzurlangan
Egamiz tobora yuksalaversin.”
28 Odilliging haqidagi soʻzlaru madhing
Kun boʻyi tilimdan tushmaydi.

## 35–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Egamizning quli Dovud sanosi.*

2 Fosiqlarning gunohkorligi haqida
Yuragimda bir bashorat bor:
Gunohkor inson Xudodan qoʻrqmaydi.
3 Oʻzining nazdida u osmonda yuradi,
Xudo gunohimni koʻrmaydi,
Hukm qilmaydi, deb aytadi.
4 Ogʻzidan manfur, yolgʻon soʻzlar chiqadi,
Donolikdan, yaxshi ishlar qilishdan u bosh tortadi.
5 Hatto yotganda ham fosiqlikni oʻylaydi,
Gunohga oʻzini bagʻishlaydi,
Fosiqlikdan aslo yuz oʻgirmaydi.

6 Ey Egam, sodiq sevging falaklarga yetgaydir,
Ey Egam, sadoqating samolarga choʻzilgaydir.
7 Odilliging buyuk togʻlarga oʻxshaydi,
Adolating tubsiz dengizga oʻxshaydi,
Ey Egam, insonu jonivorlarni Sen saqlagaysan.

8 Sodiq sevging, ey Xudo, naqadar bebahodir!

Qanotlaring soyasida insonlar panoh topadi.
9 Ular uyingdagi ne'matlardan yeb toʻyadi,
Lazzat toʻla daryoingdan ularga ichirasan.
10 Hayotning bulogʻi Sendadir,
Ziyo olarmiz Sening nuringdan.

11 Seni bilganlarga sodiq sevgingni koʻrsat,
Yuragi soflarga Oʻzing najot bergin.
12 Takabburning oyogʻi meni ezmasin,
Fosiqning qoʻllari meni haydamasin.
13 Ana, badkirdorlar agʻanab yotibdi,
Qaddini koʻtara olmay, yerga qapishib yotibdi.

## 36–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Fosiqlarga gʻayirlik qilmagin,
Badkirdorlarga hasad qilmagin.
2 Ular maysaday tezda qurib qoladi,
Yam–yashil oʻtday tezda soʻlib qoladi.

3 Egamizga umid bogʻlab, yaxshilik qilgin,
Shu yurtda yashab, halovat topgin.
4 Egamizni oʻzingning shodliging deb bil,
Koʻnglingdagi orzularingga U yetkazadi.

5 Yoʻllaringni topshirgin Egamizga,
Ishon Unga, U madad beradi.
6 Solihligingni U tong kabi porlatadi,
Haqligingni kunduzgi quyosh kabi qiladi.

7 Sabrli boʻl, muntazir boʻl Egamizga,
Gʻayirlik qilmagin yoʻllarini topganlarga,
Fosiq niyatlarin amalga oshirganlarga.

8 Gʻazabdan oʻzingni tiy, qahrdan qaytgin,
Ich–etingni yema, bu faqatgina zararga olib boradi.
9 Yovuzlar yoʻq qilib tashlanadi,
Egamizdan umidvorlar yurtga egalik qiladi.

10 Tez orada fosiqlarning kuni bitadi,
Sen har qancha qidirmagin,
Ularni bu yerdan topa olmaysan.
11 Beozorlar esa yurtga egalik qiladi,
Moʻl baxt–saodatdan bahramand boʻladi.

12 Fosiq solihlarga qarshi fitna qiladi,

Ularga qarshi tishlarini g'ijirlatadi.
13 Rabbiy fosiqlarni masxara qiladi,
Ularning kuni bitayotir, buni Rabbiy biladi.

14 Fosiq qilichini sug'urib, kamonini tortadi,
Bechora, mazlumni yiqitishga shaylanadi,
Solihlarni o'ldirmoq istaydi.
15 Ammo qilichlari o'zlarining boshini yeydi,
Kamonlari ham parcha–parcha bo'lib ketadi.

16 Solihning qo'lidagi oz narsa afzal,
Jamiki fosiqning boyligidan ko'ra.
17 Fosiqning kuchi qirqilib ketadi,
Solihni esa Egamiz qo'llab–quvvatlaydi.

18 Aybsizlarning ehtiyoji Egamiz e'tiborida,
Ularning mulki to abad davom etadi.
19 Qaro kunlarda ham ular zavol topmaydi,
Qahatchilik kunlarda ham farovon yashaydi.
20 Fosiqlar esa albatta halok bo'ladi,
Egamiz g'animlari qirdagi gullarday quriydi,
Ular tutun kabi tarqalib, yo'q bo'lib ketadi.

21 Fosiq qarz oladi–yu, qaytarib bermaydi,
Solih esa himmat ila in'om qiladi.
22 Egamiz baraka bergan insonlar yurtni egallaydi,
Egamiz la'natlagan odamlar esa yo'q bo'lib ketadi.

23 Egamiz insonning yo'lidan mamnun bo'lsa,
Uning qadamlarini sobit qiladi.
24 Hatto qoqilsa ham yiqilib tushmaydi,
Egamiz madad berib, qo'lidan ushlaydi.

25 Men ham yosh edim, endi keksaydim,
Solihlarning tark etilganini,
Ularning zurriyoti non tilaganini ko'rmadim.
26 Ular doim himmat ila qarz beradi,
Farzandlari ham baraka topadi.

27 Fosiqlikni tashla, yaxshilik qilgin,
Toki yurtda to abad maskan qilgin.
28 Zotan, Egamiz yaxshi ko'radi adolatni,
Tark etmaydi taqvodorlarni,
Ularni to abad himoya qiladi,
Fosiqlar naslini qirib tashlaydi.
29 Solih yurtga egalik qiladi,

Bu yurtda to abad istiqomat qiladi.

30 Solihning og‘zi donolikdan so‘zlaydi,
Uning tili adolatni so‘ylaydi.
31 Yuragida Xudosining qonuni joy olgan,
Shuning uchun qadamida adashmaydi.

32 Fosiq solihni doim kuzatadi,
Uni o‘ldirmoqni mo‘ljallab yuradi.
33 Egamiz solihni fosiqning ixtiyoriga topshirmaydi,
Hukmga olib kelinganda, solih mahkum bo‘lmaydi.

34 Egamizdan umid qil, Uning yo‘llarini tutgin,
U seni yuksaltiradi, bu yurtni egallaysan,
Fosiqning qirilib ketishini sen ko‘rasan.

35 Ko‘rganman fosiq, zolim odamning
O‘z yurtida yam–yashil daraxtday unganini.
36 Ko‘p o‘tmay u o‘tib ketdi, yo‘q bo‘ldi,
Qancha qidirsam ham, topa olmadim.

37 Aybsizga e’tibor ber, sofdilni kuzat,
Tinchlikparvarning istiqboli yorqin.
38 Gunohkorlarning hammasi qirilib bitadi,
Fosiqning kelajagi barham topadi.

39 Solih kishi Egamiz tufayli najot topgaydir,
Kulfat chog‘i Egamiz solihning qal’asidir.
40 Egamizdan panoh topgani uchun
Solihga Egamiz madad beradi, uni qutqaradi,
Fosiqdan omon saqlaydi, unga najot beradi.

# 37–SANO

1 *Dovud sanosi. Egamizdan madad so‘rab aytgan iltijosi.*

2 Ey Egam! G‘azab bilan menga tanbeh bermagin,
Qahring sochib, menga jazo bermagin.
3 O‘qlaring menga sanchildi,
Qo‘llaring ustimga bosib tushdi.

4 Butun tanam xastadir g‘azabingdan,
Sog‘ligim yo‘qolgan gunohlarim dastidan.
5 Ayblarim meni juda ham ezadi,
Ular juda og‘ir yukka o‘xshaydi.

6 Aqlsizligim* dastidan

Yaralarim sasib, yiringlab oqyapti.
7 Juda egilib, bukchayib qoldim,
Kun bo‘yi g‘amgin yuraman.
8 Ichim isitmadan otash bo‘lib yonmoqda,
Tanamda bironta sog‘ joy yo‘q.
9 Sillam qurib, tamom ezildim,
Yurakdagi alamdan nola qilaman.

10 Yuragim tubidagi istaklarim
Ey Rabbiy, O‘zingga ravshan,
Ohu nolam Sendan yashirin emas.
11 Yuragim titraydi, quvvatim ketdi,
Ko‘zlarimning nuri adoyi tamom bo‘ldi.
12 Do‘st–yoronlarim dardim tufayli oldimdan
qochadi,
Tug‘ishganlarim aslo yonimga kelmaydi.

13 Jonimga qasd qilganlar menga tuzoq qo‘yadi,
Menga yomonlik istaganlar kulfatdan so‘z ochadi,
Kun bo‘yi yolg‘on so‘ylab, fitna qiladi.

14 Men esa karga o‘xshayman, eshitmayman,
Soqovga o‘xshayman, gapira olmayman.
15 Chindan ham men soqovga o‘xshayman,
Tili qotib qolgan odamdayman.

16 Ey Egam, umidim yolg‘iz Sensan,
Ey Rabbim Xudo, javob beradigan Sensan.
17 Ey Egam: “Holimni ko‘rib, dushmanlarim
shodlanmasin,
Oyoqlarim qoqilganda, o‘zlarini katta tutmasin”,
deya
Senga ibodat qildim.

18 O‘zim ham yiqilay deb turibman,
Tinmay azob chekayotirman.
19 Qilgan egriliklarim uchun tavba qilaman,
Gunohga qo‘l urganimdan pushaymonman.
20 Ashaddiy dushmanlarim ko‘pdir,
Sababsiz mendan nafrat etuvchilar son–sanoqsiz.
21 Ular yaxshiligimga yomonlik ila javob beradi,
Ezgu ishlarim uchun meni ig‘vo qiladi.

22 Ey Egam, meni aslo tark etmagin,
Ey Xudoyim, mendan uzoq ketmagin.
23 Menga yordam bergani shoshilgin,

Ey mening najotkorim — Rabbiy!

## 38–SANO

1 *Ijrochilar rahbari Yodutunga*. Dovud sanosi.*

2 Oʻzimga oʻzim shunday deyman:
“Yurar yoʻllarimni kuzatib boray,
Gunoh soʻzdan tilimni tiyib yuray,
Fosiqlar hamon oʻrab turarkan meni,
Qulf urib yopib olay ogʻzimni.”
3 Jim turdim, sukut saqladim,
Soʻzlashdan boʻyin tovladim,
Oshib boraverdi dardim.
4 Qizib ketaverdi ichim,
Oʻylaganim sari oʻrtandi koʻnglim,
Oxiri tilimni tiya olmay yolvordim:

5 “Ey Egam, umrim nihoyasini ayon qilgin,
Qancha kunim qolganini ayon qilgin,
Umrim qancha qisqaligini bilayin.
6 Yelday oʻtib ketguvchi umr bergansan,
Sening nazaringda umrim bir lahzadir,
Har kimning umri bir nafasdir.
7 Har kimning umri soyaday oʻtib ketar,
Insonning harakati behuda boʻlar,
Boylik yigʻar, lekin bilmas
Kim boylikka egalik qilar.

8 Kimdan men umid qilay endi, yo Rabbiy?
Sendadir mening barcha umidim.
9 Xalos qilgin meni gunohlarimdan,
Kulmasin ahmoqlar mening ustimdan.
10 Sukut saqlayman, ogʻzimni ochmayman,
Axir, Sen Oʻzing meni shu ahvolga solding.
11 Mendan ofatlaringni uzoq qilgin,
Sening zarbalaringdan oʻlay, dedim.

12 Gunohlari uchun insonni jazolab,
Unga tanbeh berasan.
Kuya yeganday qadrli narsalarini yoʻq qilasan.
Shubhasiz, inson bir nafasda oʻtib ketadi.

13 Ey Egam, ibodatimni eshitgin,
Nolayu faryodimga quloq solgin.
Koʻz yoshlarimga befarq boʻlmagin.
Axir, men Sening oʻtkinchi mehmoningman,

Otalarim kabi musofirman.
14 Qahrli nigohingni mendan oʻgirgin,
Toki yana xursand boʻlayin
Bu olamdan oʻtib yoʻq boʻlmasimdan oldin.”

## 39–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Men Egamizga umid bogʻladim,
U menga yuz burdi, faryodimni eshitdi.
3 Meni balchiq chuqurdan,
Botqoqlikdan chiqarib oldi.
Eson–omon meni qattiq yerga oʻtqazdi,
Qadamlarimni dadil qildi.
4 U ogʻzimga yangi bir qoʻshiq soldi,
Bu qoʻshiq Xudoyimizga madhiyadir.
Koʻplar Uning ishlarini koʻrib, qoʻrqadi,
Egamizga umid bogʻlaydi.
5 Baxtlidir Egamizga umid bogʻlaganlar,
Kiborlarga suyanmaganlar,
Butparastlardan yordam kutmaganlar.

6 Koʻp moʻjizalar koʻrsatding, ey Egam Xudo,
Bizga qaratilgan koʻp niyatlaringni bajarding.
Biror zot Senga teng kela olmas,
Ogʻiz ochib, moʻjizalaring haqida aytsam,
Naqadar koʻpligini sanay olmasdim.

7 Sen qurbonligu nazrni istamading,
Kuydiriladigan qurbonlik hamda
Gunoh qurbonligini* talab qilmading,
Itoat qilishim uchun Sen quloqlarimni ochding*.
8 Shunda dedimki: “Mana, men keldim.
Muqaddas bitiklarda men haqimda yozilgan*.
9 Sening xohishingni ado etishdan zavq olaman,
Ey Xudoyim, Sening qonuning yuragim toʻridadir.”

10 Ulugʻ jamoang ichra
Najoting xushxabarini e’lon qilganman.
Ha, ey Egam, Oʻzing bilasan,
Ogʻzimga bir nafas ham dam bermaganman.
11 Qutqarganingni yuragimda yashirmadim,
Sodiqliging, najotingdan har kimga soʻyladim,
Sevging, sadoqatingni buyuk jamoangdan sir
tutmadim.

12 Ey Egam, mendan shafqatingni darigʻ tutmagin,
Sening sevging, sadoqating meni to abad saqlasin.
13 Behisob ofatlar atrofimni oʻradi,
Gunohlarim oʻzimning boshimga yetdi,
Endi koʻzlarim koʻra olmas,
Gunohlarim boshimdagi sochimdan koʻpdir,
Endi jasoratim tamoman soʻndi.

14 Ey Egam, iltimos, menga najot ber,
Kelgin tezda, ey Egam, menga madad ber.
15 Jonimga qasd qilgan hammalar
Sharmandayu sharmisor boʻlsin!
Halokatimni istaganlar
Uyatga qolib, orqaga qaytsin!
16 "Holing qalay endi?!" deb meni masxaralaganlar
Sharmanda boʻlganidan vahimaga tushsin.

17 Senga yuz burganlarning hammasi
Sen tufayli sevinch, shodlikka toʻlsin.
Sening najotingni sevganlar:
"Egamiz yuksalaversin", deb doim aytsin.
18 Men esa gʻarib, bechoraman,
Ey Rabbiy, men haqimda oʻylagin,
Madadkorim, najotkorim Oʻzingsan,
Kechikmagin, ey Xudoyim!

## 40–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Baxtlidir bechorani oʻylaydiganlar,
Kulfatda qolganlarida Egamiz ularni qutqaradi.
3 Egamiz ularni himoya qiladi, hayotini asraydi,
Ular yurtdagi baxtlilardan hisoblanadi,
Egamiz ularni dushmanlari ixtiyoriga topshirmaydi.
4 Toʻshakka mixlanib qolsa,
Egamiz parvarish qiladi,
Xastaligiga Egamiz shifo beradi.

5 Shunday iltijo qildim Senga:
"Ey Egam, shafqat qil menga,
Gunoh qildim Senga, shifo bergin."
6 Dushmanlarim yovuz niyat ila shunday deydi:
"Qachon oʻlar ekan u, nomi ham qachon oʻcharkan?"
7 Ular meni koʻrgani kelganda,
Yolgʻon–yashiq gaplarni gapiradi.
Yuraklarida esa fisqu fasod tugib,

Tashqariga chiqadi–da,
Hamma joyda yoyib yuradi.
8 Mendan nafratlanganlarning hammasi
Menga zarar berishni reja qilishadi,
Birlashib, men haqimda pichir–pichir qilishadi:
9 “Og‘ir xastalikka chalingan u,
To‘shagidan qaytib tura olmaydi.”
10 Hatto nonimni yegan yaqin, ishongan do‘stim,
Menga qarshi bosh ko‘targan.

11 Sen esa, ey Egam, menga rahm qil,
Meni oyoqqa turg‘az.
Qilmishlariga yarasha dushmanlarimga qaytaray.
12 Dushmanlarim ustimdan g‘olib kelmasa,
Mendan mamnun bo‘lganingni bilaman.
13 To‘g‘riligim uchun meni saqlaysan,
Huzuringda to abad meni o‘tqazasan.

14 Olqishlar bo‘lsin abadulabad
Isroil xalqining Xudosi — Egamizga!

Omin! Omin!

## 41–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* qasidasi*.*

2 Kiyik irmoq suvlarini tusaganday,
Ey Xudo, jonim Seni shunday tusaydi!

3 Jonim tashna Xudoga, barhayot Xudoga,
Qachon borib, Uning huzurida hozir bo‘laman?
4 Tuz totmay kechayu kunduz ko‘z yosh to‘kaman,
“Qani Xudoying?” deya masxara qilar odamlar doim.

5 Shodlik hayqiriqlariyu hamdu sanolar ostida
Jamoa bilan birga Xudoning uyiga borardim.
Bayram nishonlagani olomon bilan borardim.
Shularni eslab, yuragim pora–pora bo‘lmoqda.
6 Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim?
Nega behalovat bo‘lasan ichimda?
Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman
Yana Unga — najotkorim, 7 Xudoyimga.

Tushkunlikka tushganman.
Shu bois, ey Xudo, Seni Iordan diyoridan,
Xermon* tizmasidan, Mizor tog‘idan* turib eslayman.

8 O‘kirayotgan dengizlarday,
Guvullayotgan sharsharalarday
Sen yuborgan qayg‘u to‘lqinlari
O‘tgandilar ustimdan bosib.

9 Kunduzi Egam sodiq sevgisini ko‘rsatadi,
Tunlari U menga qo‘shiq beradi,
Menga umr bergan Xudoga ibodat qilaman.

10 Xudoga, suyangan Qoyamga aytaman:
“Nega meni unutib qo‘yding Sen?!
Ne uchun g‘amga botib yurmog‘im kerak
Dushmanlarim siquvi sababidan?!”
11 Dushmanlarim haqoratidan suyaklarim zirqiraydi,
Ular muttasil mendan: “Qani Xudoying?!” deya
so‘raydi.

12 Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim?
Nega behalovat bo‘lasan ichimda?
Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman
Yana Unga — najotkorim, Xudoyimga.

## 42–SANO

1 Ey Xudo, oqla meni!
Shakkok xalqqa qarshi da’voim bor.
O‘zing meni himoya qil.
Meni bu yolg‘onchi, adolatsizlardan qutqar.
2 Axir, mening panohim — Xudo Sensan,
Nega Sen tark etding meni?!
Ne uchun g‘amga botib yurmog‘im kerak
Dushmanlarimning siquvi dastidan?!

3 Yo‘llagin nuringni, haqiqatingni,
Bular menga yo‘l ko‘rsatib tursin,
Muqaddas tog‘ingga* meni olib borsin,
Sening makoningga meni olib borsin.
4 Shunda boraman, ey Xudo, Sening qurbongohingga.
Buyuk shodligimsan, sevinchimsan Sen,
Lira chalib, hamdu sano aytaman Senga,
Ey Xudo, mening Xudoyim!

5 Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim?
Nega behalovat bo‘lasan ichimda?
Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman
Yana Unga — najotkorim, Xudoyimga.

# 43–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Koʻrax naslining* qasidasi*.*

2 Ey Xudo, oʻz quloqlarimiz ila eshitganmiz.
Qadimda, ota–bobolarimiz davrida
Qilgan ishlaringni ular bizga aytgan edi.
3 Oʻz qoʻling ila quvding begona xalqlarni,
Ularning yurtiga oʻtqazding otalarimizni.
Kulfatga solding begona xalqlarni,
Ozod qilding Sen otalarimizni*.
4 Ular yurtni qilich ila olmadilar,
Oʻz qoʻllari bilan gʻalabaga erishmadilar.
Ular Sening oʻng qoʻling, qudrating,
Sening yuz nuring ila gʻolib boʻldilar.
Zero, Sen ulardan mamnun boʻlganding.

5 Sen Shohimsan, Xudoyimsan,
Amr ber, Yoqub nasli gʻolib boʻlsin.
6 Sen tufayli dushmanlarimizni yiqitamiz,
Noming ila gʻanimlarimizni ezamiz.
7 Ishonib qolmasman men oʻz yoyimga,
Qilichim gʻalaba keltirmas menga.
8 Gʻanimlarimiz ustidan bizni gʻolib qilding,
Bizdan nafratlanganlarni sharmanda qilding.
9 Ey Xudo, kun boʻyi Sen tufayli maqtandik,
To abad Senga shukronalar aytamiz.

10 Endi esa bizni rad qilib, sharmanda qilding,
Lashkarlarimizni boshlab bormayapsan.
11 Bizni dushmanlarimiz oldida chekintirding,
Gʻanimlarimiz bizni talon–taroj qildi.
12 Bizni qoʻylar kabi yemishga berding,
Xalqlar orasiga bizni yoyib yubording.
13 Xalqingni qora chaqaga sotib yubording,
Ularni sotishdan hech naf koʻrmading.

14 Qoʻshni xalqlar bizni masxara qiladi,
Sen yoʻl qoʻyib berding.
Atrofimizdagilar bizni haqoratlaydi,
Kulishlariga imkon berding.
15 Xalqlar orasida kulgi qilding bizni,
Xalqlar bizni masxaralab, chayqaydi boshini.
16 Har doim xijolat boʻlib yuraman,
Sharmandalik yuzimni qoplagan.
17 Eshitganimiz masxarayu haqorat!

Ko‘rganimiz qasoskor dushman!

18 Garchi Seni unutmagan bo‘lsak–da,
Garchi ahdingga xiyonat qilmasak–da,
Bu ko‘rgiliklar boshimizga tushdi.
19 Biz Seni hech qachon tark etmadik,
Sening yo‘llaringdan hech qachon toymadik.
20 Ammo chiyabo‘rilar makoniga bizni tashlading,
Zimziyo zulmatga bizni uloqtirding.

21 Ey Xudoyimiz, axir, Sening nomingni unutsak,
Qo‘llarimizni begona xudolarga ochsak,
22 Ey Xudo, Sen buni bilmasmiding?!
Axir, Sen yurakdagi sirlarni bilasan–ku!
23 Sen tufayli har kuni o‘limga duch kelamiz,
Bo‘g‘izlanadigan qo‘yday bo‘lib qolganmiz.

24 Tursang–chi, nega uxlayotgandaysan, yo Rabbiy?!
Qani, bo‘l, bizni to abad rad etmagin.
25 Nega bizdan yuz o‘girasan?!
Boshimizga tushgan kulfatu zulmni unutasan?!
26 Biz ag‘natilganmiz tuproqqa,
Tanamiz yopishib qolgandir yerga.
27 Qani, kel, bizga madad ber,
Sodiq sevging haqi bizni qutqar.

## 44–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Nilufar” kuyiga aytiladigan to‘y qo‘shig‘i. Ko‘rax naslining* qasidasi*.*

2 Shohimga she’rlarimni bag‘ishlayman,
Yuragimdan go‘zal so‘zlar to‘kiladi,
Tilim mohir kotib qalamiga o‘xshaydi.

3 Ey shohim! Insonlar orasida juda chiroylisan.
Xudo senga to abad baraka bergani uchun
Lablaringdan latif so‘zlar yog‘iladi.
4 Ey qudratli shoh, belingga bog‘la qilichingni,
Hashamatu ulug‘vorliging bilan zohir bo‘lgin.

5 Ulug‘vorlik bilan olg‘a bos!
Haqiqat, kamtarlik, adolat uchun g‘alaba qil!
O‘ng qo‘ling qo‘rqinchli ishlar ko‘rsatsin.
6 G‘animlaringning yuragini
O‘tkir o‘qlaring teshib o‘tadi.
Xalqlar oyog‘ing ostiga yiqiladi.

7 Xudo bergan taxting* abadiydir,
Adolat hassasi shohliging hassasidir.
8 Sen solihlikni sevasan, qabihlikdan nafratlanasan.
Shu bois Xudo seni doʻstlaringdan ustun qildi,
Ha, Xudoying shodlik moyini senga surtdi.
9 Libosingdan mirra*, aloe va dolchinning
Xushboʻy hidlari ufurar.
Fil suyagi bilan bezatilgan saroylarda
Cholgʻu navolari seni shod qilar.
10 Shoh qizlari izzatli xonimlaring orasidadir,
Ofir* oltiniga bezangan malika oʻng qoʻlingda oʻtirar.

11 Tingla, ey qiz, quloq solib, oʻylagin,
Xalqing, otang xonadonin unutgin.
12 Jamolingga shoh maftun boʻlgandir,
Ta’zim qil unga, u xoʻjayiningdir.
13 Tir* xalqi hadyalar olib keladi,
Boylar sendan marhamat istaydi.
14 Saroyda malika naqadar goʻzal!
Liboslari oltin bilan bezatilgan.
15 Naqshli libosida uni shoh huzuriga olib kelishadi,
Ortidan qizlar, uning dugonalari ergashib keladi.
16 Ular shod–xurramlik ichra keladi,
Shohning saroyiga ular kirib keladi.

17 Ey shohim, oʻgʻillaring olgaylar otalaring oʻrnini,
Butun yurtda shahzodalar qilgaysan sen ularni.
18 Qoʻshigʻim tufayli noming nasllar osha yashar,
Shu bois xalqlar seni to abad madh etarlar.

## 45–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. "Qizlar" kuyiga aytiladigan*
*Koʻrax naslining* qoʻshigʻi.*

2 Xudo bizning panohimiz, qudratimizdir,
Kulfatda qolganimizda doim madadkorimizdir.
3 Shu bois biz qoʻrqmaymiz hech ham
Yer ostin–ustin boʻlib ketsa ham,
Dengiz bagʻriga togʻlar qulab tushsa ham.
4 Dengizlar oʻkirib, toshib ketsa ham,
Shiddatli toʻlqinlar togʻlarni titratsa ham
Biz qoʻrqmaymiz hech ham.

5 Bir daryo bor, uning suvlari
Shodlik olib kelar Xudo shahriga*,

Xudoyi Taoloning muqaddas makoniga.
6 Shaharda Xudo turgani uchun
Shahar qulamas aslo,
Tong otganda, Xudo yordamga keladi.
7 Xalqlar alg‘ov–dalg‘ov bo‘ladi,
Shohliklar qulaydi.
Xudoning ovozi guldiraydi, yer erib ketadi.

8 Sarvari Olam biz bilandir,
Yoqubning Xudosi qal’amizdir.

9 Keling, Egamizning ishlarini ko‘ring,
Yer yuziga keltirgan kulfatni ko‘ring.
10 Butun olamda U jangni to‘xtatadi,
Yoyni parchalaydi, nayzani sindiradi,
Qalqonlarni* olovda yoqib, shunday deydi:
11 “To‘xtang, biling, Men Xudoman,
Xalqlar orasida Men yuksalgayman,
Yer yuzida Men yuksalgayman.”

12 Sarvari Olam biz bilandir,
Yoqubning Xudosi qal’amizdir.

## 46–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Ey xalqlar! Hammangiz qarsak chaling,
Sevinch hayqiriqlari ila Xudoni kuylang!
3 Qo‘rqinchlidir Xudoyi Taolo — Egamiz,
Butun yer yuzida Udir ulug‘ Shohimiz.

4 Xalqlarni U bizga itoat ettirdi,
Elatlarni oyog‘imiz ostiga tashladi.
5 O‘zi suygan Yoqubning faxrli mulkini
Egamiz biz uchun yurt qilib tanladi.

6 Shodlik hayqiriqlari ostida Xudo taxtga chiqdi,
Karnay sadosi ostida Egamiz taxtiga o‘tirdi.
7 Hamdu sano kuylang Xudoga, madhlar kuylang!
Ha, Shohimizga madhlar kuylang! Hamdu sano
kuylang!
8 Butun yer yuzining shohidir Xudo,
Unga ajoyib hamdu sano kuylang!

9 Jamiki uluslarning shohidir Xudo,
Muqaddas taxtida o‘tiribdi Xudo!

10 Ibrohim Xudosining xalqi bilan birga
To'planarlar xalqlarning hukmdorlari.
Zaminning shohlari* — Xudoniki,
G'oyat baland yuksalgandir U.

## 47–SANO

1 *Ko'rax naslining* sanosi. Qo'shiq.*

2 Egamiz buyukdir!
Egamiz O'z shahrida,
Ha, O'zining muqaddas tog'ida*
Madhiyalarga loyiqdir!
3 Xudoning muqaddas tog'i yuksak va go'zaldir,
Butun yer yuziga shodlik olib keladir!
Buyuk Shohning shahridagi,
Uning shimolidagi* Sion tog'i!*
4 Xudo Quddusning qo'rg'oni ichida turadi,
Uning qal'asi bo'lib, O'zini namoyon etgan.

5 Shohlar to'plandilar,
Birgalashib Sion tog'iga qarshi yurdilar.
6 Uni ko'rdilar–u, shoshib qoldilar,
Vahimaga tushib, qochib qoldilar.
7 Tug'ayotgan xotin tortganday dard
O'sha yerda ularni titroq bosdi.
8 Sharqdan shamol esib,
Tarshish* kemalarini parchalaganday,
Sen ularni qirib tashlading.

9 Xudo nima qilganini biz eshitdik.
Nima eshitgan bo'lsak, endi o'shani
Xudoyimiz, Sarvari Olamning shahrida ko'rdik.
Bu shaharni Xudo to abad saqlar.

10 Ey Xudo, Ma'bading ichida
Sodiq sevging haqida o'ylaymiz.
11 Ey Xudo, madhing ham dong'ing kabi,
Yerning to'rt tomoniga yoyilgan,
O'ng qo'ling adolat ila to'lib–toshgan.
12 Sening hukmlaringdan
Sion tog'i shod bo'lsin,
Yahudo shaharlari sevinsin!

13 Ey Isroil xalqi,
Quddus* tevaragida yuring.
Atrofida aylanib,

Uning minoralarini sanab chiqing.
14 Sionning istehkomlariga e’tibor bering,
Uning qo‘rg‘onlariga qarang!
Bularni ko‘rib, kelgusi avlodlarga hikoya qiling:
15 “Xudo o‘sha istehkomlarga o‘xshaydi.
U to abad bizning Xudoyimizdir,
U to abad bizning yo‘lboshchimiz bo‘ladi.”

## 48–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Eshitinglar, ey xalqlar,
Quloq soling, olam ahli,
3 Ey insonlar, jamiki odamzod,
Boylaru faqirlar, quloq solingiz!
4 Og‘zimdan to‘kiladi dono so‘zlar,
Qalbimning mulohazalari ham idroklidir.
5 Qulog‘imni hikmatga buraman,
Ma’nosini lira bilan anglataman.

6 Nega qo‘rqishim kerak qaro kunlarda?!
Nega qo‘rqishim kerak ta’qib qiluvchilar
Qabih ishlari bilan meni o‘rab olganlarida?!
7 Ular mol–mulkiga ishonadilar,
Behisob boyliklari ila maqtanadilar.
8 Axir, hech kim hayotini* pul to‘lab qutqara olmas,
Yoki uning uchun Xudoga to‘lov berolmas.
9 Inson hayoti uchun to‘lov g‘oyat qimmatdir,
Hech qanday to‘lov yetarli bo‘lmas.
10 Yo‘qsa inson to abad yashardi,
Qabr yuzini aslo ko‘rmasdi.

11 Dononi qarang, ular ham o‘ladi,
Ahmoq, bema’ni birday halok bo‘ladi,
Ularning boyligi boshqalarga qoladi.
12 Yurtlarga o‘zlarining nomini berganda ham,
Mozor to abad uyi bo‘lib qoladi,
Maskani nasldan naslga o‘taveradi*.
13 Boyligiga qaramay inson to abad qolmas,
O‘ladigan jonzotga o‘xshaydi ular.

14 O‘zlariga ishonganlarning qismati shudir,
Ularning so‘zini ma’qullaganlarning taqdiri shudir:
15 Ular qo‘ylar kabi o‘liklar diyoriga haydaladilar,
O‘lim ularning cho‘poni bo‘ladi,
Tongda to‘g‘ri insonlar ularning ustidan hukmron

bo‘ladi,
Tanalari chirib ketadi,
O‘liklar diyori* ularning qasri bo‘ladi.
16 O‘liklar diyori hukmidan Xudo meni qutqaradi,
Shubhasiz, U meni O‘z yoniga oladi.

17 Birontasi boyib ketganda,
Uyining hashamati oshib ketganda,
Vahimaga tushma!
18 Olamdan o‘tganda, u o‘zi bilan hech narsa olib ketmaydi,
Boyligi ham uning ortidan qabrga ergashib bormaydi.
19 Hayotligida o‘zini baxtiyor hisoblaydi,
Oshib–toshib yashagani uchun
Ko‘plar unga hamdu sano aytadi.
20 U ham ota–bobolari yoniga ketadi,
Ular kabi yorug‘likni boshqa ko‘rmaydi.
21 Boyligi bo‘la turib aqlsiz bo‘lganlar
O‘ladigan jonzotga o‘xshaydilar.

# 49–SANO

*Osif* sanosi.*

1 Xudolar Xudosi — Egamiz
So‘ylar, da’vat qilar yer yuziga
Sharqdan g‘arbga qadar.
2 Xudo O‘z nurini sochar Quddusdan* —
Go‘zallikda komil shahardan.

3 Xudoyimiz kelar, sukut saqlamas,
Uning oldida alanga yamlab yuborar,
Atrofida bo‘ron g‘azabdan quturar.
4 O‘z xalqini hukm etmoq uchun
Yeru osmonni guvoh qilib chaqirar:
5 “Yig‘ib keling Mening taqvodor xalqimni,
Qurbonlik orqali Men bilan ahd qilganlarni!”
6 Samolar e’lon qilar Xudoning odilligini,
Hakam Xudoning O‘zidir.

7 Xudo aytar: “Eshit, ey xalqim, Men so‘zlayman,
Ey Isroil, senga qarshi guvohlik beraman,
Men Xudoman, sening Xudoyingman.
8 Keltirgan qurbonliklaring doimo oldimda.
Kuydirilgan qurbonliklaringdan shikoyat qilmayman.

9 Og‘ilingdagi buqangga muhtoj emasman,
Suruvingdagi echkingga ham zor emasman.
10 Menikidir o‘rmondagi jamiki hayvon,
Minglab qirlardagi molu qo‘ylar.
11 Menikidir jamiki tog‘dagi qushlar,
Menikidir daladagi barcha jonivorlar.
12 Och qolsam ham, sendan ovqat so‘ramasdim.
Axir, Menikidir olam, undagi hamma narsa.
13 Men buqa go‘shtini yeymanmi?!
Yoki echki qonini ichamanmi?!
14 Men, Xudoga shukrona qurbonligini qil,
Men, Xudoyi Taologa ontingni ado qil.
15 Og‘ir kunda Menga iltijo qilgin,
Senga najot beraman,
Sen esa Menga maqtov aytasan.”

16 Fosiqqa esa Xudo shunday deydi:
“Ne haqing bor qonunlarimni tilga olmoqqa?!
Ne haqing bor ahdimni og‘zingga olmoqqa?!
17 Nafrat ila qaraysan–ku yo‘l–yo‘riqlarimga,
Otib tashlaysan–ku kalomlarimni orqangga!
18 O‘g‘rini ko‘rganingda, do‘stlashasan u bilan,
Sherik bo‘lib olasan zinokorlar bilan.
19 Og‘zing yomon so‘zlar uchun doim tayyordir,
Tilingning to‘qigani faqat yolg‘ondir.
20 O‘tirib, birodaringga qarshi so‘ylaysan,
Tug‘ishganingga ham tuhmat qilasan.
21 Shu ishlarni qilganingda, sukut saqladim,
Meni ham o‘zingga o‘xshagan, deb o‘plading.
Endi–chi, aybingni bo‘yningga qo‘yib,
Seni hukm qilaman.
22 Ey Meni unutganlar, bilib qo‘ying,
Yo‘qsa sizlarni parcha–parcha qilaman,
Bironta najot berguvchi topilmaydi.
23 Menga shukrona qurbonligi keltirganlar
Meni izzat qilgan bo‘ladi.
Men O‘z najotimni
To‘g‘ri yo‘ldan yurganlarga ko‘rsataman.”

## 50–SANO

1-2 *Ijrochilar rahbariga. Natan payg‘ambar kelib, Dovudning Botsheva bilan qilgan gunohini fosh etgandan keyin*, Dovudning aytgan sanosi.*

3 Rahm qilgin menga, ey Xudo,

Sodiq sevging, cheksiz shafqating ila
Itoatsizligimni olib tashlagin.
4 Yuvib tashla barcha ayblarimni,
Poklagin gunohlarimdan.
5 Ha, oʻzimning itoatsizligimni bilaman,
Gunohim turar koʻz oʻngimda mudom.
6 Senga, yolgʻiz Senga qarshi gunoh qilganman,
Sening oldingda qabihliklarga qoʻl urganman,
Shu bois hukm qilganingda Sen barhaqsan,
Aybimni fosh etganingda doimo toʻgʻri boʻlib
chiqasan.

7 Mana, gunohkor boʻlib tugʻilganman,
Onam qornidayoq gunohkor edim.
8 Biroq Sen samimiy, pok qalbni istaysan,
Asl donolikni Oʻzing menga oʻrgatgin*.
9 Pokla meni issop oʻti* ila, toza boʻlayin,
Yuvgin meni, qordan ham oq boʻlayin.
10 Yana eshitay shodlik, quvonch xabarin,
Sen ezgan suyaklarim yana quvonsin.
11 Gunohlarimdan chetga ol koʻzlaringni,
Olib tashla ayblarimni.

12 Ey Xudo, menda toza yurak yaratgin,
Sodiq qalbni menga yana bir bor bergin.
13 Huzuringdan meni uloqtirib tashlama,
Muqaddas Ruhingni mendan olma.
14 Najoting shodligini menga qaytargin,
Itoat etishga menda istak uygʻotgin.

15 Shunda itoatsizlarga Sening yoʻllaringni
oʻrgataman,
Gunohkorlar qaytib keladilar Senga.
16 Qon toʻkkanim uchun kechir meni, ey Xudo,
Najot berganingni sevinch ila kuylar tilim,
Ey najotkorim Xudo!

17 Lablarimni ochgin, ey Rabbiy,
Ogʻzim Seni madh aylasin.
18 Qurbonlikni Sen xohlamaysan,
Qurbonlik kuydirganimda ham
Sen xush koʻrmagan boʻlarding.
19 Senga maʼqul qurbonligim ezilgan ruhdir,
Ezilgan, tavba qilgan yurakni
Sen rad etmaysan, ey Xudo.

[20] Lutfu karaming bilan Quddusni yashnatgin,
Sion shahri devorlarini qaytadan qurgin.
[21] Shunda munosib qurbonliklar keltiriladi,
Kuydiriladigan qurbonliklar Seni mamnun qiladi,
Qurbongohingda buqalar nazr qilinadi.

## 51–SANO

[1-2] *Ijrochilar rahbariga. Edomlik Doyeg Shoulning oldiga borib: “Dovud Oximalekning uyida”, deb xabar bergandan keyin*, Dovudning aytgan qasidasi*.*

[3] Nechun maqtanasan yovuzliging ila, ey zoʻravon?!
Xudoning sodiqligi doim men bilan, axir!
[4] Balo keltiraman, deya reja qilasan,
Oʻtkir ustaraga oʻxshaydi tiling.
Aldashga sen mohirsan.
[5] Ezgulikdan koʻra, yovuzlikni yoqtirasan,
Haqiqatni soʻylashdan koʻra, yolgʻonni afzal bilasan.
[6] Halok qiladigan soʻzlarni yaxshi koʻrasan,
Yolgʻonchi tilni sevasan.

[7] Xudo esa seni to abad halok qiladi,
Seni ushlab, chodiringdan tortib chiqaradi,
Tiriklar yurtidan yoʻq qilib tashlaydi.

[8] Solihlar buni koʻrib, qoʻrqadi,
Fosiqning ustidan kuladi:
[9] “Qarang, oʻsha odam Xudoni panohim deb bilmadi,
Moʻl–koʻl boyligiga umid bogʻladi,
Boshqalarni qirish tufayli kuchaydi.”

[10] Men–chi, oʻxshayman Xudoning uyidagi
Koʻm–koʻk zaytun daraxtiga.
Xudoning sodiq sevgisiga
Men to abad umidimni bogʻlayman.

[11] Ey Xudo, Sening hamma qilganlaring uchun
Senga to abad shukur aytaman.
Taqvodorlaringning huzurida
Senga umid bogʻlayman,
Axir, Oʻzing yaxshisan!

# 52–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. "Qayg'u–alam" kuyiga aytiladigan Dovud qasidasi*.*

[2] Ahmoqlar* o'z ko'nglida: "Xudo yo'q", deydilar.
Ular yaramaslardir, qilmishi jirkanch ishlardir,
Yaxshilik qiluvchi biron zot yo'qdir.

[3] "Idrokli biron zot bormikan?
Bormikan Menga yuz burgan?" deya
Insonga Xudo samodan boqar.
[4] Hammasi yo'ldan ozgan, birday buzilgan,
Yaxshilik qiluvchi bir kimsa yo'qdir,
Hatto bironta ham yo'q!

[5] Ular idroksiz, badkirdor,
Xalqimni bir luqma nonday yeb yuboradi,
Hech qachon Xudoga sajda qilmaydi.
[6] Ana, bosayotir ularni qattiq vahima,
Bunaqasini ilgari ko'rmagan ular.
Xudo sochib tashlar g'animlaringning suyaklarini.
Axir, Xudo rad etgan ularni!
Shu bois, ey Isroil, sen ularni sharmanda qilgansan.

[7] Eh, Quddusdan* Isroilga najot kelsaydi!
Xudo O'z xalqini yana farovonlikka erishtirsaydi,
Shunda Yoqub nasli shod bo'lgay, Isroil sevingay!

# 53–SANO

[1-2] *Ijrochilar rahbariga. Zifliklar Shoulning oldiga borib: "Dovud xalqimiz orasida yashirinib yuribdi", deb xabar berganlaridan keyin*, Dovudning aytgan qasidasi*. Torli asboblar jo'rligida aytiladi.*

[3] Ey Xudo! Buyuk qudrating ila meni qutqargin!
Kuch–quvvating ila menga adolatli hukm chiqargin!
[4] Ey Xudo, eshitgin iltijoimni,
Tinglagin aytganlarimni!
[5] Begonalar qarshi qo'zg'aldi menga,
Zo'ravonlar qasd qilmoqchi jonimga,
Ular Seni pisand qilmaydilar.

[6] Ey Xudo, menga madad berasan,
Ey Rabbiy, mening jonimni asraysan.
[7] Dushmanlarimning qabihliklari o'z boshiga kelsin,
Sen sodiqsan, ularni qirib tashlagin!

8 Shod bo‘lib, Senga qurbonlik keltiraman,
O‘zing yaxshisan, ey Egam, Senga shukur aytaman!
9 Saqlading har qanday kulfatdan meni,
Ko‘zlarim ko‘rdi dushmanlarim mag‘lubiyatini.

## 54–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida aytiladigan Dovud qasidasi*.*

2 Ibodatimga quloq sol, ey Xudo,
Iltijoimni e’tiborsiz qoldirma.
3-4 Eshit meni, javob ber,
Dushmanlarim dag‘dag‘asi, fosiqlarning siquvi
Boshimga g‘am–kulfat keltiradi.
Ular g‘azablanib, mendan nafratlanadi.
Eh, o‘ylarim qiynaydi meni,
G‘am–tashvishlar qattiq ezadi.

5 Yuragim hasratga to‘ladir,
O‘lim vahimasi meni bosib keladir.
6 Qo‘rquv, titroq menga kelmoqda,
Dahshat meni ezib bormoqda.
7 “Qaniydi kaptar kabi, qanotim bo‘lsa”, dedim,
“Uchib ketib, orom olgan bo‘lardim.
8 Haqiqatan, uzoqlarga uchib qutulardim,
Sahroda makon qilgan bo‘lardim.
9 Quturgan shamolu bo‘rondan qochib,
O‘zimga boshpana topgani shoshilgan bo‘lardim.”

10 Ey Rabbiy, dushmanlarimni chalg‘it,
Ularning gaplarini chalkashtir.
Shaharda zo‘ravonlik, janjalni ko‘rib turibman.
11 Fosiqlar kecha–kunduz shahar devori ustida izg‘iydi,
Yovuzlik, vahima shahar ichida yuz bermoqda.
12 Shaharning o‘rtasida buzg‘unchilik,
Ko‘chalaridan zulm va hiyla arimaydi.

13 G‘animlarim meni haqorat qilganda edi,
Bunga bardoshim yetgan bo‘lardi.
Dushmanim o‘zini mendan yuqori qo‘yganda edi,
Undan yashiringan bo‘lardim.
14 Ammo u mening tengim–ku,
Yaqin do‘stim hamda hamrohim–ku.
15 U bilan dilkash do‘st edik,

Ey Xudo, Sening uyingdagi yig‘inda birga yurardik.
16 Uylari, yuraklari fosiqlikka to‘la bo‘lgani uchun
G‘animlarim o‘limga ro‘baro‘ bo‘lsin,
Tiriklayin o‘liklar diyoriga* tushsin.

17 Men iltijo qilaman Xudoga,
Najot beradi Egam menga.
18 Oqshom, sahar hamda kunduz
Dardu fig‘onlarimni aytaman.
Egam mening ovozimni eshitadi.
19 Garchi menga qarshilar ko‘p bo‘lsa ham,
Birorta ham zarar yetkazmay
Meni janglardan qutqaradi.
20 Azaldan taxtda o‘tirgan Xudo
Menga quloq tutib,
Dushmanlarimni mag‘lub qiladi.
Axir, ular o‘z yo‘lidan qaytmadilar,
Xudodan ular qo‘rqmadilar.

21 Hamrohim o‘z do‘stiga qarshi qo‘lini ko‘tardi,
Men bilan qilgan ahdiga u xiyonat qildi.
22 Uning og‘zidan bol tomadi,
Yuragi esa adovatga to‘la.
So‘zlari moydan ham yoqimli,
Aslida qindan chiqqan qilichdaydir.

23 Tashvishlaringni Egamizga topshirgin,
U senga tayanch bo‘ladi.
Egamiz hech qachon solihning yiqilishiga yo‘l
qo‘ymaydi.

24 Ey Xudo, fosiqlarni Sen
O‘liklar diyoriga uloqtirasan.
Qonxo‘r, xoin kimsalar aslo
Umrining yarmisini ham yashamaydi.
Men esa Senga umid bog‘layman.

## 55–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Filist xalqi Dovudni Gat shahrida tutib olgandan keyin*, uning aytgan qo‘shig‘i. “Uzoqdagi jim kabutar” kuyiga aytiladi.*

2 Shafqat qil menga, ey Xudo,
Odamlar meni ta’qib qilmoqda,
G‘animlarim kun bo‘yi meni ezmoqda.
3 Bo‘htonchilar kun bo‘yi meni ta’qib qiladi,

Koʻplari menga hujum qiladi, ey Xudoyi Taolo!
4 Qoʻrqqanimda Senga umid bogʻlayman.
5 Ey Xudo, kalomingni madh etaman,
Sendan umid qilaman, qoʻrqmayman,
Bandang menga ne qila oladi?!

6 Gʻanimlarim har doim gapimni buzib koʻrsatadi,
Menga zarar yetkazmoq uchun fitnalar qiladi.
7 Yovuz niyatda ortimdan pisib keladi,
Har bir qadamimni oʻlchab yuradi,
Ular hayotimga chek qoʻyishni istaydi.
8 Jinoyatlari uchun ularni uloqtir*,
Ey Xudo, gʻazabing ila ularni yerga ur!

9 Sen qaygʻularimni hisobga olgansan,
Koʻz yoshlarimni idishingga solib yigʻib qoʻygin.
Axir, ularning har biri kitobingda yozilgan–ku!
10 Senga iltijo qilgan kunim
Dushmanlarim ortga chekinadi.
Ha, bilaman, Sen men tomonda.
11 Ey Xudo, kalomingni madh etaman,
Ha, Egam, Sening kalomingni men madh etaman.
12 Sendan umid qilaman, qoʻrqmayman,
Bandang menga ne qila oladi?!

13 Ey Xudo, Senga bergan ontimni bajarmogʻim shart,
Shukrona nazrlarimni Senga atayman.
14 Jonimni oʻlimdan qutqarib qolding,
Oyogʻimni qoqilishdan saqlading.
Shu bois, ey Xudo, Sening oldingda,
Hayot nurida yuraman.

## 56–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovudning Shouldan qochib*
*yurgan paytda gʻorda yashirinib qutulganidan keyin**
*aytgan qoʻshigʻi. “Xarob etma” kuyiga aytiladi.*

2 Ey Xudo, rahm qilgin menga, rahm qil,
Mening jonim Senda panoh topadi.
Halokatli ofatlar oʻtib ketguncha
Men qanotlaring soyasida panoh topaman.

3 Yolvoraman Xudoyi Taologa,
Men uchun qasos oluvchi Xudoga*.
4 Samodan najot yuborib, U meni qutqaradi,
Meni toptaydiganlarni sharmanda qiladi.

Xudo O'z sevgiyu sadoqatini yuboradi.

5 Men odamxo'r sherlar* orasida yotgandayman.
Ularning tishlari nayzayu o'q kabidir,
Ularning tillari keskir qilichdaydir.

6 Ey Xudo, falakdan ham yuqorida yuksalaver!
Shuhrating butun zamin uzra yoyilsin.

7 Dushmanlarim oyoqlarimga tuzoq qo'ygan,
Qayg'u–kulfatdan ruhim cho'kkan.
Ular so'qmoqlarimda chuqur qazidi,
O'zlari qazigan chuqurga o'zlari quladi.

8 Ey Xudo, yuragim Senga sodiq,
Ha, yuragim Senga sodiqdir!
Seni kuylab, qo'shiq aytaman.
9 Uyg'ongin, ey jonim!
Uyg'on, ey arfa, lira!
Tongni ham men uyg'otaman!
10 Ey Rabbiy, xalqlar orasida Senga shukrona
aytaman,
Ellar orasida Senga hamdu sano kuylayman.
11 Sodiq sevging samolarday yuksakdir,
Sadoqating bulutlarga cho'zilgandir.

12 Ey Xudo, falakdan ham yuqorida yuksalaver!
Shuhrating butun zamin uzra yoyilsin.

## 57–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. "Xarob etma" kuyiga*
*aytiladigan Dovud qo'shig'i.*

2 Ey hukmdorlar! Nahot siz adolatli qaror
chiqarasiz?!
Nahot sizlar to'g'rilik ila xalqlarni hukm qilasiz?!
3 Yo'q, axir, yuraklaringiz adolatsizlikka to'la–ku!
Yer yuzida qo'llaringiz zo'ravonlikni taqsimlaydi–ku!
4 Fosiqlar onasining qornidayoq adashadi,
Yolg'onchilar tug'ilishdanoq yo'ldan ozadi.
5 Ularning zahri ilonning zahriga o'xshaydi.
Kar ilonday quloq solishni ular istamaydi.
6 Ilon o'ynatuvchining kuyini ular eshitmaydi,
Uning mahorat bilan chalgan kuyiga beparvo.

7 Sindir ularning tishlarini, ey Xudo,

Sug‘urib ol sherlarning qoziq tishlarini, ey Egam!
8 Ular oqar suvday yo‘q bo‘lib ketsin,
Ularning o‘qlari nishonga tegmaydigan bo‘lsin.
9 Balchiqqa botib ketgan shilliq qurtday bo‘lsin,
Onasi qornidan o‘lik tug‘ilib,
Hech qachon quyosh ko‘rmagan chaqaloqday bo‘lsin.
10 Yonayotgan tikan qozonni tez qizdirganday
Fosiqni shunchalik tez supurib yo‘q qilgin.

11 Fosiqdan o‘ch olinganda, solih sevinadi,
Ularning qonida solih oyoqlarini yuvadi.
12 Odamlar aytar: “Shubhasiz, solihga mukofot bordir,
Yer yuzida hukm qiluvchi Xudo albatta bordir.”

## 58–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Shoul Dovudni o‘ldirish uchun uning uyini kuzatishga kishi yuborgandan keyin*, Dovudning aytgan qo‘shig‘i. “Xarob etma” kuyiga aytiladi.*

2 G‘animlarimdan meni qutqar, ey Xudoyim,
Menga qarshi turganlardan himoya qil meni.
3 Badkirdorlardan qutqargin meni,
Qonxo‘rlardan saqlagin meni.

4 Qara, ular meni poylab yotarlar,
Zolimlar menga qarshi fitna qilarlar,
Garchi aybu gunohim bo‘lmasa–da, ey Egam,
5 Garchi men haqsizlik qilmasam–da,
Ular menga qarshi hujum qilmoqqa tayyor.
Qo‘zg‘al O‘zing, ahvolimni ko‘r, kel yordamga.
6 Ey Isroil xalqining Xudosi,
Ey Parvardigori Olam — Egam,
Qani, bo‘l, barcha xalqlarni jazolagin,
Yovuz sotqinlarga shafqat qilmagin.

7 G‘animlarim har kuni oqshomda qaytib keladi,
Itlarday uvullab, shahar izg‘iydi.
8 Qara, og‘izlaridan qusuq chiqadi,
Tillaridan zahar so‘zlar chiqadi,
“Kim ham bizni eshitardi”, deya o‘ylaydi.

9 Ular ustidan Sen kulasan, ey Egam,
Hamma xalqlarni Sen masxaralaysan.
10 Senga intizorman, ey Qudratim,

Sen mening qal’amsan, ey Xudo!
11 Sodiq sevging ila, ey Xudoyim, menga madad berasan,
Ko‘zlarimga dushmanlarim mag‘lubiyatini ko‘rsatasan.

12 Ularni o‘ldirma, xalqim bu saboqni unutib qo‘yar,
Qudrating bilan ularni titrat,
Ey qalqonim Rabbiy, ularni ko‘tarib ur.
13 Ularning og‘zidan chiqqan gunohlar uchun,
Lablaridan chiqqan so‘zlar uchun
O‘zlarining takabburligi orqali ilinsin.
Ular aytadigan la’nat, yolg‘on uchun
14 G‘azabing ila ularni yo‘q qilgin,
Bitta ham qoldirmay qirib tashlagin.
Shunda ey Xudo, Yoqub nasli ustidan hukmron ekanliging
Yerning to‘rt tomonida ma’lum bo‘ladi.

15 G‘animlarim har kuni oqshomda qaytib keladi,
Itlarday uvullab, shahar izg‘iydi.
16 Ovqat izlab, daydib yuradi,
Agar to‘ymasalar, irillaydi.

17 Men esa Sening qudratingni tarannum etaman,
Sodiq sevgingni tongda sevinch ila kuylayman.
Sen mening qal’am bo‘lgansan,
Kulfatda qolganimda panohimsan.
18 Ey Qudratim, Seni kuylab madh qilaman,
Sen, ey Xudo, mening qal’amsan,
Sodiq sevgisini ko‘rsatuvchi Xudosan.

## 59–SANO

1-2 *Ijrochilar rahbariga. Dovud Oram–Naxrayim* va Oram–Zo‘vo* xalqi bilan urush qilayotgan paytda* Yo‘ab qaytib kelib, o‘n ikki ming Edomlikni Tuz vodiysida* o‘ldirgandan keyin, Dovudning aytgan qo‘shig‘i. “Nilufar gul shahodati” kuyiga aytiladi. Ta’lim uchun.*

3 Ey Xudo, bizni tark etding,
Mudofaamizni yorib o‘tding,
Bizdan g‘azablanding,
Endi bizni oldingi holimizga qaytargin!
4 Yerni silkitding, yoriqlar ochding,
Yoriqlarni tuzatgin, yer tebranmoqda.

5 Xalqingga koʻp azoblar berding,
Gandiraklab yursin deb, ichgani sharob* berding.

6 Ular kamon oʻqlaridan yashirinib olsin deya*,
Oʻzingdan qoʻrqqanlarga ishora berib, bayroq
koʻrsatasan.
7 Oʻng qoʻling ila gʻalaba ato qilgin,
Iltijoimizga javob bergin*,
Suyukli bandalaring najot topsin.

8 Ey Xudo, Oʻz muqaddas makoningdan vaʼda
bergansan*:
"Shodlanib, Shakamni* boʻlib tashlayman,
Suxot vodiysini* taqsimlab beraman.
9 Gilad Menikidir, Manashe* Menikidir,
Efrayim dubulgʻamdir, Yahudo* saltanat hassamdir.
10 Moʻab Mening qoʻlyuvgichimdir,
Edom uzra chorigʻimni otaman*,
Olqishlang Meni, ey Filistlar!*"

11 Ey Xudo, qaniydi mustahkam shaharga* meni olib
borsalar,
Edomga meni boshlab borsalar.
12 Axir, bizni Oʻzing rad etding–ku!
Lashkarimizga yoʻlboshchilik qilmayapsan–ku endi!
13 Dushmandan qutqarib, bizga yordam ber,
Insonning yordami butunlay behuda.
14 Ey Xudo, Sen bilan biz gʻolib boʻlamiz,
Dushmanlarimizni Sen yanchib tashlaysan.

## 60–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar joʻrligida
aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Eshitgin, ey Xudo, ohu nolamni,
Tinglagin mening ibodatimni.
3 Yerning u chetidan Senga yolvoraman,
Yuragim qon boʻlganda, Seni chaqiraman.
Yetib boʻlmas baland qoyaga meni olib chiqqin.
4 Sen mening panohim boʻlgandirsan,
Dushmanimga qarshi mustahkam minorasan.

5 Chodiringda to abad maskan qilay,
Qanotlaring soyasida panoh topay.
6 Axir, ey Xudo, ontimni eshitgansan,
Nomingdan qoʻrqqanlarning mulkidan menga ato

qilgansan.

7 Shohning umrini uzaytirgin,
Nasllar osha hayotini davom ettirgin.
8 Ey Xudo, u to abad huzuringda taxtda oʻtirsin,
Sevging, sadoqating ila uni himoya qilgin.

9 Shunda Senga har doim hamdu sano kuylayman,
Bergan ontimni har kuni ado etaman.

## 61–SANO

1 *Ijrochilar rahbari Yodutunga*. Dovud sanosi.*

2 Jonim yolgʻiz Xudoga muntazirdir,
Najot menga Xudodan keladi.
3 Ha, Uning Oʻzi suyangan qoyam, najotimdir.
Qalʼam Udir, shu bois aslo qoqilmasman.

4 Ey dushmanlar, qachongacha meni turtasizlar?!
Liqillab turgan chetan devorga,
Qiyshaygan devorga hujum qilganday
Hammangiz menga yopishaverasizlarmi?!
5 Sizning rejangiz obroʻyimni toʻkishdir.
Yolgʻon–yashiq gaplardan zavq olasiz,
Ogʻzingiz bilan duo qilasiz,
Ichingizda esa laʼnat oʻqiysiz.

6 Ey jonim, yolgʻiz Xudoga muntazir boʻlgin,
Umidim manbayi Uning Oʻzidir.
7 Yolgʻiz Xudodir suyangan qoyam, najotim,
Qalʼam Udir, shu bois qoqilmasman.
8 Najotimu sharafim Xudodan kelar,
Qudratli qoyamu panohim Udir.

9 Ey xalqim, umid qil Xudodan,
Yuragingni ochgin doimo Unga,
Bizning panohimiz Xudodir.

10 Inson zoti bir nafasdir,
Ha, inson zoti yolgʻondir!
Agar tarozida tortib koʻrilsa,
Hammasi birga havodan ham yengil chiqadi.
Ularning aslo vazni yoʻqdir.
11 Yulgʻichlikka ishonib qolma,
Talonchilikka behuda umid qilma,
Mabodo boyliging koʻpayib qolsa,

Boyligingga ko‘ngil bog‘lama.

12 Ey Xudo, Sen menga bir narsa aytding,
Shu ikki narsa haqida menga gapirding:
Sen qudratli Xudosan.
13 Ey Rabbiy, Sening sevging cheksizdir.
Shu bois Sen har bir insonni
Qilgan ishlariga ko‘ra, mukofotlaysan.

## 62–SANO

1 *Dovud Yahudo cho‘lida bo‘lgandan keyin*, uning aytgan sanosi.*

2 Ey Xudo, mening Xudoyimsan, intilaman Senga,
Quruq, toliqqan suvsiz tuproqday
Jonim tashnadir Senga,
Vujudim orzumanddir Senga.
3 Muqaddas maskaningda Senga nigoh tashladim,
Qudratingni, shuhratingni ko‘rdim.
4 Hayotdan afzal Sening sevging,
Tilimdan tushmas Senga madhiya.
5 Bir umr Seni olqishlayman,
Qo‘llarimni ko‘tarib, Senga sajda qilaman.
6 Ilik bilan yog‘ yeganday jonim mamnun bo‘ladi,
Shodiyona qo‘shiqlar ila Seni madh qilaman.

7 O‘rnimda yotib ham, Seni eslayman,
Seni o‘ylab, tunni qarshi olaman.
8 O‘zing mening madadkorim bo‘lding,
Qanotlaring soyasida sevinch ila kuylayman.
9 Sening ortingdan qolmay ergashaman,
O‘ng qo‘ling meni mahkam tutadi.

10 Jonimning payiga tushganlar
Yerning qa’riga tushib yo‘q bo‘lib ketadi.
11 Ular qilichning damiga yo‘liqadi,
Chiyabo‘rilarga yem bo‘ladi.

12 Shoh esa Xudodan sevinch topadi,
Xudo nomi bilan ont ichganlar Uni madh qiladi,
Yolg‘onchilarning og‘zi esa yopiladi.

## 63–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Xudo, ovozimni eshitgin iltijo qilganimda,

Hayotimni dushman vahimasidan qutqargin.
3 Fosiqning fitnasidan meni yashirgin,
Badkirdorlar to‘dasidan himoya qilgin.
4 Ular tillarini shamshirday qayraydi,
Nishonga olib, zaharli so‘zlarini o‘qday otadi.
5 Aybsiz odamni pistirmadan turib otadi,
Hech qo‘rqmay, birdaniga unga o‘q uzadi.
6 Bir–birining qabih rejalarin qo‘llab–quvvatlaydi,
Yashirincha tuzoq qo‘yishga til biriktiradi,
“Buni kim ham ko‘rardi”, deb o‘ylaydi.
7 Ular adolatsizlikni qasd qiladi:
“Ajoyib reja tuzdik,
Niyatimizni hech kim bilmaydi”, deb aytadi.

8 Xudo esa fosiqlarga o‘q uzadi,
To‘satdan ular yaralanadi.
9 Ularning tili o‘zlarining boshini yeydi,
Ularni ko‘rganlar qaltirab ketadi.
10 Jamiki odamzod qo‘rqib qoladi,
Xudoning ishlarini ular e’lon qiladi,
Xudoning qilganlari haqida o‘ylab ko‘radi.

11 Solihlar Egamiz tufayli sevinsin!
Solihlar Unda panoh topsin,
Hamma pokdil insonlar Uni madh etsin.

## 64–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi. Qo‘shiq.*

2 Ey Quddusdagi* Xudo, Sen loyiqsan hamdu sanoga,
Senga bergan ontimizni bajo qilamiz.
3 Sensan ibodatlarga javob berguvchi,
Jamiki odamzod Senga keladi.
4 Gunoh ustimizdan* tantana qilgan,
Sen esa kechirasan gunohlarimizni*.
5 Qutlug‘ hovlimda yashasin deya,
Sen O‘zing tanlab, olib kelgan inson
Naqadar baxtlidir!
Uyingning, muqaddas Ma’badingning
Ne’matlaridan biz bahramand bo‘lamiz.

6 G‘aroyib ishlar ko‘rsatib,
G‘alaba ila bizga javob berasan,
Ey najotkorimiz Xudo!
Yerning to‘rt tomonining,
Hamda eng uzoq dengizlarning umidi Sensan.

7 Kuch bilan Oʻzingni qurollantirgansan,
Qudrating ila togʻlarni joylashtirgansan.
8 Dengizlar hayqirigʻini bostirasan,
Toʻlqinlar shovqinini tinchitasan.
Xalqlar shovqin–suroniga barham berasan.
9 Dunyoning u chetida yashovchilar
Moʻjizalaringdan qoʻrquvga tushadi.
Sharqdan gʻarbgacha xalqlar
Sening ishlaringni sevinch ila kuylaydi.

10 Zaminni Sen sugʻorib parvarishlaysan,
Moʻl–koʻl qilib uni boyitasan.
Ey Xudo, daryolaring suvi limmo–limdir,
Insonlarni don–dun bilan ta’minlashni
moʻljallagansan.
11 Egatlarini qondirib sugʻorasan,
Baland joylarini Oʻzing tekislaysan,
Yomgʻir bilan tuprogʻini yumshatasan,
Hosiliga baraka berasan.
12 Moʻl hosil bilan yilga toj kiygizasan,
Aravalaring yurgan yoʻllardan boylik oqadi.
13 Choʻl sersuv oʻtloqzorlarga aylanadi,
Tepaliklar sevinchga burkanadi.
14 Yaylovlar qoʻy suruvlari bilan qoplanadi,
Vodiylar donlarga toʻladi,
Ular sevinchdan hayqirib qoʻshiq aytadi.

## 65–SANO

*Ijrochilar rahbariga. Sano. Qoʻshiq.*

1 Xudoga shodlik ila hayqiring,
Ey yer yuzidagi insonlar!
2 Xudoning ulugʻvorligini kuylang!
Unga ajoyib hamdu sanolar ayting!
3 Xudoga aytinglar:
“Sening ishlaring naqadar gʻaroyib!
Qudrating buyukligidan
Dushmanlaring oldingda titrab tiz choʻkadi.
4 Butun zamin Senga sajda qiladi,
Ular Senga hamdu sano aytadi,
Ha, Oʻzingga hamdu sano kuylaydi.”

5 Kel! Xudo nima qilganini koʻrgin!
Inson manfaati uchun qilgan
Gʻaroyib ishlarini koʻrgin!

[6] Xudo dengizni quruq yerga aylantirdi,
Ota–bobolarimiz bahrdan yurib o‘tdi*,
U yerda qilgan ishlaridan,
Xudo tufayli biz sevinamiz.
[7] Qudrati ila to abad hukm suradi,
Ko‘zlari xalqlarni kuzatib turadi,
Unga qarshi isyonchilar qo‘zg‘almasin.

[8] Ey xalqlar, Xudoyimizga olqishlar ayting,
Uning hamdu sanosi yangrasin.
[9] U bizning hayotimizni saqlagan,
Oyoqlarimizni toyib ketishdan asragan.

[10] Ey Xudo, Sen bizni sinading,
Kumushni tozalaganday bizni tozalading.
[11] Bizni tuzoqqa yo‘liqtirding,
Yelkamizga og‘ir yuk ortding.
[12] Aravalarni boshimiz uzra yurgizding,
Olov, suvlardan biz kechib o‘tdik,
Farovonlikka* bizni olib kelding.

[13] Kuydiriladigan qurbonliklar bilan
Senga bergan ontimni ado etgani
Men Sening uyingga kelaman.
[14] Kulfatda qolganimda ont ichgan edim,
Tilim va’da bergan, og‘zim so‘ylagan edi.
[15] Bo‘rdoqilarni kuydirib, Senga qurbonlik qilaman.
Qo‘chqor, taka, buqalarni keltiraman.
Qurbonliklarning hidi samoga yetib boradi.

[16] Ey Xudodan qo‘rqqanlar, kelib eshitinglar,
Men uchun U nima qilganin so‘zlab berayin.
[17] Madad so‘rab Xudoga yolvordim,
Uning hamdu sanosi hech tilimdan tushmadi.
[18] Yuragimda gunohim bo‘lsa edi,
Meni aslo eshitmas edi Rabbiy.
[19] Xudo meni tingladi,
Ibodat qilganimda, ovozimni eshitdi.

[20] Xudoga olqishlar bo‘lsin!
Ibodatimni U rad qilmadi,
Sodiq sevgisini mendan darig‘ tutmadi.

## 66–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida*

*aytiladigan sano. Qo‘shiq.*

2 Ey Xudo, mehribon bo‘lgin, baraka bergin bizga,
Yuzing nurini sochgin lutf ila ustimizga,
3 Zaminda ma’lum bo‘ladi Sening yo‘llaring,
Jamiki xalqlar orasida ma’lum bo‘ladi Sening
najoting.

4 Ey Xudo, xalqlar Seni madh qilsin,
Jamiki xalqlar Senga hamdu sano aytsin.
5 Xalqlarni Sen odillik ila hukm qilasan,
Zamin uzra elatlarga yo‘lboshchilik qilasan,
Sevinsin xalqlar, shodlanib qo‘shiq aytsin.
6 Ey Xudo, xalqlar Seni madh qilsin,
Jamiki xalqlar Senga hamdu sano aytsin.

7 Yer o‘z hosilini bersin,
Xudoyimizning O‘zi bizga baraka bersin.
8 Ha, Xudo bizga baraka bersin!
Yerning to‘rt tomonidagi xalqlar Unga tiz cho‘ksin.

## 67–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi. Qo‘shiq.*

2 Qo‘zg‘alsin Xudo, tarqalib ketsin dushmanlari,
Oldidan qochib ketsin Undan nafratlanganlar.
3 Tutunni shamol tarqatgani kabi,
Xudo ularni haydab yuborsin.
Mum olovda erigani kabi,
Xudo oldida fosiq halok bo‘lsin.
4 Solihlar esa xursand bo‘lsin,
Xudo oldida shod bo‘lsin,
Ular xursandlikka to‘lib–toshsin.

5 Xudoga hamdu sanolar kuylang,
Uning nomini tarannum eting.
U bulutlarni minib boradi,
Uni ulug‘lang.
U Egamizdir!
Huzurida shodlaning!
6 U Xudodir, makoni muqaddasdir,
Yetimlarning otasi, bevalar himoyachisidir.
7 Xudo yolg‘izlarni xonadonga joylashtiradi,
Asirlarni rohatga, erkinlikka olib chiqadi,
Isyonkorlar esa qaqragan yerga ega bo‘ladi.

8 Ey Xudo, O‘z xalqingning oldida borganingda,

Sahro bo‘ylab yurish qilganingda,
Zamin titradi, osmon yomg‘irini quydi.
9 Sening huzuringda, ey Sinay tog‘ining Xudosi*,
Sening oldingda, ey Isroil xalqining Xudosi,
Zamin titradi, osmon yomg‘irini quydi.
10 Sen, ey Xudo, mo‘l yomg‘ir berding,
Toliqqan yeringga* qaytadan kuch ato etding.
11 Xalqing o‘sha yerda boshpana topdi,
Ey Xudo, himmatingdan muhtojlarni bahramand
qilding.

12 Rabbiydan amr keladi,
Ayollarning katta jamoasi xushxabarni eltadi:
13 “Shohlaru lashkarlar shosha–pisha qochdi!”
Ha, Isroil ayollari chodirlarda o‘ljani bo‘lishib oladi!
14 Hatto uyda qolganlar uchun ham
Bordir kumush bilan qoplangan kaptar qanotlari,
Yaltiroq oltin bilan qoplangan kaptar patlari.
15 Qodir Xudo shohlarni to‘zg‘itganda,
Zalmon tog‘iga* qor yoqqanday bo‘ldi.

16 Ey Bashanning tog‘i*, ulug‘vor tog‘,
Ey cho‘qqilari ko‘p tog‘, Bashanning tog‘i!
17 Ey cho‘qqilari ko‘p tog‘!
Xudo makon qilib tanlagan toqqa*
Nega hasad bilan qaraysan?
Egamiz to abad u yerda istiqomat qiladi.

18 Xudoning jang aravalari son–sanoqsizdir,
Rabbiy Sinaydan muqaddas makoniga keladi.
19 Yuksaklarga* chiqdi U,
Asirlarni ortidan ergashtirdi.
Xalqlardan hadyalar oldi,
Hatto gunohkor isyonchilardan ham tuhfalar oldi.
Axir, Parvardigor Egamiz u yerda yashaydi!

20 Rabbiyga olqishlar bo‘lsin,
U har kuni og‘irligimizni ko‘taradi.
Xudo bizning najotimizdir.
21 Xudoyimiz — najot berguvchi Xudo,
Egamiz Rabbiy o‘limdan qutqaradi.

22 Xudo shubhasiz dushmanlar boshini yanchadi,
Gunoh yo‘lidan yurgan odamning
Bosh suyaklarini ham ezadi.
23 Rabbiy shunday deydi:

“Dushmanlaringni Bashandan qaytarib kelaman,
Ularni dengiz tubidan olib kelaman.
24 Oyog‘ingni dushmanlaring qoniga botirasan,
Itlaring ham dushman qonini yalab,
O‘z ulushini oladi.”

25 Ey Xudo, zafarli karvoning ko‘rinmoqda!
Xudoyim, mening Shohim, Sening karvoning
Muqaddas makoningga borayotgani ko‘rinmoqda!
26 Oldinda qo‘shiqchilar, orqada sozandalar,
Ularning o‘rtasida childirma chalgan qizlar kuylar:
27 “Olqishlar ayting Xudoga buyuk jamoa ichra,
Hamdu sanolar o‘qing Egamizga,
Ey Isroilning manbaidan paydo bo‘lganlar!”
28 Ularning eng kichigi — Benyamin qabilasi oldinda keladi,
Ortidan to‘p bo‘lib Yahudo shahzodalari keladi,
Zabulun, Naftali* shahzodalari ularga ergashadi.

29 Ey Xudo, ko‘rsatgin qudratingni!*
Ey Xudo, avvalgiday namoyon qil kuchingni!
30 Quddusdagi Ma’bading haqi–hurmati
Shohlar Senga hadyalar keltiradi.
31 Misrga, qamishzor orasidagi o‘sha yovvoyi hayvonga* tanbeh ber,
Xalqlarga, o‘sha buqalar podasiga, buzoqlariga tanbeh bergin.
Senga ta’zim qilib, kumushlarini nazr qilishsin.
Urushdan lazzatlanuvchi bu xalqlarni to‘zg‘itgin.
32 Misrdan bronza keltiriladi*,
Habashiston* Senga qo‘llarin cho‘zib, ey Xudo,
O‘lpon to‘lashga shoshilib qoladi.

33-34 Xudoni tarannum eting, ey yer yuzi shohliklari,
Samolar — azaliy samolar uzra chiqqan,
Haybatli ovozi gulduragan
Rabbiyga hamdu sanolar kuylang.
35 Hammaga e’lon qiling Xudoning qudratini,
Uning ulug‘vorligi Isroil ustididadir,
Uning qudrati samolardadir.
36 Xudo qo‘rqinchlidir O‘zining muqaddas maskanida,
Isroil xalqining Xudosi kuch–qudrat berar O‘z xalqiga.

Xudoga olqishlar bo‘lsin!

# 68–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. "Nilufar" kuyiga aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey Xudo, meni O'zing qutqar,
Suvlar bo'g'zimga qadar ko'mdi.
3 Botqoqqa cho'kib borayotirman,
Oyog'imni qo'ygani qattiq yer yo'q.
Chuqur suvlarga botib ketdim,
Endi to'lqinlar meni yutmoqda.
4 Madad so'rab, sillam quridi,
Tomoqlarim qaqrab ketdi,
Ey Xudoyim, Seni kutib, ko'z nurim so'ndi.

5 Sababsiz mendan nafratlanganlar
Boshimdagi sochimdan ham ko'pdir.
Ko'pchilik sababsiz menga dushmandir,
Ular jonimga qasd qilmoqchilar.
Men o'g'irlamagan narsalarni ular,
Qaytib ber, deb meni majbur qilmoqdalar.
6 Ey Xudo, aqlsizligimni O'zing bilasan,
Ayblarim Sendan aslo yashirin emas.

7 Ey Sarvari Olam — Rabbiy,
Sendan umid qilganlar
Men tufayli uyatga qolmasinlar.
Ey Isroil xalqining Xudosi,
Senga yuz burganlar
Men tufayli sharmanda bo'lmasinlar.
8 Seni deb haqoratga chidadim,
Xijolatdan yuzim shuvut.
9 Aka–ukalarimga go'yo begonadayman,
Tug'ishganlarim orasida musofirdayman.

10 Sening uyingga bo'lgan sevgim ichimni yondirar,
Seni haqoratlaganlar meni haqorat qilgan bo'lar.
11 Faryod qilib, ro'za tutganimda,
Men masxara bo'ldim.
12 Kulfatda qolib, qanor kiyganimda*,
Ular ustimdan kuldilar.
13 Shahar darvozasi oldida* o'tirganlar
Meni g'iybat qilarlar,
Mast–alastlar men to'g'rimda qo'shiq aytarlar.

14 Men esa, ey Egam, Senga ibodat qilaman.
Ma'qul vaqtda, sodiq sevging soyasida, ey Xudo,

Ishonchli najoting bilan javob ber menga.
15 Meni qutqargin, botqoqqa botib ketmay,
Mendan nafratlanganlardan xalos boʻlay,
Meni chuqur suvlardan saqlagin.
16 Toʻfon meni gʻarq qilmasin,
Tubsiz suvlar meni yutmasin,
Qabr menga ogʻzin ochmasin.

17 Javob ber ibodatimga, ey Egam,
Naqadar ezgudir sodiq sevging,
Buyuk shafqating ila menga yuz burgin.
18 Men, qulingni jamolingdan bebahra qilma,
Kulfatda qolganman, javob ber tezda.
19 Yaqinroq kel, qutqargin meni,
Dushmanlarimdan xalos qil meni.

20 Haqoratga duchor boʻlganim,
Sharmandayu sharmisor boʻlganim
Oʻzingga ravshan.
Hamma dushmanlarimni bilasan.
21 Haqoratlar qalbimni yaralab,
Tushkunlikka tushirdi.
Bir hamdard izladim, hech kim yoʻq edi,
Tasalli beruvchi izladim–u, topmadim.
22 Ovqatimga ular zahar soldilar,
Chanqaganimda menga uzum sirkasi berdilar.

23 Dasturxonlari oʻzlariga tuzoq boʻlsin,
Hamtovoqlari uchun qopqon boʻlsin.
24 Koʻz nurlari soʻnsin, koʻrmay qolsin,
Bellari to abad bukchayib qolsin.
25 Ular ustiga gʻazabingni sochgin,
Qahring alanga olib, ularni yutib yuborsin.
26 Ularning makoni tashlandiq boʻlib qolsin,
Chodirlarida tirik bir jon qolmasin.
27 Sen urgan insonlarni ular taʼqib qiladi,
Sen bergan yara azoblarini ular gʻiybat qiladi.
28 Gunohlari ustiga gunoh qoʻshgin,
Ularni Sen oqlamagin.
29 Nomlari hayot kitobidan oʻchirilsin,
Solihlar bilan yonma–yon yozilmasin.
30 Men azobda, kulfatda qolganman,
Ey Xudo, najoting meni himoya qilsin.

31 Nomini kuylab, Xudoni madh qilaman,
Shukur aytib, Uni maqtayman.

32 Qurbonlik qilingan buzoqdan, hatto buqadan koʻra,
Hamdlarim Egamni koʻproq mamnun qiladi.
33 Mazlumlar buni koʻrib, sevinsin,
Xudoga intilayotganlar dadil boʻlsin.
34 Egamiz muhtojlarni eshitadi,
Asir boʻlgan xalqidan nafratlanmaydi.
35 Yeru osmon Egamizni madh aylasin,
Dengizlaru ulardagi jonzotlar Uni ulugʻlasin.
36 Xudo Quddusga* najot beradi,
Yahudo shaharlarini qayta tiklaydi,
Xalq oʻrnashib, u yerni mulk qiladi.
37 Xudo qullarining avlodi u yerni egallaydi,
Xudoni sevganlar u yerni maskan qiladi.

## 69–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi. Egamizdan madad soʻrab aytgan iltijosi.*

2 Ey Xudo, najot ber menga,
Kelgin tezda, ey Egam, madad ber menga.
3 Jonimga qasd qilganlar
Sharmandayu sharmisor boʻlsin!
Halokatimni istaganlar
Uyatga qolib, orqaga qaytsin!
4 “Holing qalay endi?!” deb meni masxaralaganlar
Sharmanda boʻlib, orqaga qaytsin.

5 Senga yuz burganlarning hammasi
Sen tufayli sevinch, shodlikka toʻlsin.
Sening najotingni sevganlar:
“Xudo yuksalaversin”, deb doim aytsin.
6 Eh, men gʻarib, bechoraman,
Menga yordam berishga shoshil, ey Xudo!
Madadkorim, najotkorim Oʻzingsan,
Kechikmagin, ey Egam!

## 70–SANO

1 Ey Egam, Senda men panoh topaman,
Sharmanda boʻlishimga aslo yoʻl qoʻymagin.
2 Adolatlisan, meni xalos qil, qutqargin,
Quloq tut menga, najot bergin.
3 Mening panoh qoyam boʻlgin,
Har doim Senga bora olay.
Meni qutqarmoq uchun amr berding.
Chindan ham, Sen suyangan qoyamsan, qalʼamsan.

4 Ey Xudoyim, fosiqning qoʻlidan meni qutqargin,
Adolatsiz, zolim odamning iskanjasidan qutqargin.
5 Sen, ey Egam Rabbiy, mening umidimsan,
Yoshligimdan Senga umid bogʻlaganman.
6 Tugʻilganimdan buyon Senga suyandim,
Onamning qornidan meni olib chiqqansan,
Doimo Senga hamdu sano aytaman.

7 Hayotim koʻpchilikka oʻrnak boʻldi,
Chunki Sen mening mustahkam panohimsan.
8 Ogʻzimdan aslo tushmas Senga hamdu sanolar,
Kun boʻyi shuhratingni e'lon qilaman.
9 Keksaygan chogʻimda meni tashlab qoʻymagin,
Quvvatim ketganda, meni tark etmagin.
10 Axir, dushmanlarim menga qarshi til biriktiradi,
Birga fitna qilib, meni oʻldirmoqchi boʻladi.
11 Dushmanlarim aytar: "Xudo tark etgan uni,
Quvinglar, ushlanglar uni,
Uni qutqaradigan hech kimsa yoʻqdir."

12 Ey Xudo, mendan uzoq ketmagin,
Tez kel, ey Xudoyim, menga madad ber!
13 Meni ayblovchilar sharmandalikdan yerga kirib ketsin,
Menga zarar yetkazmoqchi boʻlganlar
Masxara boʻlsin, badnom boʻlsin.
14 Men esa doimo Senga umid bogʻlayman,
Yanada koʻp hamdu sano aytaman.
15 Menga qilganlaringdan hayratga tushdim,
Adolatingni har kimga hikoya qilaveraman,
Najotingni kun boʻyi soʻylayveraman.
16 Qudratli ishlaringni madh qilaman, ey Egam Rabbiy,
Yolgʻiz Sening odilligingni madh qilaman.

17 Ey Xudo, yoshligimdan Sen menga ta'lim bergansan,
Ajoyib ishlaringni hamon aytib yuraman.
18 Sochlarim oqarib, keksayganimda,
Meni tark etmagin, ey Xudo!
Kelgusi avlodlarga kuching haqida aytay,
Mendan keyin keladiganlarga
Qudrating haqida aytib beray.
19 Adolating samolarga yetadi, ey Xudo,
Buyuk ishlar qilding Sen,

Senga o‘xshagan kim bor, ey Xudo?!
20 Duchor qilding meni ko‘p kulfat, azoblarga,
Meni yana hayotga qaytarasan,
Yer ostidan yana meni chiqarib olasan.
21 Shuhratimni yana yuksaltirasan,
Menga yana taskin berasan.

22 Arfa chalib, Senga hamdu sano aytaman,
Sening sadoqatingni kuylayman, ey Xudoyim.
Lira chalib, Seni tarannum qilaman,
Ey Isroil xalqining Muqaddas Xudosi!
23 Seni madh qilib kuylaganimda,
Shodlikdan hayqiraman.
Meni Sen qutqargansan.
24 Menga zarar yetkazmoqchi bo‘lganlar
Sharmandayi sharmisor bo‘ldilar.
Kun bo‘yi tilim adolating haqida so‘ylaydi.

## 71–SANO

1 *Sulaymon sanosi.*

Ey Xudo, shohga adolatingni bergin,
Shoh o‘g‘liga to‘g‘ri hukm chiqarishni o‘rgatgin.
2 Sening xalqingni u adolat ila hukm etsin,
Bechoralarni u to‘g‘rilik bilan hukm etsin.
3 Tog‘lar xalqqa rohat–farog‘at olib kelsin,
Tepaliklar haqiqat samarasini keltirsin.
4 Shoh xalqning qashshoqlarini himoya qilsin,
Bechoralarning bolalariga najot bersin,
Zolimlarni ezib tashlasin.
5 Nasllar osha quyoshu oy samoda turganday,
Uning umri ham shunchalik uzoq bo‘lsin!*

6 Shohimiz o‘xshasin o‘rilgan dalaga,
Yoqqan huzurbaxsh yomg‘irga,
Yerni sug‘organ sharros yomg‘irga.
7 Uning davrida solih yashnasin,
Dunyo turguncha mo‘l–ko‘lchilik bo‘lsin.

8 U bir dengizdan ikkinchisiga qadar,
Furot daryosidan tortib,
Yer yuzining to‘rt tomoniga hukmronlik qiladi.
9 Shoh oldida cho‘l qabilalari tiz cho‘ksin,
Uning dushmanlari tuproq yalasin.
10 Dengiz ortidagi yurtlarning shohlari,
Tarshish* shohlari unga o‘lpon olib kelsinlar.

Shava* hamda Savo* shohlari
Unga hadyalar keltirsinlar.
11 Hamma shohlar unga ta’zim aylasin,
Hamma xalqlar unga xizmat qilsin.

12 Mazlum nola qilganda, shoh najot beradi,
Madadkori yoʻq bechorani u qutqaradi.
13 Zaif, bechoraga u shafqat koʻrsatadi,
Mazlumlarning hayotini saqlaydi.
14 Mazlumlarni jabr–zulmdan xalos qiladi,
Mazlumlar qoni uning nazarida azizdir.

15 Shohning umri uzoq boʻlsin!
Shavaning oltini uniki boʻlsin,
Xalq doimo u uchun ibodat qilsin,
Kun boʻyi duo qilib, Xudodan baraka tilasin.
16 Yurtda don moʻl–koʻl boʻlsin,
Tepaliklar ustida don boshoqlari chayqalib tursin.
Lubnon togʻlarida boʻlgani kabi, hosili unumli boʻlsin.
Daladagi giyohlar kabi, shaharlari odamga toʻlsin.
17 Shohning nomi mangu yashasin,
Uning dongʻi quyosh turguncha bor boʻlsin,
Barcha xalqlar u orqali baraka topsin,
Xalqlar uni, baxtiyor, deb aytsin.

18 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga
Olqishlar boʻlsin.
Ajoyib ishlar qiladigan yolgʻiz Udir.
19 Egamizning ulugʻvor nomiga to abad olqishlar boʻlsin,
Butun yer yuzi Uning shuhrati bilan toʻlsin.

Omin! Omin!

20 Essay oʻgʻli Dovudning ibodatlari nihoyasiga yetdi.

# 72–SANO

*Osif* sanosi.*

1 Haqiqatan ham, Isroil xalqiga,
Yuragi pok boʻlganlarga Xudo himmat qilar.
2 Oyoqlarim toyib ketay, dedi,
Sal boʻlmasa sirpanib yiqilay, dedim.
3 Fosiqning yashnayotganini koʻrganimda,
Takabburlarga hasad qildim.

4 Ular og‘riq nimaligini bilmaydilar*,
Tanalari soppa–sog‘, baquvvat.
5 Boshqalarday ular dard tortmaydilar,
Boshqalarday ular azob chekmaydilar.
6 Kiborlik ularning bo‘ynidagi marjon bo‘ladi,
Zo‘ravonlikni ular libos qilib kiyib olgan.
7 Ularning ko‘zlarini yog‘ bosib qolgan,
Xayollarida ahmoqona niyatlar to‘lib–toshgan.
8 Takabburlar masxaralab, xusumat bilan gapiradi,
Mag‘rurlanib, zulm bilan tahdid qiladi.
9 Fosiqlar og‘izlari bilan osmonga da’vo qiladi,
Tillari bilan yer yuzini mulk qilib oladi.
10 Shu bois har kim ularga yuz buradi,
Ularning so‘zlarini suv kabi ichadi*.
11 Yana ular shunday deydilar:
“Xudo qanday qilib bila oladi?!
Xudoyi Taolo nimani ham bilardi?!”
12 Fosiqlar ana shunaqa!
Doimo betashvish boylik orttiradi.
13 Ha, men bekorga yuragimni pok tutgan ekanman–da!
Aybsizman, deya bekorga qo‘llarimni yuvibman–da!
14 Axir, kun bo‘yi azob tortaman,
Har kuni ertalab jazo olaman.

15 Men ham fosiq gaplarni gapiraverganimda,
Sening sodiq farzandlaringga xoinlik qilgan bo‘lar edim.
16 Ammo bularni tushunay, desam,
Bu ish juda ham mashaqqatli tuyuldi.
17 Xudoning muqaddas maskaniga kirdim,
Shundagina fosiqlar qismati ne bo‘lishini tushundim.

18 Ey Xudo, chindan ham ularni sirpanchiq yerga qo‘ygansan,
Ularni jarlikka uloqtirib, barbod qilasan.
19 Ular birdan qirilib ketadi,
Vahimadan qirilib, yo‘q bo‘ladi.
20 Ularning hayoti faqat tushdir,
Uyg‘onganlarida unut bo‘ladi.
Sen ham qo‘zg‘alganingda, ey Rabbiy,
Ularning hayotiga chek qo‘yasan.

21 G‘amga to‘lgan paytlarimda,
Yuragimda dard paydo bo‘lganda,

22 Men nodon, johil boʻlgan ekanman,
Qarshingda ongsiz hayvon kabi boʻlgan ekanman.
23 Shunday boʻlsa ham, doimo Sen bilanman,
Sen oʻng qoʻlimdan ushlagansan.
24 Oʻgitlaring bilan menga yoʻl koʻrsatasan,
Oxiri meni shon–shuhrat ila kutib olasan.
25 Sendan boshqa kimim bor samoda?!
Sendan oʻzgasini istamasman yer yuzida.
26 Ado boʻlishi mumkin tanamu yuragim,
Ammo Sen, ey Xudo, qalbimning quvvatisan,
Sen to abad barqarorligimsan.

27 Sendan uzoq boʻlganlar halok boʻladi,
Qirib tashlaysan Senga sodiq boʻlmaganlarni.
28 Ey Xudo, Senga yaqin boʻlganim esa menga
yaxshidir.
Ey Egam Rabbiy, Seni panohim qilib oldim,
Sening hamma ishlaringni aytib yuraman.

# 73–SANO

*Osif* qasidasi*.*

1 Ey Xudo! Nechun bizni to abad rad etasan?!
Nechun yaylovdagi qoʻylaringga gʻazabingni
sochasan?!
2 Azalda Oʻzingniki qilib olgan xalqingni yodingda
tut.
Oʻzimning mulkim boʻlsin deb, qutqargan xalqingni,
Oʻzing maskan qilgan Sion togʻini yodingda tut.
3 Dahshatli bu xaroba tomon qadam bosib koʻr,
Qara, muqaddas maskandagi borini gʻanim yoʻq qildi.

4 Gʻanimlaring shovqin–suroni muqaddas
maskaningni toʻldirdi,
Bayroqlarini ular belgi qilib oʻrnatdi.
5 Oʻzlarini boltasi bor odamday tutdilar,
Oʻrmondagi daraxt kesuvchilarday tutdilar.
6 Soʻngra boltayu bolgʻalar bilan
Parchaladilar uning oʻymakor ishlarini.
7 Muqaddas maskaningga oʻt qoʻydilar,
Sen ulugʻlanadigan makonni harom qildilar,
Maʼbadingni yer bilan bitta qildilar.
8 "Ularni tamomila qirib tashlaymiz", deb oʻz
koʻnglida aytdilar,
Yurtdagi barcha sajdagohlarni yoqib tashladilar.

[9] Bironta ham paygʻambar qolmadi,
Moʻjiza alomatlarini topa olmaymiz.
Qachongacha davom etar bu?
Birontamiz bilmaymiz.
[10] Ey Xudo, qachongacha gʻanim Seni masxara qilar?!
Seni dushman to abad haqorat qilarmi?!
[11] Nechun oʻng qoʻlingni ishga solmaysan?!
Qoʻlingni qoʻyningdan chiqarib,
Ularni qirib tashlagin!

[12] Ey Xudo, azaldan mening Shohimsan,
Yer yuziga Sen najot olib kelasan.
[13] Qudrating bilan dengizni boʻlgan Sensan,
Dengiz ajdarlarining boshini majaqlagansan.
[14] Maxluq Levitanning* boshlarini ezib tashlagansan,
Choʻl jonzotlariga* uni yemish qilib bergansan.
[15] Buloqlaru anhorlarni ochgan Sensan,
Oqar daryolarni quritgan ham Sensan.
[16] Kunduz Senikidir, tun ham Seniki,
Quyosh va oyni* bunyod etgansan.
[17] Zaminning chegarasini Sen oʻrnatgansan,
Yoz va qishni ham oʻrnatgan Sensan.

[18] Ey Egam, dushmanning masxaralashini,
Ahmoq odamlar Seni haqoratlashini yodingda tut.
[19] Kaptarlaring hayotini yovvoyi hayvonlarga berma,
Mazlum xalqingning hayotini to abad unutma.

[20] Biz bilan qilgan ahdingni esla,
Yurtdagi zulmat joylar zoʻravonlikka toʻla.
[21] Sharmandalikka mazlum duchor boʻlmasin,
Faqiru bechora Senga hamdu sano aytsin.
[22] Qani, ey Xudo, da’voingni isbot qilgin,
Ahmoqlar kun boʻyi Seni masxara qilishini yodda tut.
[23] Dushmanlaring shovqin–suroni koʻtarilaveradi,
Ularning baqir–chaqirigʻini e’tiborsiz qoldirma.

## 74–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. “Xarob etma” kuyiga aytiladigan Osif* sanosi. Qoʻshiq.*

[2] Ey Xudo, Senga shukurlar aytamiz,
Shukurlar aytamiz, Sen bizga yaqinsan,
Moʻjizalaring haqida odamlar gapiradi.

3 Xudo aytar: “Belgilangan vaqtni tanlayman,
Haqqoniylik bilan hukm qilaman.
4 Zamin va undagi insonlar titragan paytda
Zamin ustunlarini* mahkam ushlagan Menman.”
5 Maqtanchoqlarga Xudo aytar: “Maqtanmagin”,
Fosiqqa aytar: “Kuching bilan maqtanmagin.
6 Gerdayib, samolarga kuchingni koʻrsatma,
Qaysarlarcha kiborlik bilan gapirma.”

7 Hech kim sharqdan yoki gʻarbdan yoxud sahrodan
Insonni yuksaltira olmaydi.
8 Hukm qiladigan Xudodir,
Birovni U yiqitar, boshqasini yuksaltirar.
9 Gʻazab kosasi Egamizning qoʻlida,
Ziravor qoʻshilgan koʻpikli sharobga* toʻla.
U sharobni quyadi,
Olamdagi jamiki fosiqlar esa
Quyqumigacha ichib tugatadi.
10 Men to abad Yoqubning Xudosi haqida gapiraman,
Uni hamdu sano ila tarannum etaman.

11 Xudo aytar: “Fosiqlarning kuchini qirqaman,
Solihlarning qudratini oshiraman.”

## 75–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar joʻrligida
aytiladigan Osif* sanosi. Qoʻshiq.*

2 Yahudo yurtida Xudo mashhurdir,
Isroilda Uning nomi buyukdir.
3 Uning chodiri Quddusdadir*,
Makoni Siondadir.
4 Oʻsha yerda sindirdi otashday oʻqlarni,
Qalqonu qilichni, jang qurollarini.

5 Ey Xudo, naqadar buyuksan!
Oʻljaga boy togʻlardan Sen ulugʻvorsan!
6 Jasur askarlar oʻlja boʻlib yotibdi,
Ular oʻlim uyqusiga ketgan.
Bironta jangchining
Qoʻl koʻtarishga kuchi qolmadi.
7 Ey Yoqubning Xudosi! Sening hayqirigʻingdan,
Otlaru chavandozlar karaxt boʻlib yotibdi.
8 Chindan ham Sen qoʻrqinchlisan,
Kim bardosh bera olar Sening qarshingda,
Gʻazabing qoʻzgʻalgan paytda?!

9-10 Samolardan hukmingni e’lon qilding!
Ey Xudo! Sen hukm qilay deb,
Olamdagi mazlumlarni qutqaray deb, qo‘zg‘alding.
Shunda yer yuzi qo‘rqib sukutda qoldi.
11 Insonga bo‘lgan g‘azabing* O‘zingga hamdu sano
keltirar,
G‘azabingdan qutulganlarni atrofingga to‘playsan*.

12 Egangiz Xudoga ontingizni ado qilinglar,
Qo‘rqinchli Xudoga atrofidagilari*
Hadyalar olib kelsinlar!
13 Xudo takabbur shahzodalarni bo‘ysundirib oladi,
Yer yuzi shohlarini qo‘rquvga soladi.

## 76–SANO

1 *Ijrochilar rahbari Yodutunga*. Osif* sanosi.*

2 Faryod qilib, Xudoga yolvoraman,
Eshitgin meni, deb Xudoga hayqiraman*.
3 Qayg‘uli kunimda Rabbiyga intildim,
Tunda qo‘llarimni ko‘tarib iltijo qildim,
Jonim tasalli topishni rad etdi.

4 Ey Xudo, Seni o‘ylaganimda,
Fig‘on chekaman, ruhim zaiflashadi.
5 Tun bo‘yi Sen meni bedor qilding,
So‘zlay olmayman azoblanganimdan.
6 Oldingi kunlar haqida o‘ylab yurdim,
Eski davrlarni eslab yurdim.
7 Tun bo‘yi o‘zim bilan o‘zim suhbat qurdim*,
Qalbim xayolga berilib, ruhim so‘rab–surishtirdi:
8 “Rabbiy to abad bizni rad etarmikan?
Hech qachon shafqat ko‘rsatmasmikan?
9 Uning sodiq sevgisi to abad yo‘qolganmi?
Uning va’dalari bir umrga tamom bo‘lganmi?
10 Xudo shafqatli bo‘lishni unutib qo‘ydimi?
Rahmdillik o‘rnini g‘azab egalladimi?”
11 O‘zimga o‘zim dedim:
“Xudoyi Taolo o‘ng qo‘li orqali
Endi bizga yordam bermayapti.
Bu mening kulfatimdir.”

12 Ey Egam, ishlaringni men yodga olaman,
Azaliy mo‘jizalaringni esga olaman.
13 Hamma ishlaringni xayolimdan o‘tkazaman,
Qudratli ishlaring haqida fikr yuritaman.

14 Sening yoʻling, ey Xudo, muqaddasdir,
Qaysi xudo Senday buyukdir?!
15 Moʻjizalar yaratuvchi Xudo Sensan,
Xalqlar orasida qudratingni koʻrsatgan Sensan.
16 Qudrating bilan Oʻz xalqingni,
Yoqub hamda Yusuf nasllarini qutqargansan.

17 Ey Xudo, suvlar Seni koʻrganda,
Ha, suvlar Seni koʻrganda, qoʻrqib ketdilar,
Tubsiz dengizlar larzaga keldi!
18 Bulutlar yomgʻirin quydi,
Samolar gumburlab yangradi,
Oʻqlaring har tomonda
Yalt etib paydo boʻldi.
19 Gumbur–gumbur eshitildi quyun ichida,
Chaqmoqlaring olamni yoritdi,
Zamin titrab, tebrandi.
20 Yoʻling dengiz orqali oʻtdi,
Soʻqmogʻing bahaybat suvlardan oʻtdi,
Izlaring esa koʻrinmas edi.
21 Xalqingni qoʻy suruviday yetaklab bording,
Muso, Horunni rahnamo qilib tanlading.

## 77–SANO

*Osif* qasidasi*.*

1 Quloq soling, ey xalqim, oʻgitlarimga,
Quloq tuting ogʻzimdan chiqqan soʻzlarga.
2 Ogʻzimni ochaman masalga,
Oʻtmishning sirli saboqlarin oʻrgataman sizga.
3 Bularni aytgan edi ota–bobolarimiz,
Ulardan eshitganmiz, bilamiz.
4 Egamizning hamdga loyiq ishlarini,
Uning qudratini, U qilgan ajoyibotlarni
Biz yashirmay aytamiz ota–bobolarimiz nasliga,
Hikoya qilamiz bolalarimizga.

5 Yoqub nasliga U farmon berdi,
Isroilga qonun tayinladi.
Ota–bobolarimizga amr berib:
“Bolalaringizga oʻrgating”, dedi*.
6 Toki kelajak nasllar bularni bilsin,
Bilsin hatto tugʻilmagan bolalar,
Oʻz navbatida bolalariga aytsin ular.
7 Bolalari ham umidini bogʻlasin Xudoga,

Xudoning ishlarini unutib qo‘ymay,
Rioya etsin Uning amrlariga.
8 Toki ular ota–bobolariga o‘xshab,
O‘jar, isyonkor nasl bo‘lmasin.
Yuragida Xudoga sadoqati bo‘lmagan,
Ruhan beqaror nasl bo‘lmasin.

9 O‘q–yoy bilan qurollangan Efrayim jangchilari*
Jang kunida ortiga qaytdi*.
10 Ular Xudoning ahdiga rioya qilmadilar,
Uning qonunlari bo‘yicha yurishni rad etdilar.
11 Ular unutdilar Xudoning qilgan ishlarini,
Xudoning ularga ko‘rsatgan mo‘jizalarini.
12 Misr diyoridagi Zo‘van tekisligida*,
Ularning ota–bobolari ko‘z o‘ngida
Xudo mo‘jizalar ko‘rsatgandi.
13 Dengizni yorib, o‘rtasidan ularni o‘tkazdi,
Suvlarni devor kabi tik qilib qo‘ydi*.
14 Kunduzi ularni bulut orqali yetakladi,
Tun bo‘yi alanga yorug‘i orqali yetakladi*.
15 U sahrodagi qoyalarni parchaladi,
Dengiz suviday mo‘l suvni ularga berdi.
16 Qoyadan irmoqlarni chiqardi,
Suvlarni daryolarday oqizdi*.

17 Ular sahroda Xudoyi Taologa qarshi isyon ko‘tarib,
Unga qarshi gunoh qilaverdilar.
18 Ular ataylab Xudoni sinadilar*,
Ko‘ngli tusagan ovqatni talab qildilar.
19 Ular Xudoga qarshi so‘zlab, dedilar:
“Sahroda Xudo bizga dasturxon yoza olarmidi?!
20 Mana, U qoyaga urganda,
Suv daryo–daryo bo‘lib oqdi,
Irmoqlar to‘lib–toshdi.
Endi U O‘z xalqiga non bera olarmikan?
Xalqini go‘sht bilan ta’minlay olarmikan?”

21 Egamiz ularning gapini eshitib,
Qattiq g‘azabga mindi.
Yoqub nasliga qarshi g‘azab alangasini purkadi,
Ha, Isroil nasliga qarshi qahrini sochdi*.
22 Ular Xudoga ishonmadilar,
Uning najotiga tayanmadilar.
23 Xudo samolardan turib amr berdi,
Osmon qopqalarini ochib yubordi.

24 Ular yesin deb, manna* yogʻdirdi,
Osmonning donini ularga berdi.
25 Odamzod farishtalar nonidan yedi,
Xudo ularga moʻl–koʻl taom yubordi.
26 U samolardan sharq shamolini estirdi,
Qudrati bilan janub shamoliga yoʻl koʻrsatdi.
27 U changday moʻl qilib, xalqiga goʻsht yogʻdirdi,
Ha, dengizdagi qumday moʻl qilib qushlar yogʻdirdi.
28 Bularni ularning qarorgohiga yogʻdirdi,
Ularning chodirlari atrofiga tushirdi.
29 Ular toʻygunlaricha yedilar,
Xudo ularga koʻngillari tusaganini berdi.
30 Biroq hali koʻngli tusaganiga toʻymagan,
Luqmalari hali ularning ogʻizlarida ekan,
31 Xudo gʻazabini ularga sochdi,
Ularning kuchlilarini oʻldirdi,
Isroilning gulday yigitlarini yer tishlatdi*.

32 Shularga qaramay, ular gunoh qilaverdilar,
Xudoning moʻjizalariga ishonmadilar.
33 Xudo ularning kunlarini bir nafasday bitirdi,
Ularni vahimaga solib, umrlarini barbod qildi.
34 Baʼzilarini Xudo oʻldirdi,
Shundagina qolganlari Unga intildi,
Tavba qilib, yana Xudoga qaytdi.
35 Ular shunday deb esladilar:
“Ha, Xudo suyangan qoyamiz,
Bizning qutqaruvchimiz Xudoyi Taolo.”
36 Ammo Xudoga xushomad qilardilar,
Unga tillari bilan yolgʻon soʻzlashardi.
37 Yuraklarida esa Xudoga sodiq emas edilar,
Uning ahdiga bevafolik qildilar.

38 Xudo–chi, shafqat qildi,
Kechirdi ularning gunohlarini,
Qirib tashlamadi ularni.
Koʻpincha U gʻazabini bosdi,
Butun gʻazabini sochmadi.
39 Xudo esladi: “Ular shunchaki bandalardir,
Esib, boshqa qaytib kelmas shamoldir.”

40 Sahroda Xudoga qanchalar koʻp isyon qildilar!
Dashtu biyobonda Uni xafa qildilar.
41 Xudoni ular takror–takror sinadilar,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosini ranjitdilar.

42 Ular Xudoning qudratini,
Ularni dushmandan qutqargan kunni esdan
chiqardilar.
43 Xudo Misrda koʻrsatgan moʻjizalarni,
Ha, Zoʻvan tekisligida* koʻrsatgan ajoyibotlarni
unutdilar.
44 Misrdagi daryolarni Xudo qonga aylantirdi,
Misrliklar irmoqlardan suv icholmay qoldi.
45 Ularni yeb bitirsin deya, pashshalar galasini
yubordi,
Yurtni vayron qilsin deya, qurbaqalar yubordi.
46 Ularning hosilini Xudo chigirtkalarga* yem qildi,
Ularning mehnati mahsulini chigirtkalarga berdi.
47 Uzumzorlarini doʻl bilan yakson qildi,
Shikamora–anjir daraxtlarini* jalada nobud etdi.
48 Ularning chorvasini doʻlga duchor qildi,
Ularning podasini yashin alangasiga berdi.
49 Kulfat elchilarini yuborganday
Xudo ularga alangali gʻazabini, qahrini,
Nafratini hamda musibatni sochdi.
50 U Misrdan gʻazabini qaytarmadi,
Ularning jonlariga shafqat qilmadi,
Ularni vaboga duchor qildi.
51 Misrning hamma toʻngʻich oʻgʻillarini nobud qildi*,
Ha, Xom avlodining* faxri,
Qut–baraka timsolini yoʻq qildi.
52 Oʻz xalqini esa Xudo qoʻyday yetaklab chiqdi,
Ularni sahro boʻylab suruvday boshlab bordi.
53 Egamiz eson–omon boshlab bordi,
Ular qoʻrqmadilar,
Ularning gʻanimlarini esa dengiz yutdi.
54 Egamiz xalqini Oʻz muqaddas yurtiga,
Oʻz kuchi bilan qoʻlga kiritgan toqqa olib keldi.
55 Oʻz xalqining oldidan boshqa xalqlarni* quvdi,
Ularning yurtini mulk qilib boʻlib berdi,
Isroil qabilalarini ularning chodirlarida oʻrnashtirdi.
56 Ular hamon Xudoyi Taoloni sinardilar,
Unga qarshi isyon koʻtarib, farmonlariga
boʻysunmadilar.
57 Otalari kabi bevafolik qilib, xoinlik qildilar,
Yaroqsiz kamonga oʻxshab ishonchsiz chiqdilar.
58 Sajdagohlari bilan ular Xudoni gʻazablantirdilar,
Butlari bilan Uning rashkini qoʻzgʻatdilar.
59 Bularni eshitganda Xudo, gʻazabga mindi,
Shundan soʻng Isroilni tamom rad etdi.

60 U Shilo‘dagi* O‘z maskanini,
Insonlar orasida tikkan Chodirini tark etdi.
61 Dushmanga asir qilib berdi Ahd sandig‘ini,
O‘zining qudratiyu shuhrati ramzini*.
62 O‘z xalqini U qilichga ro‘para qildi,
G‘azabini tanlagan xalqiga sochdi.
63 Yigitlarini alanga yamlamay yutdi,
Qizlari nikoh qo‘shiqlarini aytolmay qoldi.
64 Ruhoniylari qilich tig‘idan yiqildi,
Ruhoniylarning bevalari aza tutolmay qoldi.
65 Shunda Rabbiy qo‘zg‘aldi uyqudan uyg‘onganday,
Sharobdan hayqirayotgan bahodirday.
66 Dushmanlarini U tirqiratib quvdi,
Ularni abadiy sharmandalikka duchor qildi.

67 Yusuf naslini Xudo rad etdi,
Efrayim qabilasini* tanlamadi.
68 Uning o‘rniga Yahudo qabilasini*,
O‘zi sevgan Sion tog‘ini tanladi*.
69 Abadiy o‘rnatgan yer kurrasi kabi,
Samolar kabi, O‘z muqaddas maskanini qurdi.
70 Xudo O‘z quli Dovudni tanlab oldi,
Qo‘y qo‘rasidan uni chaqirib oldi.
71 U Dovudni sovliq qo‘y, qo‘zilarga cho‘ponlikdan
oldi.
O‘zining xalqi Isroilga,
Yoqub nasliga cho‘pon qilib tayinladi.
72 Dovud ularga halollik bilan cho‘ponlik qildi,
Mohirlik bilan ularni yetaklab bordi.

## 78–SANO

*Osif* sanosi.*

1 Ey Xudo, begona xalqlar
Tanlagan yurtingni bosib oldi,
Ular muqaddas Ma’badingni bulg‘adi,
Quddusni vayronaga aylantirdi.
2 Biz Sening qullaringmiz.
Ular qullaringning jasadlarini
Qushlarga yemish qilib berdilar.
Taqvodor xalqingning etini
Zamindagi yovvoyi hayvonlarga berdilar.
3 Quddus atroflarida ular qonimizni suvday to‘kdi,
Jasadlarni dafn qilishga biron zot qoldirmadi.
4 Qo‘shnilarimiz oldida masxara bo‘ldik,

Atrofimizdagilarga kulgi, oʻyinchoq boʻldik.

5 Ey Egam, qachongacha bizdan gʻazablanasan? To abadmi?
Qachongacha rashking alangaday yonadi?
6 Seni tan olmaydigan xalqlar uzra,
Senga sajda qilmaydigan shohliklar uzra
Gʻazabingni sochgin.
7 Ular xalqing Isroilni* yeb bitirdi,
Yurtini tashlandiq sahroga aylantirdi.

8 Bizga otalarimiz gunohlarini eslatma,
Bizga tezda shafqatingni koʻrsat,
Axir, biz oyoq osti boʻlib ketdik–ku!
9 Oʻz shuhrating haqi, bizga madad ber,
Ey najotkorimiz Xudo!
Oʻz noming haqi, bizni qutqar,
Gunohlarimizni kechir.
10 Nima uchun begona xalqlar:
“Qayerda ekan–a ularning Xudosi”, deya aytmogʻi kerak?!
Xalqlardan oʻch olganingni biz koʻraylik,
Axir, ular bizning qonimizni toʻkkan.
11 Mahbuslarning figʻonini eshitgin,
Buyuk qudratingni namoyish qilib,
Oʻlimga mahkum boʻlganlarni qutqargin.
12 Ey Rabbiy, qoʻshni xalqlar Seni haqoratlagani uchun
Ularga yetti baravar qaytargin.
13 Biz Sening xalqing, yaylovdagi suruvingmiz,
Senga to abad shukur aytarmiz,
Nasldan naslga Seni takror madh qilarmiz.

## 79–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Nilufar” kuyiga aytiladigan Osif* sanosi.*

2-3 Tingla bizni, ey Isroilning Choʻponi,
Yusuf naslini* qoʻy suruviday yetaklab chiqqan Sensan,
Karublar orasida taxt qurgansan,
Efrayim, Benyamin, Manashe* oldida nuringni soch.
Qudratingni koʻrsat, bizni qutqargani kel.

4 Ey Xudo, bizni oldingi holimizga qaytargin,
Jamoling bizga nurlarini sochsin, najot topaylik.

5 Ey Parvardigori Olam — Egamiz,
Qachongacha gʻazablanib, ibodatimizni rad etasan?
6 Koʻz yoshlar berding bizga non oʻrniga,
Chelak toʻla koʻz yoshlarni bizga ichirding.
7 Qoʻshnilar bizdan nafratlanishiga imkon berding,
Dushmanlarimiz bizni masxara qilmoqda.

8 Ey Parvardigori Olam, bizni oldingi holimizga
qaytargin,
Jamoling bizga nurlarini sochsin, najot topaylik.

9 Tok novdasini sugʻurganday,
Bizni Misrdan keltirding.
Begona xalqlarni quvib, bizni oʻtqazding.
10 Biz uchun tuproq tayyorlading,
Ildiz otib, yurtni toʻldirdik.
11 Togʻlar bizning soyamiz bilan qoplandi,
Bahaybat sadrlar ham novdalarimiz bilan qoplandi.
12 Biz shoxlarimizni dengizgacha* yoydik,
Novdalarimiz Furot daryosigacha choʻzildi.
13 Nega endi bogʻning devorlarini buzib tashlading?
Oʻtgan–ketganlar mevalarini yulsin debmi?
14 Yovvoyi toʻngʻizlar uni xarob qiladi,
Yovvoyi jonivorlar* undan yeb qornini toʻygʻizadi.

15 Qayt yana bizga, ey Parvardigori Olam!
Nazar solgin, qara samodan,
Bu tok novdasini qoʻriqlagin.
16 Oʻng qoʻling oʻtqazgan ildizni,
Oʻzing oʻstirgan novdani* qoʻriqlagin.
17 Gʻanimlaring uzum tokingni qirqqan edi,
Uzum tokingni olovda yondirgan edi,
Gʻazabli boqishingdan ular yoʻq boʻlsin.
18 Oʻzing tanlaganingga,
Oʻzing uchun kuchli qilgan xalqqa* tayanch boʻlgin.
19 Shunda biz hech qachon Sendan qaytmaymiz,
Senga sajda qilamiz, bizga hayot ato qil.

20 Ey Parvardigori Olam — Egamiz,
Bizni oldingi holimizga qaytargin,
Jamoling bizga nurlarini sochsin, najot topaylik.

## 80–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Soz joʻrligida aytiladigan Osif**

*sanosi.*

2 Xudoga, qudratimiz manbaiga
Sevinch bilan kuylang!
Yoqubning Xudosiga shodlik ila hayqiring!
3 Qo'shiq kuylang, doira cherting,
Xushovoz lira, arfa chaling.
4 Burg'u chaling yangi oy shodiyonasida,
Oy to'lganda, bayram kunimizda*.
5 Isroil uchun bu qonundir,
Yoqub Xudosining farmonidir.
6 Misr yurti ustiga bostirib borganda,
Xudo buni Isroilga* qonun qilib berdi.

Men notanish bir ovozni eshitdim:
7 "Yukni oldim yelkangizdan,
— deydi U. —
Qo'llaringiz savatdan ozod bo'ldi*.
8 Kulfatda Menga faryod qildingiz, sizni qutqardim,
Bulutlar orasidan sizlarga javob berdim,
Mariva suvlari bo'yida* sizlarni sinadim.
9 Eshiting, ey xalqim, tanbeh beraman sizga,
Ey Isroil, koshkiydi quloq solsangiz Menga!
10 Orangizda begona xudolar bo'lmasin,
Boshqa xudolarga sajda qilmanglar.
11 Men sizlarning Egangiz Xudoman,
Sizlarni Misr yurtidan Men olib chiqqanman,
Og'zingizni katta oching, Men uni to'ldiraman.

12 Ey xalqim, siz esa ovozimga quloq solmadingiz,
Ey Isroil, Menga itoat etishni rad etdingiz.
13 O'z bilganingizcha yashang, deya
Yuraklaringizni o'jarligicha qoldirdim.
14 Eh, qaniydi siz Menga quloq solsangiz,
Ey Isroil, Mening yo'llarimdan yursangiz!
15 Tezda dushmanlaringizni bo'ysundirardim,
Sizning g'animlaringizga zarba berardim.
16 Men, Egangizdan nafratlanganlar
Qo'rquvdan titrab, tiz cho'kkan bo'lardi,
Ularning halokati to abad davom etardi.
17 Sizlarni bug'doyning eng yaxshisi bilan boqardim,
Qoyadan asal chiqarib, sizlarni to'ydirardim."

## 81–SANO

*Osif* sanosi.*

1 Xudo raislik qilar samodagi kengashida*,
U hukm chiqarar xudolar* orasida:
2 “Qachongacha sizlar nohaq hukm qilasiz?!
Fosiqqa tarafkashlik qilasiz?!
3 Zaif, yetimlarga adolat koʻrsating,
Mazlum, qashshoqlarning haqini himoya qiling.
4 Zaif, muhtojlarni qutqaring,
Fosiqning qoʻlidan ularni ozod eting.
5 Hech narsani bilmaysiz, tushunmaysiz,
Sizlar zulmatda yurasiz,
Zaminning poydevori* larzaga keladi.
6 Aytdimki: hammangiz xudolarsiz,
Xudoyi Taoloning oʻgʻillarisiz.
7 Ammo oddiy odamday oʻlib ketasiz,
Har qanday hukmdor kabi qulaysiz.”

8 Qani, ey Xudo, olamni hukm qil,
Zotan, hamma xalqlar Senikidir.

## 82–SANO

1 *Osif* sanosi. Qoʻshiq.*

2 Ey Xudo, sukut saqlamagin,
Jimjit boʻlma, ey Xudo, jim turmagin.
3 Dushmanlaring shovqin–suron solmoqda,
Gʻanimlaring isyon qilmoqda.
4 Ayyorlik bilan ular xalqingga fitna qiladi,
Sen ardoqlaganlarga qarshi qasd qiladi.
5 Ular aytar: “Qani, oʻsha xalqning ildizini quritaylik,
To abad unutilsin Isroilning nomi.”

6-8 Edomliklar va Ismoil avlodlari,
Moʻabliklar* va Hojar nasllari*,
Gabol*, Ommon va Omolek* xalqlari,
Tir xalqi bilan Filistiya*
Til biriktirib, fitna qiladi,
Senga qarshi ittifoq tuzadi.
9 Lut nasli* bilan ittifoq tuzib,
Ossuriya ham ularga qoʻshilgan edi.

10 Midiyonlarni jazolaganingday* ularni jazola,
Xishon daryosida Sisaro, Yobinni qirganingday*

jazola.
11 Ular En–Do‘rda halok bo‘lgandilar,
Yerga tashlangan go‘ngday bo‘lgandilar.
12 Oriv va Zayovday* qilib, ularning yo‘lboshchilarini o‘ldir,
Barcha shahzodalarini Zevax va Zalmunoday* qilgin.
13 Axir, ular: “Xudoning o‘tloqlarini
O‘zimizniki qilib olaylik”, dedilar.

14 Ey Xudoyim, ularni xazonday sovurgin,
Shamoldagi somonday ularni uchirgin.
15-16 O‘rmonni alanga yondirganday,
Ularni bo‘ronlaring ila ta’qib qil.
Tepaliklarni olov bilan kuydirganday
Ularni dovullaring ila dahshatga sol.
17 Yuzlarini sharmandalikdan qizartir,
Toki ular, ey Egam, Senga intilsin.
18 Ular doim sharmanda bo‘lib, qo‘rquvga tushsin,
Badnom bo‘lib, yo‘q bo‘lib ketsin.
19 Ular bilsin Egamiz Sen ekaningni,
Yer yuzida buyuk hukmdor yolg‘iz Sen ekaningni.

## 83–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Soz jo‘rligida aytiladigan*
*Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Sening makoning ajoyibdir,
Ey Sarvari Olam!
3 Ey Egam, Sening hovlingga kirmoqni
Jonim istar, hatto orziqar.
Ey barhayot Xudo! Qalbim, vujudim
Sevinch ila Senga kuylar.

4 Ey Sarvari Olam, Shohim, Xudoyim!
Qurbongohing yonida chumchuq ham bir uy topgan,
Polaponlarim uchun joy topay deya,
Qaldirg‘och ham o‘zi uchun bir in qurgan.
5 Baxtlidir Sening uyingda istiqomat qiladiganlar,
Ular doim Senga hamdu sano aytarlar.

6 Baxtlidir Sendan qudrat olgan odamlar,
Quddusni chin dildan ziyorat qilishga intiladiganlar.
7 Qaqragan soylikdan* ular o‘tar ekanlar,
Buloqlar oqa boshlar,
Ilk yomg‘ir bu yerni suv havzalariga* to‘ldirar.
8 Ular yurgan sari kuchayib borar,

Ey Xudo, ular Quddusda* huzuringda hozir bo‘lar.

9 Ey Parvardigori Olam — Egam, eshit ibodatimni,
Ey Yoqubning Xudosi, tinglagin meni.
10 Ey Xudo, qara shohga — qalqonimizga,
O‘zing moy surtib tanlaganga lutf qilgin.

11 Sening hovlilaringda o‘tgan bir kun
Afzaldir boshqa yerda o‘tgan ming kundan.
Fosiqlarning chodirlarida yashagandan ko‘ra,
Bo‘lsaydim, ey Xudoyim, Sening uyingda
darvozabon.
12 Ey Parvardigor Egam, quyosh va qalqonsan,
Sen bizga mehribonlik ko‘rsatib, shon–shuhrat ato
etasan.
Ey Egam, to‘g‘ri yurganlardan
Ne’matingni darig‘ tutmaysan.
13 Ey Sarvari Olam,
Sendan umid qilgan odam baxtlidir!

## 84–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Ey Egam, O‘z yurtingga marhamat ko‘rsatgansan,
Yoqub naslini yana farovonlikka erishtirgansan.
3 Xalqingning ayblarini unutgansan,
Ularning gunohlarini kechirgansan.
4 Butun g‘azabingni jilovlading,
Qahru g‘azabingdan qaytding.

5 Ey najotkorimiz Xudo,
Oldingi holimizga bizni qaytargin,
Bizga qarshi bo‘lgan g‘azabingni to‘xtatgin.
6 Sen bizdan to abad g‘azablanasanmi?
G‘azabingni nasllar osha sochaverasanmi?
7 Xalqim Menda sevinch topsin deya,
Bizga yana yangi hayot baxsh etmaysanmi?
8 Ey Egam, bizga sodiq sevgingni ko‘rsat,
Bizga najotingni ato qil.

9 Parvardigor Egamiz aytayotganiga quloq solaman,
U O‘z xalqiga, O‘z taqvodorlariga tinchlik va’da
qilayotir,
Endi ular bema’ni yo‘llariga* qaytmasin.
10 Shubhasiz, Egamizdan qo‘rqqanlarga
Uning O‘zi najot berishga tayyor turadi,

Bizning yerimizda Uning ulug‘vorligi makon topadi.

11 Sevgi va haqiqat uchrashadi,
Adolat, tinchlik bir–biri ila o‘pishadi.
12 Haqiqat zamindan o‘sib chiqadi,
Adolat samodan turib boqadi.
13 Egamiz chindan ne’matin yog‘diradi,
Yerimiz o‘z hosilini beradi.
14 Adolat Egamizning oldida yuradi,
Uning qadamlari uchun yo‘l tayyorlaydi.

## 85–SANO

*Dovud ibodati.*

1 Tinglagin, ey Egam, javob ber menga,
Men muhtoj hamda yo‘qsilman.
2 Taqvodorman, jonimni asragin,
Senga umid qilaman, men, qulingni qutqargin.
Sen mening Xudoyimsan.
3 Shafqat qilgin menga, ey Rabbiy,
Kun bo‘yi Senga iltijo qilmoqdaman.
4 Men, qulingga shodlik baxsh etgin,
Ey Rabbiy, men Senga yuragimni ochaman.
5 Sen, ey Rabbiy, yaxshisan, kechirimlisan,
Senga iltijo qilganlarga
Sodiq sevgingni ko‘rsatasan.
6 Ibodatimga quloq sol, ey Egam,
Shafqat so‘rab qilgan iltijoimga diqqat qil.
7 Og‘ir kunda Senga iltijo qilaman,
Iltijolarimga Sen javob berasan.

8 Ey Rabbiy, xudolar orasida
Hech qaysisi Senga o‘xshamaydi,
Bironta buyuk ishni Seniki bilan qiyoslab bo‘lmaydi.
9 Jamiki xalqlarni Sen yaratgansan,
Ey Rabbiy, ular kelib, Senga ta’zim qiladi,
Nomingga shuhrat keltiradi.
10 Zero, Sen buyuksan, mo‘jizalar ko‘rsatasan,
Sen tanho Xudosan.
11 Yo‘lingni menga ko‘rsat, ey Egam,
Toki to‘g‘ri so‘qmoqlaringdan yuray,
Menga sobit qalb bergin,
Men Sendan qo‘rqayin.
12 Ey Rabbim Xudo, butun yuragim ila
Senga shukur aytaman!

To abad Sening nomingni ulugʻlayman.
13 Menga boʻlgan sodiq sevging gʻoyat buyukdir,
Oʻliklar diyoridan* jonimni qutqargansan.

14 Ey Xudo, takabburlar menga hujum qilmoqda,
Zoʻravonlar toʻdasi jonim payiga tushgan.
Ular Senga aslo e’tibor bermaydi.
15 Sen, ey Rabbiy, rahmdil va inoyatli,
Jahli tez chiqmaydigan Xudosan,
Sevging va sadoqating moʻldir.
16 Holimga boq, mehr–shafqat qil,
Men qulingman, Oʻz choʻringning oʻgʻliman.
Menga qudratingdan ato qil,
Meni qutqargin.
17 Marhamating alomatini menga koʻrsatgin,
Toki gʻanimlarim buni koʻrib, sharmanda boʻlsin.
Meni qoʻllab, tasalli bergansan, ey Egam.

## 86–SANO

1 *Koʻrax naslining* sanosi. Qoʻshiq.*

2 Egamiz yaratgan shahar muqaddas togʻda* turibdi,
Yoqub naslining barcha maskanlaridan koʻra,
Egamiz Quddus* darvozalarini koʻproq sevadi.
3 Ey Xudoning shahri!
Sen toʻgʻringda Xudo ajoyib soʻzlar aytgan:
4 “Meni e’tirof etadiganlar orasida
Misrni*, Bobilni, Filistiyani,
Tir* bilan Habashistonni* ham qayd etaman.
Odamlar ularni ham: «Quddusda tugʻilgan», deb aytadi.”

5 Ha, Quddus haqida odamlar shu soʻzni aytadi:
“Har biri oʻsha yerda tugʻilgan,
Xudoyi Taoloning Oʻzi Quddusni mustahkam qiladi.”
6 Egamiz xalqlarning roʻyxatini tuzib:
“Bu odam ham Quddusda tugʻilgan”, deb yozadi.
7 Xonish qilib, raqs tushib ular:
“Hayotim manbayi Sendadir”, deb aytadi.

# 87–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. Ko'rax naslining* sanosi.*
*"Qayg'u–alam" kuyiga aytiladigan qo'shiq. Zerax*
*urug'idan bo'lgan Xamanning qasidasi*.*

[2] Ey Egam, najotkorim Xudo,
Kecha–kunduz faryod qilaman oldingda.
[3] Ibodatim Senga yetib borsin,
Qulog'ingni dodimga tutgin.

[4] Hayotim kulfatga to'la,
O'zim o'liklar diyoriga* yaqinlashganman.
[5] Meni qabrga tushganlar orasida hisoblaydilar,
Bemajollarga o'xshab qolganman.
[6] Murdalar orasiga tashlanganman,
Qabrda yotgan marhumlarga o'xshayman,
Sen meni o'shalarday unutgansan,
Ular Sening himoyangdan mahrumdirlar.
[7] Sen tashlading meni qabrning eng tubiga,
Eng zulmat, chuqur joylarga.
[8] G'azabing ustimdan zilday bosadi,
Qahring to'lqinlari ila meni ezasan.

[9] Yaqin do'stlarimdan meni ayirding,
Ularga meni jirkanch qilding,
Qamalib qolganman, xalos bo'la olmayman.
[10] Ko'zlarim nuri g'amdan adoyi tamom bo'ldi.
Ey Egam, har kuni* Senga iltijo qilaman,
Qo'llarimni Sen tomon cho'zaman.
[11] Mo'jizalaringni marhumlarga ko'rsatasanmi?!
Murdalar turib, Senga hamdu sano aytarmikan?!
[12] Sening sodiq sevging qabrda e'lon qilinarmi?!
Halokat diyorida* Sening sadoqating haqida
aytilarmi?!
[13] Zulmat diyorida mo'jizalaring ma'lum bo'larmi?!
Unutilganlar makonida* odilliging haqida
so'ylanarmi?!

[14] Ey Egam, men Senga faryod qilaman,
Ibodatim sahardanoq Senga yetib boradi.
[15] Ey Egam, nechun meni rad qilasan?
Nechun mendan yuz o'girasan?
[16] Yoshligimdan buyon xastaman, o'lim bilan yuzma–
yuzman,
Vahimalaring qarshisida umidsiz qolganman*.

17 Qahru gʻazabing meni ezib tashladi,
Vahimalaring meni adoyi tamom qildi.
18 Qahr–gʻazabing kun boʻyi meni toʻfonday oʻrab oladi,
Meni har tarafdan qurshab oladi.
19 Yaqin doʻstimdan, qoʻshnimdan meni ayirding,
Faqat zulmat mening sherigim boʻlib qoldi.

## 88–SANO

1 *Zerax urugʻidan boʻlgan Etxanning qasidasi*.*

2 Sening sodiq sevgingni, ey Egam, to abad kuylayman,
Barcha nasllarga sadoqatingni oʻz ogʻzim bilan e'lon qilaman.
3 Bilaman, Sening sodiq sevging to abad mustahkamdir,
Sening sadoqating samolarday barqarordir.
4 Sen shunday deding*:
“Oʻzim tanlaganim bilan ahd qilganman.
Ha, qulim Dovudga qasamyod qilganman:
5 «Sening naslingni to abad mustahkam qilaman,
Taxtingni butun avlodlar osha oʻrnataman.»”

6 Ajoyibotlaringga, ey Egam, samolar hamdu sano aytsin,
Muqaddas malaklar Sening sadoqatingni kuylasin.
7 Ey Egam, samolarda Senga tenglashadigani bormikan?!
Ilohiy zotlardan* qaysi biri Senga oʻxsharkan?!
8 Ey Xudo, muqaddas malaklar davrasida* haybatlisan,
Taxting atrofidagilarning hammasidan qoʻrqinchlisan.
9 Ey Parvardigori Olam — Egam,
Kim Senchalik qudratli, ey Egam?!
Sadoqating atrofingni oʻragan.
10 Asov dengizni yoʻlga solguvchi Sensan,
Toʻlqinlar quturganda bosguvchi Sensan.
11 Jasadni ezganday maxluq Rahobni* ezding,
Qudratli qoʻling bilan gʻanimlaringni tarqatding.
12 Samolar Senikidir, zamin ham Senikidir,
Olamu undagi har narsa Senikidir,
Hammasini Sen mustahkam qurgansan.
13 Shimolu janubni ham Sen yaratgansan,

Tovur, Xermon tog‘lari*
Sening noming tufayli shodlikdan kuylaydi.
14 Bilaging naqadar qudratlidir!
Qo‘ling kuchli, o‘ng qo‘ling muzaffardir!
15 Adolat va haqqoniyatdir taxtingning poydevori,
Oldingda yuradi sevgi va sadoqat.
16 Baxtlidir sevinch hayqiriqlarini bilgan xalq,
Ey Egam, huzuring nurida yurgan xalq baxtlidir!
17 Sening noming tufayli ular kun bo‘yi sevinadi,
Sening adolating tufayli ular yuksaladi.
18 Zotan, Sen ularning kuchi, shuhratisan,
Qudratimiz yuksalar Sening lutf–karamingdan.
19 Ey Egam, qalqonimizni Sen tanlading,
Ey Isroil xalqining Muqaddas Xudosi,
Sen bizga shohimizni berding.

20 Qadimda Sen taqvodorlaringga vahiyda aytdingki:
“Mashhur jangchiga Men kuch berdim,
Xalq orasidan yosh yigitni yuksaltirdim.
21 Qulim Dovudni Men topdim,
Muqaddas moyimni surtib uni tanladim*.
22 Mening qo‘lim doim uni quvvatlaydi,
Bilagim uni kuchli qiladi.
23 G‘anim uni alday olmaydi,
Zolim uni qisa olmaydi.
24 Uning ko‘z o‘ngida dushmanlarini ezib tashlayman,
Uni yomon ko‘rganlarni qirib tashlayman.
25 Sadoqatim, sodiq sevgim u bilan bo‘ladi,
Men tufayli uning qudrati yuksaladi.
26 Uning qudratini dengiz uzra barqaror qilaman,
Uning hukmronligini daryolar uzra o‘rnataman.
27 U Menga aytadi: «Sen Otamsan!
Xudoyimsan, najotim qoyasi Sensan.»
28 Men uni to‘ng‘ich o‘g‘il qilib olaman*,
Yer yuzi shohlarining qudratlisi qilaman.
29 Unga bo‘lgan cheksiz sevgimda to abad sobit turaman,
U bilan qilgan ahdimni davom ettiraman.
30 Uning naslini to abad mustahkam qilaman,
Uning taxti osmon turguncha turadi.
31 Bordi–yu, uning nasli qonunimdan yuz o‘girsa,
Mening qoidalarim bo‘yicha ular yurmasalar,
32 Agarda farmonlarimni buzsalar,
Mening amrlarimga rioya etmasalar,
33 Ularni itoatsizligi uchun xivich bilan jazolayman,

Gunohi uchun ularni tayoq bilan jazolayman.
34 Dovuddan esa sevgimni darigʻ tutmayman,
Sadoqatimga aslo xiyonat etmayman.
35 Men ahdimni buzmayman,
Aytgan soʻzimdan aslo qaytmayman.
36 Muqaddas nomim haqi ilk va soʻng marta ont
ichdim,
Dovudni Men aslo aldamayman.
37 Uning nasli to abad davom etadi,
Uning taxti qarshimda quyosh kabi turadi.
38 Oyga, samolardagi oʻsha sodiq guvohga oʻxshab,
Taxti to abad mahkam turadi."

39 Endi esa, ey Egam, Sen uni nafrat bilan rad etding,
Oʻzing shoh qilib tanlaganingdan gʻoyat
gʻazablanding.
40 Men — Oʻz quling bilan qilgan ahdingdan qaytding,
Uning tojini Sen tuproqqa qording.
41 Shaharlarining hamma devorlarini qulatding,
Qal'alarini vayronaga aylantirding.
42 Yoʻldan oʻtayotganlarning hammasi uni taladi,
Qoʻshni xalqlarga u masxara boʻldi.
43 Shohimizning dushmanlarini gʻolib qilding,
Uning hamma gʻanimlarini sevintirding.
44 Qilichining damini qaytarding,
Jangda unga Sen madad bermading.
45 Uning ulugʻvorligiga Sen chek qoʻyding,
Taxtini yerga uloqtirib yubording.
46 Yoshlik kunlarini qisqartirding,
Uni sharmandayu sharmisor qilding.

47 Ey Egam, bu qachongacha davom etadi?
Oʻzingni bizdan to abad yashirasanmi?
Qachongacha gʻazabing otash kabi yonadi?
48 Esingda tut, hayotim naqadar qisqa,
Ne uchun insonni behuda yaratding?!
49 Qaysi inson oʻlimni koʻrmas ekan?!
Kim oʻliklar diyori* changalidan omon qolar ekan?!
50 Ey Rabbiy, qani oldingi buyuk sevging?
Sadoqating ila buni Dovudga va'da bergan eding–ku!
51 Ey Rabbiy, men, quling, qanchalar masxara
boʻlganimni* yodingda tut.
Hamma xalqlarning haqoratlarini bagʻrimda koʻtarib
yuribman–ku!
52 Ey Egam, dushmanlaring tanlagan shohingni

masxaralaganini,
Uning har bir qadamini tahqir etganlarini yodda tut!

53 Egamizga to abad olqishlar boʻlsin!

Omin! Omin!

## 89–SANO

1 *Xudo odami Musoning ibodati.*

2 Ey Rabbiy, nasllar osha
Sen panohimiz boʻlgan eding.
3 Togʻlar hali paydo boʻlmasdan oldin,
Yeru olamni yaratmasingdan oldin,
Abadulabad Sen Xudosan.
4 Sen insonni tuproqqa qaytarasan*,
“Qaytinglar tuproqqa, ey bandalar”, deb aytasan.
5 Ming yil Sening nazaringda bir kundaydir,
Qisqa bir tun vaqtidaydir.

6 Sen odamlarni supurib tashlaysan,
Ular goʻyo tushga oʻxshaydi.
Ular tongda ungan yangi maysa kabidir.
Tongda maysa yangidan oʻsib chiqsa ham
Oqshomda soʻlib, xazon boʻladi.

7 Sening gʻazabingdan adoyi tamom boʻldik,
Qahringdan biz vahimaga tushdik.
8 Gunohlarimizni Sen oldingga keltirding,
Yashirin gunohlarimizni nurlaring yoritib turadi.

9 Kunlarimiz Sening gʻazabing ostida oʻtadi,
Yillarimiz bir oh kabi, tez nihoyasiga yetadi.
10 Kunlarimiz yetmish yil ekan,
Agar bardam boʻlsak, sakson yil ekan.
Eng ajoyib yillar zahmat, jafo bilan kecharkan,
Umrimiz tez oʻtar, oʻzimiz uchib ketarmiz.

11 Sening gʻazabing qudratini kim bila olar?!
Qahring, Oʻzingga loyiq qoʻrquv kabi buyukdir.
12 Umrimiz kunlarini sanashni bizga oʻrgatgin,
Toki biz dono qalbga ega boʻlaylik.

13 Kel, ey Egam! Qachongacha kutamiz?!
Oʻz qullaringga shafqat qilgin!
14 Saharda sodiq sevging bilan bizni qondirgin,
Umrimiz boʻyi qoʻshiq aytib, xursand boʻlaylik.

15 Kulfatlar koʻrdik koʻp kunlar,
Bizni qaygʻuga giriftor qilding qancha yillar,
Oʻsha kunlar evaziga bizni xursand qil.
16 Biz, Oʻz qullaringga qudratli ishlaringni koʻrsatgin,
Bizning naslimiz ulugʻvorligingni koʻrsin.
17 Ey Rabbimiz Xudo, lutf–karaming bizga yor boʻlsin,
Qilgan ishimiz baroridan kelsin,
Ha, ishlarimizga baraka bergin!

## 90–SANO

1 Xudoyi Taolo panohida yashaydiganlar
Qodir Xudo soyasida orom topar.
2 Men Egamga shunday deyman:
“Sen panohimsan, qal’amsan,
Men umid bogʻlagan Xudoyimsan.”

3 Albatta U xalos etar seni ovchining tuzogʻidan,
Xalos etar seni qirgʻin keltiruvchi vabodan.
4 Seni U qanotlari ostiga olar,
Uning panohida bexatar boʻlasan,
Sadoqati bilan senga qalqon, devor boʻlar.
5 Shunda qoʻrqmaysan tunning vahimasidan,
Qoʻrqmaysan kunduzi uchgan oʻqdan,
6 Zulmatda bildirmay keladigan vabodan,
Qoq peshinda qirgʻin keltiruvchi oʻlatdan.

7 Mingtasi chap yoningda yiqilib qoladi,
Oʻn mingtasi oʻng yoningda yiqilib qoladi,
Ammo bu kulfatlar senga yaqin kelmaydi.
8 Faqat koʻzlaringni och, shunda koʻrasan
Fosiqning qanday jazo olganini.

9-10 Agar Egamizni panohing qilsang,
Boshingga biron baxtsizlik kelmas.
Xudoyi Taoloni qoʻrgʻoning qilsang,
Biron falokat chodiringga yoʻlamas.
11 U sen toʻgʻringda farishtalariga amr beradi,
Farishtalar hamma yoʻllaringni qoʻriqlaydi.
12 Oyogʻing toshga qoqilib ketmasin deya,
Farishtalar qoʻllarida seni koʻtarib boradi.
13 Sher va zaharli ilon* ustidan bosib oʻtasan,
Yirtqich sher, ilonni oyogʻing bilan ezasan.

14 Egamiz shunday deydi:
“U Meni yaxshi koʻrgani uchun

Men uni qutqaraman.
Meni bilgani uchun
Men uni himoya qilaman.
15 U iltijo qilganda Men javob beraman,
Og‘ir kunlarida u bilan birga bo‘laman,
Uni qutqarib, unga izzat ko‘rsataman.
16 Uzoq umr berib, uni mamnun qilaman,
Unga najot beraman.”

## 91–SANO

1 *Sano. Shabbat kuni aytilgan qo‘shiq.*

2 Ey Egam, Senga shukur aytmoq yaxshidir,
Ey Xudoyi Taolo, Senga hamdu sano kuylamoq
yaxshidir.
3 E’lon qilmoq yaxshidir subhidamda sodiq
sevgingni,
E’lon qilmoq yaxshidir kechalari sadoqatingni.
4 Yaxshidir aytmoq bularni musiqa chalib
O‘n torli asbobda, lirada, arfa jo‘rligida!
5 Ey Egam, qudratli ishlaringdan men shodman,
Qilgan ishlaringdan xursand bo‘lib kuylayman.

6 Ey Egam, ishlaring naqadar buyukdir!
O‘ylaring juda ham terandir!
7 Aqlsiz kimsa buni bila olmaydi,
Ahmoq kimsa buni tushuna olmaydi:
8 Garchi fosiqlar maysa kabi unib chiqsa ham,
Badkirdorlar gullab–yashnasa ham,
Ular to abad yo‘q bo‘ladi.
9 Sen–chi, ey Egam, to abad ulug‘vorsan.
10 Ey Egam, dushmanlaring albatta yo‘q bo‘ladi,
Ular shubhasiz halok bo‘ladi.
Badkirdorlarning hammasi tarqalib ketadi.
11 Meni yovvoyi buqaday kuchli qilding,
Qudrating bilan menga qaytadan kuch ato etding*.
12 Dushmanlarim mag‘lubiyatin ko‘zlarim ko‘rdi,
Badkirdorlar zavolin quloqlarim eshitdi.

13 Solihlar palma daraxtiday gullab–yashnaydi,
Lubnondagi sadr daraxtiday* yuksaladi.
14 Ular Egamizning uyiga o‘tqazilgan,
Xudoyimizning hovlisida ular yashnaydi.
15 Keksalikda ham hamon hosil beradi,
Yam–yashil, navqiron bo‘lib turaveradi.

16 Ular birgalikda shunday deb e'lon qiladi:
"Egamiz odildir! U mening suyangan qoyamdir,
Unda nohaqlik yo'qdir."

## 92–SANO

1 Egamiz Shohdir, U ulug'vorlikka burkangan,
Ulug'vorlikka burkanib, qudrat bilan qurollangan.
Olamni mustahkam o'rnatgan, olam aslo tebranmas.

2 Sening taxting qaror topgan azaldan,
Sen O'zing mavjudsan azaldan.
3 Dengizlar guvullamoqda, ey Egam,
Dengizlar hayqirmoqda, ey Egam,
Dengizlar to'lqinlarini ko'tarmoqda.
4 Yuksakdagi Egamiz dengiz to'lqinlaridan ham
qudratliroqdir,
Bahaybat suvlarning pishqirishidan ham
qudratliroqdir.
5 Sening farmonlaring sobitdir,
Uyingga muqaddaslik ziynatdir
Abadulabad, ey Egam!

## 93–SANO

1 Ey Egam, Sen qasoskor Xudosan,
Ey qasoskor Xudo, nuringni soch!
2 Qani, bo'l, ey yer yuzini hukm etguvchi,
Mag'rurlarning jazosini ber.
3 Qachongacha fosiqlar tantana qilar?
Ey Egam, qachongacha?

4 Og'izlaridan balandparvoz so'zlar otilib chiqyapti–
ku!
Hamma badkirdorlar maqtanyapti–ku!
5 Ey Egam, ular xalqingni ezyapti,
O'zing tanlagan elatingga zulm qilyapti.
6 Beva, musofirni ular o'ldiryapti,
Yetimlarni yo'q qilyapti.
7 Ular aytyapti: "Egamiz ko'rmas,
Yoqubning Xudosi e'tibor bermas."

8 Tushunib oling, ey xalq orasidagi tentaklar.
Qachon sizlarga aql kirar, ey ahmoqlar?!
9 Quloqni yaratgan eshitmaydimi?!
Ko'zni ato etgan ko'rmaydimi?!
10 Xalqlarga tanbeh beruvchi jazolamaydimi?!

Uning O‘zi insonga o‘rgatadi–ku!
11 Egamiz insonning niyatini anglaydi,
Niyatlarimiz behudaligini biladi.

12 Ey Egam, baxtlidir Sening tanbehingni olganlar,
Baxtlidir Sening qonuningdan o‘rganuvchilar.
13 Yomon kunlardan ularni Sen omon saqlaysan.
Fosiq uchun chuqur qazilguncha ular omon
bo‘ladilar.
14 Ey Egam, O‘z xalqingni tark etmaysan,
O‘zing tanlagan elatingni tashlab qo‘ymaysan.
15 Hukmning asosi yana adolat bo‘ladi,
Jamiki pokdillar adolatni qo‘llab–quvatlaydi.

16 Fosiqlardan kim meni himoya qiladi?
Badkirdorlarga qarshi kim men tomon bo‘ladi?
17 Ey Egam, agarda Sen menga yordam
bermaganingda,
Mening jonim tezda o‘lim sukunatiga cho‘kardi.
18 “Oyoqlarim qoqiladi”, deb o‘ylaganimda,
Ey Egam, sodiq sevging meni qo‘lladi.
19 Ichim xavotirga to‘lib ketganda,
Sen bergan tasalli menga quvonch keltirdi.

20 Zolim hukmdorlar Xudoga sherik bo‘larmi?!
Axir, ular farmonlari bilan kulfat keltiradi–ku!
21 Ular solihlarga qarshi birlashadi,
Gunohsizlarni o‘limga mahkum etadi.
22 Ammo Egam mening qal’amdir,
Mening panoh qoyam Xudodir.
23 Fosiqligi uchun Egamiz ularni qirib tashlaydi,
Gunohlari uchun jazosini beradi.
Ha, Egamiz Xudo ularni ildizidan quritadi.

## 94–SANO

1 Kelinglar, sevinch ila Egamizni kuylaylik,
Najotimiz Qoyasiga shodlik ila hayqiraylik.
2 Shukrona aytib, Uning huzuriga boraylik,
Unga qo‘shiqlar aytib, shodlikdan hayqiraylik.
3 Zotan, Egamiz ulug‘ Xudodir,
Jamiki xudolar ustidan ulug‘ Shohdir.
4 Zaminning eng chuqur joylari Uning qo‘lidadir,
Tog‘larning cho‘qqilari ham Unikidir.
5 Unikidir O‘zi yaratgan dengiz ham,
Qo‘li barpo qilgan quruq yer ham.

6 Kelinglar, ta’zim qilib, sajda etaylik,
Yaratgan Egamiz oldida tiz cho‘kaylik.
7 U Xudoyimizdir, biz Uning yaylovidagi xalqmiz,
Biz Uning qo‘l ostidagi qo‘ylarmiz.

Egamiz shunday deydi:
“Qaniydi, bugun Mening ovozimga quloq solsangiz!
8 Otalaringiz kabi tosh yurak bo‘lmanglar.
Marivada, sahrodagi Massaxda* ular qilgan ishni
qilmanglar.
9 Otalaringiz Mening ishlarimni ko‘rsa ham,
U yerda Meni sinab ko‘rdilar.
10 Qirq yil u nasldan nafratlanib*,
Shunday dedim: «Bu xalq Mendan yuz o‘giradi,
Amrlarimga bo‘ysunishdan bosh tortadi.»
11 Shu bois g‘azablanib, ont ichdim:
«Ular farog‘at diyorimga kirmaydi», dedim*.”

## 95–SANO

1 Ey olam, Egamizni tarannum eting!
Egamizga yangi bir qo‘shiq ayting.
2 Egamizni tarannum eting,
Unga olqishlar bo‘lsin,
Uning bergan najotidan har kuni so‘ylang.
3 E’lon qiling elatlar orasida Uning shuhratini,
Jamiki xalqlar orasida Uning ajoyibotlarini.
4 Egamiz buyukdir, ko‘p maqtovga loyiqdir,
Jamiki xudolardan U izzatlidir.
5 Zotan, xalqlarning hamma xudolari butlardir,
Egamiz esa samolarni yaratgandir.
6 Shuhratu ulug‘vorlik Uning huzuridadir,
Qudratu go‘zallik Uning muqaddas maskanidadir.

7 Egamizga hamdlar ayting, ey zamin xalqlari!
Egamizning qudratiyu shuhratiga hamdlar o‘qing!
8 Egamizning sharafiga sanolar ayting!
Nazrlar keltirib, Uning hovlisiga kiring!
9 Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda
qiling!*
Ey zamin ahli, Uning oldida titrab turing!
10 Elatlar orasida aytingki: “Egamiz Shohdir!
Olam mustahkam o‘rnashgan, hech qachon
tebranmaydi,
U xalqlarni haqqoniy hukm qilar.”

11 Samolar shod bo‘lsin, zamin quvonsin,
Dengizu undagi hamma jonzot guvullasin.
12 Dalalaru undagi har narsa sevinch ila jo‘shsin,
O‘rmondagi hamma daraxt shodlikdan qo‘shiq
aytsin.
13 Egamiz oldida ular qo‘shiq aytar, ana, U kelayotir,
Zaminni boshqarmoq uchun U kelayotir,
Olamni adolat ila U boshqarar,
Xalqlarni O‘z haqiqati ila boshqarar.

## 96–SANO

1 Egamiz Shohdir, zamin quvonsin,
Dengiz ortidagi hamma yurtlar shod bo‘lsin.
2 Bulutlar, zimziyo zulmat Uning atrofini o‘ragan,
Adolatu haqiqat Uning taxtiga poydevor bo‘lgan.
3 Egamiz olovini O‘zidan oldin yuboradi,
Olovi har tarafdagi dushmanlarni yutadi.
4 Chaqmoqlari olamni yoritadi,
Zamin buni ko‘rib titraydi.
5 Butun olamning Rabbiysi oldida,
Egamiz oldida tog‘lar mumday eriydi.

6 Samolar e’lon qiladi Uning adolatini,
Jamiki xalqlar ko‘radi Uning ulug‘vorligini.
7 Butlarga sajda qiluvchilar,
Behuda sanamlari ila maqtanuvchilar
Sharmanda bo‘ladi.
Barcha xudolar Egamizga ta’zim qiladi.

8 Ey Egam! Sening adolatingdan
Yahudo shaharlari shod bo‘ladi,
Quddus* eshitib, quvonadi.
9 Ey Egam, yer yuzidagi buyuk hukmdor Sensan,
Hamma xudolardan Sen yuksalgansan.

10 Ey Egamizni sevganlar!
Yomonlikdan nafratlaning.
U taqvodorlarining jonlarini O‘zi asraydi,
Fosiqlarning qo‘lidan ularni xalos etadi.
11 Solihlarga nur sochilgay,
Yuragi poklar uzra shodlik yoyilgay.
12 Ey solihlar, Egamiz tufayli shodlaning,
Uning muqaddas nomini olqishlang!

## 97–SANO

*Sano.*

1 Yangi bir qo‘shiq ayting Egamizga!
Axir, U ajoyib ishlar qildi.
O‘zining o‘ng qo‘li, muqaddas bilagi bilan zafar
qozondi.
2 Egamiz zafarining dong‘ini taratdi,
Xalqlarga najotini namoyon qildi.
3 Isroil xalqiga bo‘lgan sevgisiyu sadoqatini yodida
tutdi.
Yerning to‘rt tomoni Xudoyimiz bergan najotni
ko‘rdi.

4 Ey zamin ahli, Egamizni olqishlab, xitob qiling,
Sevinchli kuy–qo‘shiqlar ila Unga xitob qiling.
5 Lira chalib, Egamizga hamdu sano kuylang,
Lira chalib, qo‘shiqlar ayting.
6 Karnayu burg‘ularni chaling,
Shohni — Egamizni olqishlab, xitob qiling.

7 Jo‘sh ursin dengizu undagi hamma jonzot,
Jo‘sh ursin olamu unda yashovchi hamma maxluqot.
8 Egamiz oldida daryolar qarsak chalsin,
Qirlar birga shodlanib qo‘shiq aytsin.
9 Zotan, Egamiz yerda hukm etgani kelmoqda,
U olamni to‘g‘ri hukm etadi,
Adolat ila xalqlarni hukm qiladi.

## 98–SANO

1 Egamiz Shohdir, xalqlar titrasin!
Karublar orasida taxt qurgan U!
Zamin larzaga kelsin!
2 Egamiz Quddusda* ulug‘dir,
Jamiki xalqlar uzra yuksakdadir.
3 Uning nomi ulug‘, haybatlidir!
Hamma Uni madh qilsin,
Zero, muqaddasdir U!

4 Shoh qudratlidir, adolatparvardir,
U odillikni o‘rnatgan!
Yoqub nasli orasida
Adolatli va to‘g‘ri hukm chiqargan!
5 Egamiz Xudoni ulug‘langlar!
Uning poyiga sajda qilinglar.

Zero, muqaddasdir U!

6 Muso va Horun Uning ruhoniylaridan edi,
Shomuil ham Egamizga iltijo qilganlardan biri edi.
Ular Egamizga iltijo qildi, U javob berdi.
7 Ustun shaklidagi bulut ichra ular bilan gaplashdi,
Ular Egamizning farmonlariga
Hamda U bergan qonunlariga rioya qilardi.

8 Ularga javob berding, ey Egamiz Xudo!
Sen ularni kechiruvchi Xudo boʻlding,
Ularni jazolading yomon yoʻldan ketganlarida.

9 Ulugʻlanglar Egamiz Xudoni!
Sajda qiling Unga muqaddas togʻida*.
Zero, muqaddasdir Egamiz Xudo!

## 99–SANO

*Shukronalik sanosi.*

1 Ey zamin ahli, Egamizga shodlik ila hayqiring,
2 Xursand boʻlib Egamizga sajda qiling,
Shodlanib, qoʻshiq aytib, Uning huzuriga keling.

3 Bilingki, Egamiz Xudodir,
Bizni yaratgan Udir, biz Unikimiz.
Biz Uning xalqimiz, yaylovidagi qoʻylarimiz.

4 Shukrona aytib, darvozalaridan kiring,
Hamdu sano aytib, hovlilariga kiring.
Shukrona aytib, Uning nomini olqishlang!

5 Egamiz yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiy davom etadi,
Sadoqati esa barcha nasllarga oʻtadi.

## 100–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Sadoqatingni, adolatingni kuylayman,
Seni, ey Egam, tarannum etaman.
2 Benuqson hayot kechirishni oʻrganaman,
Qachon bunga erishaman?

Pok yurak ila oʻz uyimda umr kechiraman.
3 Hech qanday yovuzlikka yoʻl qoʻymayman.
Qingʻir ishlardan nafratlanaman,

Men ularga hech qoʻshilmayman.
4 Ters ishlarni rad qilaman,
Yomonlik mendan uzoq boʻladi.
5 Doʻsti ortidan gʻiybat qiladiganni yoʻq qilaman,
Takabburlik bilan qaraydigan koʻzlarga,
Magʻrur yurakka aslo toqat qilmayman.

6 Yonimda istiqomat qilsinlar deya,
Yurtimning sodiq odamlariga xayrixoh boʻlaman.
Toʻgʻri yoʻldan yuradigan inson
Menga xizmat qiladi.
7 Hiylagarlar mening saroyimda qolmaydi,
Yolgʻonchilar qarshimda turmaydi.
8 Har saharda yurtdagi fosiqlarni qiraman,
Ey Egam, Sening shahringdan badkirdorlarni yoʻq
qilaman.

## 101–SANO

1 *Dard–alamga botganda, arzini Egamiz oldiga*
*toʻkkan gʻaribning ibodati.*

2 Eshitgin ibodatimni, ey Egam,
Yetib borsin Senga ohu nolam.
3 Kulfatda qolganimda mendan yuz oʻgirma,
Menga quloq tutgin.
Chaqirganimda menga tez javob bergin.
4 Umrim tutunday oʻtib ketdi,
Isitmadan butun tanam yonib ketyapti.
5 Yuragim qurigan oʻtday xazon boʻldi,
Biror narsa yeyishga istak yoʻqoldi.
6 Faryod qilib oh–nola chekaman,
Shu bois etim suyagimga yopishgan.
7 Dashtdagi qushga oʻxshayman,
Vayronadagi boyoʻgʻli kabidirman.
8 Bedor boʻlib yotaman,
Tomda yolgʻiz qolgan qushga oʻxshayman.
9 Gʻanimlarim doimo meni haqorat qiladi,
Meni masxaralovchilar
Ismimni laʼnat oʻqish uchun ishlatadi.
10 Kulni non kabi yemoqdaman,
Ichimligimga koʻz yoshlarimni qoʻshmoqdaman.
11 Sening qahru gʻazabing tufayli shunday qilyapman,
Axir, meni koʻtarib, bir yonga uloqtirding.
12 Oqshomgi koʻlankaga oʻxshaydi umrim,
Qurigan maysaday boʻlib qoldim.

13 Sen esa, ey Egam, to abad oʻtirasan taxtingda,
Nasllar osha Sening noming davom etar!
14 Qoʻzgʻalib, shafqat koʻrsatasan Quddusga*,
Unga marhamat koʻrsatish vaqti keldi,
Belgilangan vaqti–soati yetib keldi.
15 Uning toshlari ham Sening qullaring uchun
qimmatbahodir,
Quddusning hatto tuprogʻiga ham mehribonlik
qilamiz.

16 Xalqlar Egamizdan qoʻrqadi,
Uning shuhratidan yer yuzi shohlari titraydi.
17 Zero, Egamiz Quddusni barpo qiladi,
Oʻzining shuhrati ila zohir boʻladi.
18 Yoʻqsillarning ibodatiga U e'tibor beradi,
Ularning iltijolarini rad etmaydi.

19 Hali tugʻilmagan xalq ham Egamizga hamdu sano
aytsin,
Kelajak nasl uchun bu yozib qoʻyilsin:
20-21 Asirlarning nolasiga quloq solay deb,
Egamiz yuksakdagi muqaddas makonidan qaradi.
Oʻlimga mahkum boʻlganlarni qutqaray deb,
U osmondan zaminga nazar tashladi.
22 Shu bois Egamizning dongʻi Quddusda e'lon
qilinsin,
Unga Sionda hamdu sano aytilsin.
23 Egamizga birga sajda qilgani
Xalqlaru shohliklar yigʻiladi.

24 Hali yosh paytimda Egam meni zaif qildi,
Kunlarimni Uning Oʻzi qisqartirdi.
25 Unga faryod qildim: "Ey Xudoyim,
Yosh umrimni xazon qilmagin,
Barcha nasllar osha Sen doimo borsan.
26 Azalda zaminning poydevorini* Sen qoʻygansan,
Samolarni Oʻz qoʻllaring ila yaratgansan.
27 Ular yoʻq boʻlib ketar, Sen turaverasan,
Yeru osmon kiyim kabi eskirib ketadi,
Toʻzib ketgan kiyimday ularni almashtirasan,
Hammasini tashlab yuborasan.
28 Sen esa hech oʻzgarmassan,
Sen to abad yashaysan.
29 Qullaringning farzandlari xavfsiz yashar,
Ularning nasli Sening huzuringda barqaror boʻlar."

# 102–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egamizni olqishlagin, ey jonim,
Uning muqaddas nomini olqishla, ey vujudim!
2 Egamizni olqishlagin, ey jonim,
Uning qilgan hamma yaxshiliklarini unutmagin!
3 Hamma gunohlarimni U kechiradi,
Barcha xastaliklarimga U shifo beradi.
4 Meni qabrdan U qutqaradi,
Sevgi, shafqat ila menga toj kiygizadi.
5 Hayotimni* ne'mat ila U qondiradi,
Yoshligim burgutning kuchiday yangilanadi.

6 Egamiz to'g'ri ish qiladi,
Mazlumlarga adolat qiladi.
7 O'z yo'llarini U Musoga ma'lum qilgan,
Ishlarini Isroil xalqiga namoyon etgan.
8 Egamiz rahmdil, inoyatlidir,
Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo'ldir.
9 U doimo bizni ayblamaydi,
Yoki to abad g'azabini sochmaydi.
10 Bizni U gunohlarimizga qarab jazolamas,
Yomonliklarimizga qarab qaytarmas.
11 Samolar zamindan naqadar balanddir!
Egamizning sodiq sevgisi ham
Undan qo'rqqanlarga shunday yuksakdir!
12 Sharq g'arbdan qanchalik uzoq bo'lsa,
Gunohlarimizni bizdan shu qadar uzoq qiladi.
13 Ota bolalariga shafqat qilganday,
Egamiz O'zidan qo'rqqanlarga rahm qiladi.
14 Biz qanday yasalganimizni U biladi,
Biz tuproq ekanimizni* U yodida tutadi.

15 Insonmiz, maysaga o'xshar umrimiz,
Dasht guliga o'xshab gullaymiz.
16 Shamol esar, maysa yo'q bo'lar,
Uni o'z joyi eslamay qo'yar.
17 Ammo Egamizning sodiq sevgisi
Abadulabad Undan qo'rqqanlar bilan birgadir!
Uning sodiqligi esa ularning nasliga o'tadi.
18 Ha, Egamiz sodiq qoladi Uning ahdiga rioya
qilganlarga,
Uning amrlariga sadoqat ila itoat etganlarga.

19 Egamiz taxtini oʻrnatgandir samoda,
Uning shohligi hukmrondir hamma yerda.
20 Egamizni olqishlang, ey Uning farishtalari,
Uning amrini ijro qiluvchi bahodirlar,
Uning soʻzlariga itoat etuvchilar!
21 Ey Egamizning samoviy lashkarlari!
Uning irodasini ijro etuvchi xizmatkorlari!
Egamizni olqishlang!
22 Ey Egamiz yaratganlarning hammasi!
U hukmron boʻlgan har bir joyda
Uni olqishlanglar!
Ey jonim! Egamizni olqishla!

## 103–SANO

1 Egamni olqishla, ey jonim.

Ey Egam Xudo! Sen naqadar buyuksan,
Shuhratu ulugʻvorlikka burkangansan.
2 Yopinchiqqa oʻralganday nurga chulgʻangansan,
Samolarni bir chodir kabi yoygansan.
3 Osmondagi suvlar* uzra dargohingni qurgansan,
Bulutlarni jang aravasi qilasan,
Shamol qanotlarini minib ketasan.
4 Shamollarni Oʻzingga xabarchilar qilasan,
Lovullagan olovni xizmatkorlaring etasan.

5 Hech qachon tebranmasin deya,
Sen zaminning poydevorini* qoʻygansan,
6 Zaminni libosga oʻraganday,
Tubsiz suvlar ila oʻragan eding,
Hatto togʻlar choʻqqisini suvlar koʻmgan.
7 Sening tahdidlaringdan suvlar chekinar,
Sen gumburlatgan sadodan ular qochar.
8 Suvlar togʻlar ustidan, vodiy boʻylab oqar
Sen ular uchun tayin etgan joyga.
9 Bu suvlar toshmasin deb,
Yana yer yuzini qayta qoplamasin deb,
Sen chegara qoʻygansan!

10 Buloqlarni toshirding Sen soyliklardan,
Buloqlar oqib kelar togʻlar orasidan.
11 Jamiki yovvoyi hayvonlarni buloqlar sugʻoradi,
Yovvoyi eshaklar tashnaligini qondiradi.
12 Oqar suvlar boʻyida qushlar in quradi,
Shoxlar orasidan ular sayraydi.

13 Tog‘larni sug‘orasan yuqoridagi dargohingdan.
Zamin to‘la Sen o‘stirgan meva bilan.

14 Chorva uchun Sen o‘t–o‘lan o‘stirasan,
Inson foydalansin deb, ekinlar o‘stirgansan,
Yeguligini tuproqdan olsin, deysan.
15 Sen berasan inson ko‘nglini chog‘ qiluvchi
sharobni,
Yuzga jilo beruvchi zaytun moyini,
Inson hayotiga quvvat beruvchi nonni.
16 Ey Egam, Sening daraxtlaring,
Ha, O‘zing Lubnonda ekkan sadr daraxtlaring*
Suvga yaxshi qonadi.
17 Qushlar daraxtlarda uya quradi,
Sarv daraxtida laylak uy qiladi.
18 Tog‘ echkisi baland tog‘larda yashar,
Bo‘rsiqlar esa qoyalarda uya qurar.
19 Vaqtni belgilasin deb, oyni yaratding,
Quyosh ham biladi qachon botishin.
20 Qorong‘ilik cho‘ktirganingda, tun bo‘lar,
O‘rmondagi bor hayvon kezgani chiqar.
21 Sherlar o‘lja axtarib bo‘kirar,
O‘z rizq–ro‘zini, ey Xudo, Sendan izlar.
22 Quyosh chiqar, ular ortga qaytarlar,
O‘zlarining inlarida yotarlar.
23 Odamlar o‘z ishlariga chiqarlar,
Oqshomgacha yumushlari ila band bo‘larlar.

24 Ey Egam, ishlaring g‘oyat turli–tumandir!
Hammasini donolik ila yaratgansan,
Zamin Sen yaratganlaring ila to‘ladir.
25 Mana, buyuk, bepoyon dengiz,
Son–sanoqsiz yaratilganlar bilan to‘la,
Katta–kichik jonivorlar bor.
26 Kemalar dengizlarda qatnaydi.
Suvlarda o‘ynasin deya,
O‘sha maxluq Levitanni* yaratgansan.

27 Ey Egam! O‘z vaqtida rizqimizni bersin deya,
Ularning hammasi Senga ko‘z tikadi.
28 Ularga rizqini berganingda, yig‘ib oladi,
Qo‘llaringni ochganingda, ular yeb to‘yadi.
29 Yuzingni yashirganingda esa ular vahimaga
tushadi,
Jonlarini olganingda, o‘lib, tuproqqa qaytadi.

30 Ruhingni* yuborganingda ular yaratiladi,
Yer yuziga yangidan hayot berasan.

31 Egamizning shuhrati to abad davom etsin,
Egamiz O‘z yaratganlaridan xursand bo‘lsin.
32 Yerga U boqqanda, yer titrar,
Tog‘larga tekkanda, tog‘lar tutun chiqarar.
33 Hayot ekanman, Egamni tarannum etaman,
Bor ekanman, Xudoyimga hamdu sano kuylayman.
34 U haqidagi o‘ylarim xush kelsin Unga,
Zotan, sevinaman men Egam tufayli.
35 Yer yuzidan yo‘q bo‘lsin gunohkorlar,
Bo‘lmasin boshqa endi fosiqlar.

Egamni olqishla, ey jonim!
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 104–SANO

1 Egamizga shukur ayting, Unga sajda qiling,
Boshqa xalqlar orasida Uning ishlarini bildiring.
2 Tarannum qilib Uni, hamdu sano ila qo‘shiq ayting,
Uning jamiki ajoyib ishlarini so‘zlab bering.
3 Egamizning muqaddas nomi ila faxrlaning,
Egamizga yuz burganlarning qalbi shodlikka to‘lsin.
4 Qudratli Egamizga yuz buring!
Uning huzurida bo‘lishga intiling.
5-6 Ey sizlar, Egamizning quli Ibrohim nasli,
Ey Yoqub o‘g‘illari — Egamizning tanlaganlari,
Egamiz qilgan ajoyibotlarini esda tuting,
Uning mo‘jizalarini, chiqargan hukmlarini unutmang.

7 U Egamiz Xudodir,
U butun yer yuzini adolatli hukm qiladi.
8 O‘z ahdini U to abad yoddan chiqarmas,
Minglab nasllarga bergan va’dasini unutmas.
9 Rioya qilar U Ibrohim bilan qilgan ahdiga,
Is’hoqqa qasam ichib bergan va’dasiga.
10 Yoqub uchun bu ahdni bir qonun qildi,
Ha, Isroil uchun abadiy bir ahd qildi.
11 Aytdiki*: “Kan’on yurtini senga beraman,
Uni o‘zingga abadiy mulk qilib olasan.”

12 O‘sha vaqtda ularning soni kam edi,
Ha, juda kamchilik edilar.
Ular bu yurtga kelgindi edi.

13 Kezardi bir xalq orasidan boshqasiga,
Bir shohlikdan boshqa yurtga.
14 Egamiz hech kimga ularni ezishlariga yo‘l
qo‘ymadi,
Ularni deb shohlarga tanbeh berdi.
15 Aytdiki: “Men tanlaganlarga tegmanglar,
Payg‘ambarlarimga* zarar keltirmanglar.”

16 Kan’on yurti ustiga Egamiz ocharchilik yubordi,
Bitta qoldirmay yeguliklarga qirg‘in keltirdi.
17 Ulardan oldin odam yubordi,
Ha, Yusuf* qul kabi sotildi.
18 Uning oyoqlariga zanjir urildi,
Bo‘ynidan temir halqa o‘tkazildi.
19 Yusufning so‘zlari bajo bo‘ladigan vaqt kelguncha,
Egamizning kalomi Yusufni sinadi.
20 Misr shohi odam yuborib, Yusufni qutqardi,
Ellarning hukmdori uni ozod qildi.
21 Yusufni shoh saroyining boshqaruvchisi qilib tayin
etdi,
Jamiki mulkining hokimi qildi.
22 Xohlasa saroydagi a’yonlarimni zanjirband qilsin*,
Maslahatchilarimga donolik ila o‘git bersin deb,
shunday qildi.

23 So‘ngra Isroil Misrga keldi,
Ha, Yoqub nasli Xom yurtida* musofir bo‘ldi.
24 Uning xalqini Egamiz barakali qildi,
Dushmanlariga qaraganda, ko‘paytirdi.
25 Egamiz Misr xalqining yuraklarini o‘zgartirdi,
Ular Egamiz xalqidan nafratlandi,
Egamizning qullariga qarshi ular fitna uyushtirdi.

26 So‘ngra Egamiz quli Musoni yubordi,
Tanlab olgan Horunni birga jo‘natdi.
27 Misrliklar orasida, o‘sha Xom yurtida
Ikkalasi Egamizning mo‘jizalarini, ajoyibotlarini
ko‘rsatdi*.
28 Egamiz zulmat yubordi, Misrni zulmatga burkadi,
Axir, Misrliklar Egamizning amrlariga itoatsizlik
qildi*.
29 Misrning suvlarini Egamiz qonga aylantirdi,
Jamiki baliqlarini nobud qilib tashladi.
30 Misr yurti to‘lib ketdi qurbaqalarga,
Yetib bordi hatto hukmdorlarning uyiga.

31 Egamiz amr berganda, so‘nalar galasi keldi,
Misr bo‘ylab burgalar qaynab ketdi.
32 Yomg‘ir o‘rniga ularga Egamiz do‘l yog‘dirdi,
Butun Misr bo‘ylab chaqmoq chaqtirdi.
33 Uzumzoru anjirzorlarini quritdi,
Misrdagi daraxtlarni qo‘porib tashladi.
34 Egamiz amr berganda, chigirtkalar* keldi,
Son–sanoqsiz mayda chigirtkalar chiqib keldi.
35 Ular Misrdagi butun o‘t–o‘lanni yeb yubordi,
Misr o‘lkasidagi hosilni yeb bitirdi.
36 Misrdagi jamiki to‘ng‘ich o‘g‘illarni Egamiz nobud qildi,
Ha, ularning faxri, qut–baraka timsolini yo‘q qildi.

37 So‘ng Egamiz O‘z xalqini
Oltinu kumushga boyitib* olib chiqdi.
Isroil qabilalarining orasida qoqilib qolgani bo‘lmadi.
38 Misrliklar Isroildan qo‘rqib, vahimaga tushgandi,
Ular ketgach, Misr xalqi sevindi.
39 Xalqi ustida yopinchiq bo‘lsin deb,
Egamiz bulutni yoydi,
Kechasi yorug‘lik bo‘lsin deb, alanga berdi*.
40 Isroil go‘sht so‘raganda Egamiz bedanalar berdi,
Osmondan non yog‘dirib, ularni to‘yg‘azdi*.
41 Egamiz qoyani ochdi, suv otilib chiqdi*,
Sahro bo‘ylab daryoday suv oqdi.
42 Egamiz O‘zining muqaddas va’dasini,
O‘z quli Ibrohimga bergan va’dasini yodda tutdi.
43 Shu bois xalqini olib chiqdi sevinch ila,
O‘z tanlaganlarini shodlik hayqiriqlari ila.
44 Begona xalqlarning yurtlarini ularga berdi,
O‘sha xalqlarning boyligini Isroil mulk qilib oldi.
45 “Isroil xalqi Mening farmonimga rioya qilsin,
Mening qonunlarimga itoat etsin”, deya
Egamiz mana shularning hammasini qildi.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 105–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir!
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
2 Egamizning qudratli ishlarini kim batafsil ayta oladi?!

Kim Unga mukammal hamdu sano ayta oladi?!
3 Baxtlidir adolat ila ish tutganlar,
Har doim to‘g‘ri ish qilganlar.

4 Ey Egam, xalqingga muruvvat ko‘rsatganingda meni
eslagin,
Ularga najot berganingda, menga ham yordam
bergin,
5 Toki tanlagan xalqingning iqbolini ko‘rayin,
Xalqingning shodligini ko‘rib, men ham quvonayin,
Ular bilan birga faxrlanib yurayin.

6 Ey Isroil xalqi, ota–bobolarimiz kabi, biz gunoh
qildik,
Egri yo‘ldan yurdik, yomonlik qildik.
7 Ota–bobolarimiz Misrda bo‘lganlarida,
Egamizning ajoyib ishlariga e’tibor qilmadilar,
Uning mo‘l sodiq sevgisini eslamadilar,
Qizil dengizda* isyon qildilar.
8 Qudratli kuchini bildirish uchun,
O‘z nomi haqi,
Egamiz ularni qutqardi.
9 U Qizil dengizga do‘q urdi, dengiz quridi.
Qup–quruq yerdan yetaklaganday,
Isroil xalqini dengiz tubidan o‘tkazdi*.
10 Egamiz ularni yov qo‘lidan qutqardi,
G‘anim qo‘lidan ularni ozod qildi.
11 Suvlar qaytib, g‘animlarni bosib qoldi,
Dushmanlarning birontasi qutula olmadi.
12 Shunda Isroil xalqi Egamizning so‘ziga ishondi,
Unga hamdu sanolar kuyladi.

13 Ular tez orada Egamizning ishlarini unutdi,
Egamizdan bemaslahat ish qildilar.
14 Sahroda ular nafsi buzuqlik qildi,
Dashtu biyobonda ular Xudoni sinadi*.
15 Egamiz ularga so‘raganini berdi–yu,
Ularga halokatli xastalikni ham yubordi.

16 Qarorgohdagi xalq Musoga,
Egamizga bag‘ishlangan Horunga hasad qildi*.
17 Yer yorilib, Datanni yutib yubordi,
Aburam bilan sheriklarini yamlab yubordi.
18 Sheriklari ustiga olov tushdi,
O‘sha fosiqlarni alanga yondirdi.

19 Sinay tog‘ida* ular buzoq yasadilar,
O‘sha oltin butga sajda qildilar*.
20 Ular Xudoning ulug‘vorligini
O‘t yeydigan buqa tasviriga alishdilar.
21 Misrda buyuk ishlar qilgan
Najotkori Xudoni unutdilar.
22 Xom yurtida* Egamiz ajoyibotlar ko‘rsatgandi,
Qizil dengizda qo‘rqinchli ishlar qilgandi.
Ana shularni Isroil xalqi unutdi.
23 Shu bois Egamiz, ularni qiraman, dedi.
Ammo Muso, Egamizning tanlagani o‘rtaga tushib,
Egamizdan iltijo qilib,
Uni qahru g‘azabidan qaytardi.

24 So‘ngra ular maftunkor yurtni xor qildilar,
Egamizning va’dasiga ishonmadilar*.
25 O‘z chodirlarida ming‘irlab nolidilar,
Egamizga itoat etmadilar.
26 Egamiz qo‘lini ko‘tarib, ont ichdi:
“Sizlarni sahroda yakson qilaman.
27 Naslingizni xalqlar orasiga tarqataman,
Boshqa yurtlarga ularni sochib yuboraman.”

28 So‘ngra bizning ota–bobolarimiz
Piyor tog‘idagi Baalga sajda qilishga qo‘shildilar*,
O‘liklarga* keltirilgan qurbonlikdan yedilar.
29 Ular qilmishlari bilan
Egamizni g‘azablantirdilar,
Ular o‘latga giriftor bo‘ldilar.
30 Finxaz qo‘zg‘alib, aralashdi,
Shunda o‘lat ham to‘xtadi.
31 Shu bois Finxaz solihlik timsoli bo‘ldi,
Bu nasllardan nasllarga to abad davom etadi.

32 Mariva suvlari bo‘yida* ular Egamizning qahrini
keltirdilar,
Ularning dastidan Musoning boshiga qayg‘ular keldi.
33 Ular Musoning g‘azabini qo‘zg‘atdi,
Muso ham o‘ylamay gapirdi.

34 Egamiz, xalqlarni qiringlar, deb amr bergandi,
Ular Egamizning amrini bajarmadi.
35 Begona xalqlar bilan ular aralashib,
Ularning odatlarini o‘rgandilar.
36 Ular begona xalqlarning butlariga sajda qildilar,
O‘sha butlar Egamizning xalqiga tuzoq bo‘ldi.

37 Ular o‘zlarining o‘g‘il–qizlarini
Jinlarga qurbon qildilar.
38 Ha, o‘zlarining o‘g‘il–qizlarini
Kan’on butlariga qurbon qilib,
Begunoh qon to‘kdilar.
Ularning qoni yurtni harom qildi.
39 Ishlari bilan o‘zlarini bulg‘adilar,
Qilmishlari bilan Egamizga bevafolik qildilar.

40 Shunda Egamiz O‘z xalqidan g‘azablandi,
Ulardan jirkandi.
41 Ularni yot xalqlarning qo‘liga berdi,
G‘animlari ular ustidan hukmron bo‘ldi.
42 Dushmanlari ularni siquvga oldi,
Kuch bilan ularni bo‘yin egdirdi.
43 Ko‘p marta Egamiz ularni qutqardi,
Ular esa ataylab isyon qilgan edi,
Gunohlari tufayli past ketdilar.
44 Shunda ham Egamiz O‘z xalqining nolalarini
eshitib,
Ularning kulfatlariga e’tibor berdi.
45 Ular haqi O‘z ahdini yodida tutdi,
Mo‘l sodiq sevgisi bilan ularga shafqat ko‘rsatdi.
46 Ularni asir olganlarni
Shafqatli bo‘lishga undadi.

47 Ey Egamiz Xudo, bizlarni qutqar,
Xalqlar orasidan bizni to‘plab ol,
O‘zing muqaddassan, Senga shukur aytaylik,
Madhga loyiq ishlaring bilan faxrlanaylik.

48 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga
To abad olqishlar bo‘lsin,
Jamiki xalqlar: “Omin”, deb aytsin.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 106–SANO

1 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
2 Shunday desin Egamizdan najot topganlar,
U kulfatdan qutqargan odamlar.
3 Axir, Egamiz ularni sharqu g‘arbdan,
Shimolu janubdan* to‘plagan,
Ko‘p yurtlardan ularni yig‘ib kelgan.

4 Ba’zilari cho‘lu biyobonda tentirab yurdilar,
Yashash uchun biron shaharga yo‘l topmadilar.
5 Och, tashna holda qoldilar,
Sal bo‘lmasa o‘layozdilar.
6 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
7 Ular yashaydigan shaharga borgunga qadar,
Egamiz ularni to‘g‘ri yo‘ldan yetakladi.
8 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona aytsin!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsin!
9 Zotan, U qondirar tashna bo‘lganlarni,
To‘ydirar ne’matlar bilan ochlarni.

10 Ba’zilari zimziyo zulmatda o‘tirardilar,
Asir bo‘lib, kishanda azob chekardilar.
11 Ular Xudoning so‘zlariga qarshi isyon qilgandilar,
Xudoyi Taoloning yo‘l–yo‘riqlarini mensimadilar.
12 Shu bois Xudo ularni og‘ir ishlarga majbur etdi,
Ular yiqilganda, yordam berishga biron kimsa
bo‘lmadi.
13 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
14 Ularni zimziyo zulmatdan olib chiqdi,
Ularning kishanlarini parcha–parcha qildi.
15 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona
aytsin!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsin!
16 Zotan, U bronza darvozalarni sindirar,
Temir tambalarni ikkiga bo‘lib tashlar.

17 Ba’zilari ahmoq bo‘lib, itoatsizlik qildilar,
Gunohlari tufayli azobga duchor bo‘ldilar.
18 Har qanday ovqatdan jirkanar edilar,
O‘lim og‘ziga yaqinlashib qolgan edilar.
19 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
20 Egamiz gapirib, ularga shifo berdi,
Qabrdan ularni saqlab qoldi.
21 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona
aytsinlar!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsinlar!
22 Ular shukrona qurbonligini keltirsinlar,

Uning ishlarini shodon qo‘shiqlarda kuylasinlar.

23 Ba’zilari kemalarda dengizga chiqdilar,
Vahimali suvlar uzra savdo qildilar.
24 Ular Egamizning ishlarini,
Chuqur suvda Uning mo‘jizalarini ko‘rdilar.
25 U amr berganda, bo‘ron qo‘zg‘aldi,
Dengiz to‘lqinlari baland ko‘tarildi.
26 Kema osmonga ko‘tarilib, yana chuqur suvga
tushdi,
Falokatdan kemadagilar bemajol bo‘lib qoldi.
27 Ular mast kabi dovdirab aylandi,
Mahoratlari foyda bermadi.
28 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
29 U bo‘ronni shabadaga aylantirdi,
Dengiz to‘lqinlari sukutga cho‘mdi.
30 To‘lqinlar jim bo‘lganidan ular sevindi,
Istagan bandargohga* ularni keltirib qo‘ydi.
31 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona
aytsin!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsin!
32 Ular jamoa oldida Egamizni ulug‘lasin,
Oqsoqollar yig‘inida Unga hamdu sanolar aytsin.

33 Egamiz daryolarni sahroga aylantirar,
Buloqlarni qaqragan yerga aylantirar.
34 Aholisining fosiqligi sababli
Hosildor yerlarni sho‘r yerga aylantirar.
35 Sahroni esa Egamiz ko‘l qilar,
Qaqragan yerdan buloqlar chiqarar.
36 Och–yupunlarni u yerga olib kelib o‘rnashtirar.
Ular esa yashash uchun shaharlar qurar.
37 Dalalarga urug‘ ekib, uzumzorlar yaratar,
Dalalardan mo‘l–ko‘l hosil olar.
38 Egamizning barakasi ila ular juda ko‘payar,
Ularning chorvasi kamayishiga Egamiz yo‘l qo‘ymas.

39-40 Egamiz aslzodalarni xor qildi,
Yo‘lsiz sahroda ularni sargardon qildi.
Zulm, kulfat, g‘amdan
Ularning soni kamaydi,
Ular qashshoqlashdi.
41 Yo‘qsillarni esa Egamiz kulfatdan qutqarar,

Ularning oilasini qo‘y suruviday ko‘paytirar.
42 Solihlar buni ko‘rib, sevinar,
Fosiqlar esa og‘zini yopib, jim bo‘lar.

43 Donolar bularga e’tibor bersin,
Egamizning sodiq sevgisini anglasin.

## 107–SANO

1 *Dovud sanosi. Qo‘shiq.*

2 Ey Xudo, yuragim Senga sodiq,
Jonim boricha Seni kuylab, qo‘shiq aytaman.

3 Uyg‘on, ey arfa, lira!
Tongni ham men uyg‘otaman!

4 Ey Egam, xalqlar orasida Senga shukrona aytaman,
Ellar orasida Senga hamdu sano kuylayman.
5 Sodiq sevging samolardan ham yuksakdir,
Sadoqating bulutlardan ham balanddir.
6 Ey Xudo, falakdan ham yuqorida yuksalaver!
Shuhrating butun zamin uzra yoyilsin.
7 O‘ng qo‘ling ila g‘alaba ato qilgin,
Iltijoimga javob bergin,
Suyukli bandalaring najot topsin.

8 Ey Xudo, O‘z muqaddas makoningdan va’da
bergansan*:
“Shodlanib Shakamni* bo‘lib tashlayman,
Suxot vodiysini* taqsimlab beraman.
9 Gilad Menikidir, Manashe* Menikidir,
Efrayim dubulg‘amdir, Yahudo* saltanat hassamdir.
10 Mo‘ab Mening qo‘lyuvgichimdir,
Edom uzra chorig‘imni otaman*,
Filistlar* uzra zafar ila hayqiraman.”

11 Ey Xudo, qaniydi mustahkam shaharga* meni olib
borsalar,
Edomga meni boshlab borsalar.
12 Axir, bizni O‘zing rad etding–ku!
Endi lashkarimizga yo‘lboshchilik qilmayapsan–ku!
13 Dushmandan qutqarib, bizga yordam ber,
Insonning yordami butunlay behuda.
14 Ey Xudo, Sen bilan biz g‘olib bo‘lamiz,
Dushmanlarimizni Sen yanchib tashlaysan.

# 108–SANO

*Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

1 Seni olqishlayman, ey Xudo,
Sukut saqlamagin.
2 Fosiq, yolg‘onchilar menga qarshi og‘iz ochgan,
Yolg‘onchi tillar bilan menga qarshi gapirar.
3 Nafratga to‘la so‘zlarni ustimga yog‘dirarlar,
Sababsiz menga hujum qilarlar.
4 Menga ayb qo‘yarlar do‘stligimga javoban,
Ibodat qilaman hamon.
5 Yaxshilik evaziga menga yomonlik qaytararlar,
Do‘stligim evaziga menga adovat qilarlar.

6 Fosiqni ularga qarshi qo‘y,
Ularning o‘ng tomonida ayblovchi tursin.
7 Sinalganda, ular aybdor bo‘lsin,
Ularning ibodati gunoh deb hisoblansin.
8 Ularning umri qisqa bo‘lsin,
O‘rnini boshqasi olsin.
9 Yetim bo‘lib qolsin bolalari,
Beva bo‘lib qolsin xotinlari.
10 Bolalari kulbasidan ayrilib, darbadar bo‘lsin,
Non izlab tilanchi bo‘lsin.
11 Mol–holini sudxo‘rlar egallasin,
Mehnati samarasini begonalar tortib olsin.
12 Biron kimsa ularga shafqat qilmasin,
Ularning yetim bolalariga hech kim achinmasin.
13 Ularning nasl–nasabi qirilib ketsin,
Bir nasldan so‘ng nomlari yo‘q bo‘lsin.
14 Ey Egamiz! Otalari aybini esga olgin,
Onalarining gunohini hech qachon unutmagin.
15 Ey Egamiz, ularning gunohidan doim xabardor bo‘lgin,
O‘sha insonlarning xotirasini yer yuzidan o‘chirgin.
16 Axir, ular hech qachon shafqat qilishni o‘ylamadi.
Muhtojlarni, umidsizlikka tushganlarni,
Kambag‘allarni ta’qib qildi, o‘ldirdi.
17 Ular la’natlashni yaxshi ko‘rardi,
Endi la’natlari o‘zlarining boshiga kelsin.
Duo qilishni yoqtirmasdi,
Endi duo ulardan uzoq bo‘lsin*.
18 La’natni ular kiyimday kiyardi,
Ularning tanasiga la’nat suv kabi kirardi,
Suyaklariga moy kabi singardi.

19 Ha, kiyim kiyganday, ular la’natga o‘ranib olsin,
La’natni har kuni belga taqadigan kamarday qilib
olsin.

20 Ey Egam! Menga qarshi yomon gapiruvchilarga,
Meni ayblovchilarga Sendan ana shular mukofot
bo‘lsin.
21 Sen, ey Egam Rabbiy,
O‘z noming haqi menga madad ber,
Ezgudir sodiq sevging, meni qutqar.
22 Men bir bechora, yo‘qsilman,
Ichimda yuragim yaralangandir.
23 Oqshomgi soyaday yo‘q bo‘lib boryapman,
Chigirtkaday men uloqtirilganman.
24 Ro‘za tutganimdan tizzalarimda darmon yo‘q,
Etim suyagimga yopishib qolgan.
25 Dushmanlarim haqoratining nishoniman,
Meni ko‘rganlarida masxaralab, boshlarini
chayqashar.

26 Ey Egam Xudo, menga madad bergin,
Sodiq sevging haqi meni xalos qilgin.
27 Buni Sening qo‘ling qilganini dushmanlarim bilsin,
Ey Egam, menga najot bergan Sen ekaningni ular
bilsin.
28 Mayli, ular meni la’natlasin,
Sen esa menga baraka berasan.
Ular hujum qilganda, sharmanda bo‘lishsin,
Men — quling esa shod–xurram bo‘lay.
29 Meni ayblovchilar badnomlikka burkansin,
Chopon kiyganday, sharmandalikka o‘ransin.

30 Egamga cheksiz shukronalar aytaman,
Xaloyiq orasida Unga hamdu sano o‘qiyman.
31 Egamiz turar yo‘qsillarning o‘ng tomonida,
Ularni o‘limga mahkum etganlardan qutqarmoq
uchun.

## 109–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egamiz aytmoqda Rabbimga*:
“Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga poyandoz
qilmagunimcha,
Sen Mening o‘ng tomonimda* o‘tirgin.”

2 Ey Rabbim! Egamiz Sening hukmronligingni
Quddusdan* boshlab kengaytirar!
Dushmanlaring oʻrtasida Sen hukmronlik qil!
3 Sen jang qiladigan kunda
Jangchilaring oʻz xohishi bilan maydonga chiqadi.
Erta tong yosh yigitlaring
Shabnam kabi atrofingda toʻplanadi,
Ular muqaddas ulugʻvorlikka burkangan*.
4 Egamiz ont ichgan, qarorini oʻzgartirmas:
"Sen Maliksidiq singari,
To abad ruhoniysan."*

5 Ey Xudo, Rabbim oʻng tomoningda oʻtirar,
Gʻazablangan kunda shohlarni ezib tashlar.
6 U xalqlarni hukm etib, jasadlarini uyum qilar,
Butun yer yuzidagi hukmdorlarni ezib tashlar.
7 Yoʻl boʻyidagi irmoqdan suv ichar,
Kuchga toʻlib, gʻolib boʻlib turar.

## 110–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

Solihlar jamoasida boʻlganimda,
Butun qalbimdan Egamga shukur aytaman.
2 Egamizning ishlari buyukdir,
Ulardan lazzat oluvchilar ular haqda fikr yuritadilar.
3 Egamizning ishlari ulugʻvor, haybatlidir,
Uning adolati to abad davom etadi.
4 Egamiz unutilmas ajoyibotlarni yaratdi,
U rahmdil va shafqatlidir.
5 Oʻzidan qoʻrqqanlarga rizq–roʻzini beradi,
Oʻz ahdini doimo yodida tutadi.
6 Xalqiga qudratli ishlarini koʻrsatdi,
Boshqa xalqlar yerini ularga berdi.
7 Hamma ishlarida sodiq, adolatlidir,
Uning hamma amrlari ishonchlidir.
8 Ularning hammasi to abad mustahkam turadi,
Egamiz ularni sadoqat, toʻgʻrilik ila ijro qildi*.
9 U xalqini qutqardi,
To abad ahdi bilan ularni Oʻziga bogʻladi.
Uning nomi muqaddas, qoʻrqinchlidir.
10 Egamizdan qoʻrqish donolikning boshidir,
Bunday yoʻl tutganlarning aqli rasodir,
Uning hamdu sanolari to abad davom etadi.

## 111–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Baxtlidir Egamizdan qo‘rqadigan odam,
Uning amrlarini bajarib zavq oladigan odam!
2 Bunday odamning avlodi yurtda qudratli bo‘ladi,
To‘g‘ri odamning nasli baraka topadi.
3 Uning uyida mo‘lchilik, boylik bo‘ladi,
Uning solihligi to abad davom etadi.
4 Hatto zulmatda ham to‘g‘ri insonga nur yog‘iladi,
Rahmdil, mehribon, solih odamga yog‘du sochiladi.
5 Yaxshi odam saxiy, qarz beradi,
Adolat bilan ish yuritadi.
6 Solih hech qachon tebranmaydi,
U to abad unutilmaydi.
7 U yomon xabardan qo‘rqmaydi,
Butun yurakdan Egamizga umid bog‘laydi.
8 Yuragi barqarordir, qo‘rquv nimaligini bilmaydi,
Oxiri dushmanlarining mag‘lubiyatini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi.
9 Boyligini muhtojlarga saxiylik ila taqsimlaydi,
Uning solihligi to abad davom etadi.
U qudratli, hurmatli bo‘ladi.
10 Fosiqlar buni ko‘rib, g‘azabga minadi,
Alam qilganidan tishlarini g‘ichirlatadi–yu,
Ammo kuchdan qoladi.
Ha, fosiqlarning istagi puchga chiqadi.

## 112–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Hamdu sano ayting, ey Egamizning qullari,
Hamdu sanolar bo‘lsin Egamizning nomiga!
2 Egamiz nomiga hozir ham,
Abadulabad olqishlar bo‘lsin.
3 Sharqdan to g‘arbga qadar
Egamizning nomiga olqishlar bo‘lsin!
4 Egamiz barcha xalqlar ustidan yuksalgan,
Uning shuhrati samolardan ham buyukdir.

5 Egamiz Xudoga kim o‘xshaydi?!
U yuksakda taxt qurgan.
6 U samoga, yer yuziga egilib qaraydi.
7 Tuproqqa qorilgan bechorahollarni U ko‘taradi,

Faqirlarni axlat uyumidan olib, yuksaltiradi.
8 Ularga shahzodalar yonidan joy beradi,
Oʻz xalqining shahzodalari bilan birga oʻtqazadi.
9 Befarzand ayolni oʻz uyida U sharaflaydi,
Unga farzand ato etib, baxtiyor qiladi.

Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

## 113–SANO

1-2 Isroil xalqi Misrdan chiqib ketganda,
Yahudo yurti Xudoning muqaddas maskani boʻldi.
Ha, Yoqub nasli begona yurtdan ketganda,
Isroil yurti Xudoning shohligi boʻldi.

3 Dengiz Xudoni koʻrdi–yu, qochdi*,
Iordan daryosi orqaga qaytdi*.
4 Togʻlar qoʻchqorlar kabi sakradi*,
Tepaliklar qoʻzilar kabi irgʻidi.

5 Ne boʻldi, ey dengiz, qochib ketding?
Ne boʻldi, ey Iordan, orqaga qaytding?
6 Ey togʻlar, nechun sakradingiz takalar kabi?
Ey tepaliklar, nechun irgʻidingiz qoʻzilar kabi?

7 Titragin, ey zamin, Rabbiy oldida,
Yoqubning Xudosi huzurida.
8 U qoyani suv hovuziga aylantirgan,
Qattiq qoyadan buloq chiqargan*.

9 Ey Egam! Sodiq sevging, sadoqating haqi
Senga sharaflar boʻlsin!
Bizga emas, Senga sharaflar boʻlsin!

10 Nima uchun begona xalqlar:
“Qani ularning Xudosi”, deya aytarlar?
11 Bizning Xudoyimiz samolardadir,
U istaganini qilaveradi.
12 Xalqlarning xudolari esa kumush, oltindan,
Inson qoʻllarining mahsulidir.
13 Butlarning ogʻizlari bor, soʻzlay olmaslar,
Koʻzlari bor, koʻra olmaslar.
14 Ularning quloqlari bor, eshita olmaslar,
Burunlari bor, hidlay olmaslar.
15 Ularning qoʻllari bor, seza olmaslar,
Oyoqlari bor, yura olmaslar,
Boʻgʻizlaridan ovoz chiqara olmaslar.

16 Butlarni barpo qilganlar, butlarga ishonganlar
Xuddi ularga oʻxshagan boʻlib qolar.

17 Ey Isroil xalqi! Ishoning Egamizga,
U madad berar, qalqon boʻlar sizga!
18 Ey Horun xonadoni!* Ishoning Egamizga,
U madad berar, qalqon boʻlar sizga!
19 Ey Egamizdan qoʻrqqanlar! Ishoning Egamizga,
U madad berar, qalqon boʻlar sizga!

20 Egamiz bizni yodda tutib, baraka beradi,
Isroil xalqiga U baraka beradi,
Horun xonadoniga U baraka beradi.
21 Egamiz Oʻzidan qoʻrqqanlarga baraka beradi,
Kattayu kichikka bir xilda baraka beradi.

22 Egamiz sizlarni,
Bolalaringizni koʻpaytirsin.
23 Yeru osmonni yaratgan Egamiz
Sizlarga baraka bersin.
24 Samolar Egamizning samolaridir,
Yerni esa U insonlarga bergandir.
25 Oʻlim sukunatiga botgan marhumlar
Egamizga hamdu sano aytmaslar.
26 Biz esa Egamizga hozir ham, abadulabad
Olqishlar aytamiz.

Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

## 114–SANO

1 Egamni sevaman, U meni eshitadi,
Mening iltijolarimni U tinglaydi.
2 Quloq berib meni tinglagani uchun
Umrim boʻyi Egamga iltijo qilaman.
3 Meni oʻlim toʻrlari oʻrab oldi,
Oʻliklar diyorining* azoblari boshimga tushdi,
Meni bosdi dardu gʻam, alamlar.
4 Shunda Egamga iltijo qildim:
"Ey Egam, yolvoraman, meni qutqargin!"

5 Egamiz mehribon, odildir,
Xudoyimiz rahmdildir.
6 Egamiz sodda insonlarni himoya qiladi,
Xavf–xatarda qolganimda, U meni qutqaradi.

7 Ey jonim, yana xotirjam boʻlgin,

Egam menga ezgulik qilgan.

8 Egam jonimni oʻlimdan qutqarib qoldi,
Koʻzlarimni yosh toʻkishdan,
Oyogʻimni qoqilishdan qutqardi.
9 Tiriklar diyorida ekanman
Egamning yoʻlidan yuraveraman.

## 115–SANO

1 Juda koʻp azob cheksam ham,
Xudoga boʻlgan ishonchim yoʻqolmadi.
2 Oʻylamasdan*: “Hamma odamlar yolgʻonchidir”,
dedim.

3 Egam menga qilgan yaxshiliklarini
Unga qanday qilib qaytaray?
4 Najot topganimni nishonlayman,
Egamga sajda qilaman.
5 Egamiz xalqining koʻzi oldida
Unga bergan ontimni ado etaman.

6 Taqvodorlarning oʻlimi
Egamizning nazarida juda achchiqdir.

7 Ey Egam, men Sening qulingman,
Choʻringning oʻgʻliman,
Oʻzing kishanlardan meni ozod qilgansan.
8 Shukrona qurbonligini Senga nazr qilaman,
Senga sajda qilaman.
9-10 Quddusda, Sening uying hovlilarida,
Jamiki xalqingning koʻzi oldida
Ey Egam, Senga bergan ontimni ado etaman.

Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

## 116–SANO

1 Ey barcha xalqlar, Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!
Ey jamiki elatlar, Uni olqishlanglar!
2 Zero, Uning bizga boʻlgan sevgisi ulugʻdir,
Egamizning sadoqati to abad davom etar.

Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

## 117–SANO

1 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir,

Uning sodiq sevgisi abadiydir.

2 Isroil xalqi shunday desin:
“Uning sodiq sevgisi abadiydir.”
3 Horun avlodi shunday aytsin:
“Uning sodiq sevgisi abadiydir.”
4 Egamizdan qoʻrqqanlar shunday aytsin:
“Uning sodiq sevgisi abadiydir.”

5 Kulfatda qolganimda Egamga iltijo qildim,
Javob berib, U meni ozod qildi.
6 Egam men bilan birga, shu bois qoʻrqmayman.
Insonlar menga nima qila oladi?!
7 Egam men bilan birga, U menga madad beradi,
Koʻzlarim dushmanlarim magʻlubiyatini koʻradi.
8 Insondan umid qilgandan koʻra,
Egamizdan panoh izlash yaxshidir.
9 Shahzodalardan umid qilgandan koʻra,
Egamizdan panoh izlash yaxshidir.

10 Dushman xalqlar oʻrab olgan atrofimni,
Egamning qudrati bilan ularni uloqtirdim.
11 Har tarafdan oʻrab, menga hujum qilgandi,
Egamning qudrati bilan ularni uloqtirdim.
12 Atrofimni arilarday oʻrab oldilar,
Tikan alangasiday lov etdilar–da, oʻchdilar,
Egamning qudrati bilan ularni uloqtirdim.
13 Meni qattiq turtganlarida, yiqilayozdim,
Egam menga madad berdi.
14 Egam mening kuch–qudratimdir*,
U mening qutqaruvchimdir.

15 Solihlarning chodirlarida
Shodlik, zafar qoʻshiqlari jaranglaydi:
“Egamizning oʻng qoʻli magʻlub qiladi.
16 Egamizning oʻng qoʻli baland koʻtariladi,
Ha, Egamizning oʻng qoʻli magʻlub qiladi.”

17 Men oʻlmayman. Ha, men yashayman,
Egamning ishlarini naql qilaman.
18 Egam meni qattiq jazoladi,
Lekin oʻlishimga yoʻl qoʻymadi.

19 Adolat darvozalarini menga ochinglar,
Toki men darvozadan kirib,
Egamga shukronalar aytayin.

20 Bu Egamizning darvozasidir,
Solihlar shu darvozadan kirsin.

21 Ey Egam, ibodatimga javob berganing uchun,
Mening najotkorim bo‘lganing uchun
Senga shukrona aytaman.

22 Binokorlar rad etgan tosh
Binoning tamal toshi* bo‘ldi.
23 Bu Egamizning qilgan ishidir,
Ko‘z oldimizdagi ajoyibotdir.
24 Egamiz yaratgan kundir bu,
Bu kunda shod bo‘lib, sevinaylik.

25 Najot ber bizga, yolvoramiz, ey Egam!
Muvaffaqiyat ber, o‘tinamiz, ey Egam!

26 Egamiz nomidan keladigan zot baraka topsin,
Egamiz uyidan turib, seni duo qilamiz.
27 Egamiz Xudodir, U bizga nur bergan.
Bayram nishonlashni boshlang!
Palma shoxlarini olib, qurbongoh oldiga boring*.

28 Sen Xudoyimsan, Senga shukur aytaman,
Sen Xudoyimsan, Seni ulug‘layman.

29 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

## 118–SANO

1 Baxtlidir yo‘llari pok bo‘lganlar,
Ey Egam, Sening qonuning bo‘yicha yuradiganlar.
2 Baxtlidir Sening shartlaringga rioya qiladiganlar,
Butun qalbi bilan Senga intiladiganlar.
3 Ular aslo nohaq ish qilmaydilar,
Sening yo‘llaringdan yuradilar.
4 O‘zing bizga amr berib,
Buyruqlarimga diqqat ila itoat eting, degansan.
5 Qaniydi farmonlaringni ado etishda barqaror
bo‘lsam!
6 Men sharmanda bo‘lib qolmay, deya
Hamma amrlaringga diqqat qilaman.
7 Sening odil qoidalaringni o‘rganganimda,
Toza qalb ila hamdu sano aytaman Senga.
8 Sening qonunlaringni bajaraman,
Meni hech qachon tark etmagin.

9 Yigit qanday qilib yo‘llarini pok saqlaydi?
Kaloming bo‘yicha yashab, shunga erishadi.
10 Butun qalbim bilan Senga intilaman,
Amrlaringdan og‘ishimga yo‘l qo‘ymagin.
11 So‘zlaringni yuragimda asrayman,
Toki Senga qarshi gunoh qilmayin.
12 Ey Egam, Senga olqishlar bo‘lsin,
Farmonlaringni o‘rgatgin menga.
13 Og‘zingdan chiqqan barcha qoidalarni
O‘z og‘zim bilan e’lon qilaman.
14 Shartlaringga ergashib, lazzat topaman,
Go‘yo katta boylik topib xursand bo‘laman.
15 Buyruqlaring haqida chuqur fikr yuritaman,
Sening yo‘llaringga diqqat qilaman.
16 Farmonlaringdan lazzat olaman,
Kalomingni men unutmasman.

17 Men, O‘z qulingga yaxshilik qilgin,
Toki yashab, kalomingga itoat etayin.
18 Ko‘zlarimni och, toki ko‘rayin
Qonuningdagi ajoyibotlarni.
19 Yer yuzida musofirday yashayman,
Amrlaringni mendan yashirma.
20 Jonim kuymoqda hasrat bilan,
Qoidalaringni o‘rganishni doim istayman.
21 La’natlangan takabburlarga,
Amrlaringdan og‘ib ketganlarga Sen tanbeh berasan.
22 Haqorat, xo‘rlikni mendan uzoqlashtir,
Axir, shartlaringni doim bajarganman.
23 Hatto shahzodalar to‘planib, menga bo‘hton
qilsalar ham
Men farmonlaring haqida chuqur fikr yuritaman.
24 Sening shartlaring menga lazzat bag‘ishlaydi,
Shartlaring men uchun maslahatchidirlar.

25 Jonim chiqay deb turibdi,
Va’dangga ko‘ra, hayotimni saqlagin.
26 Hayotim haqida Senga aytib berdim,
Sen javob berding.
Endi farmonlaringni menga o‘rgatgin.
27 Menga buyruqlaringni tushuntir,
Toki mo‘jizalaring haqida chuqur fikr yuritay.
28 Jonim ado bo‘ldi g‘am–g‘ussadan,
Quvvat bergin menga va’dangga binoan.

29 Soxta yo‘llardan meni saqlagin,
Iltifot ila qonuningni menga o‘rgatgin.
30 Men sadoqat yo‘lini tanlaganman,
Qoidalaringni yuragimga jo qilganman.
31 Ey Egam, shartlaringni mahkam ushlaganman,
Endi sharmanda bo‘lishimga yo‘l qo‘ymagin.
32 Jonim bilan amrlaringni bajaraman,
Zotan, menga ko‘p zakovat ato qilasan.

33 Ey Egam, menga farmonlaringni o‘rgat,
Toki men ularni oxirigacha bajarayin.
34 Zakovat ber menga, toki qonuningga rioya qilay,
Chin qalbimdan qonuningni bajaray.
35 Amrlaring so‘qmog‘idan meni yetaklagin,
Men undan lazzat topaman.
36 Yuragimni nohaq foyda tomon emas,
O‘z shartlaring tomon burgin.
37 Ko‘zlarimni befoyda narsalardan qaytargin,
Va’dangga binoan hayotimni saqlagin*.
38 Men, O‘z qulingga bergan va’dangda turgin,
Bu va’dang Sendan qo‘rqadiganlar uchundir.
39 Sharmandalikdan qo‘rqaman, mendan uzoq qil,
Zotan, qoidalaring ezgudir.
40 Buyruqlaringga naqadar talpinaman,
Adolating bilan hayotimni saqlagin.

41 Sodiq sevgingni, ey Egam, menga ko‘rsat,
Va’dangga ko‘ra, menga najot ber.
42 Shunda meni haqorat qilganlarga javob beraman,
Sening kalomingga umid qilaman.
43 Og‘zimdan haqiqat kalomini tamom tortib olma,
Sening qoidalaringga umid bog‘laganman.
44 Qonuningga doimo rioya qilaman,
Abadulabad uni bajaraman.
45 Men ozod bo‘lib yuraveraman,
Buyruqlaringni izlab topganman.
46 Shohlar oldida shartlaringdan so‘ylayman,
Sharmanda bo‘lmasman.
47 Amrlaringdan lazzat topaman,
Men amrlaringni sevaman.
48 Amrlaringga izzatu sevgi ko‘rsataman,
Farmonlaring haqida chuqur fikr yuritaman.

49 Esla men, qulingga bergan va’dangni,
Sen va’da berib, umidvor qilgansan meni.

50 Kulfatda qolganimda shu menga tasalli beradi,
Sening va’dang mening hayotimni saqlaydi.
51 Takabbur meni tamom masxara qiladi,
Shunda ham qonuningdan yuz o‘girmasman.
52 Azaliy qoidalaringni, ey Egam, eslayman,
Bu qoidalaringdan men tasalli topaman.
53 Fosiq qonuningdan yuz o‘girgan,
Shu bois men qattiq g‘azablanaman.
54 Qayerda boshpana qilgan bo‘lmayin,
Farmonlaringni qo‘shiq qilib kuylayman.
55 Ey Egam, tunda ham Seni eslayman,
Sening qonunlaringga rioya etaman.
56 Bu menga odat bo‘lgan edi,
Buyruqlaringga rioya qildim.

57 Ey Egam, Sen mening xavfsizligim manbaisan,
Kalomingga itoat etaman, deb va’da beraman.
58 Jamolingni izladim chin qalbimdan,
Mehribon bo‘l menga va’dangga binoan.
59 Yo‘llarimga diqqat qildim,
Shartlaring bo‘yicha qadam bosaman.
60 Men shoshilaman, kechikmasman
Amrlaringga itoat etmoq uchun.
61 Fosiqlar meni arqonlar bilan bog‘laydi,
Shunda ham Sening qonuningni unutmayman.
62 Yarim tunda uyg‘onib, odil qoidalaring uchun
Senga hamdu sano aytaman.
63 Sendan qo‘rqqanlarga men do‘stman,
Buyruqlaringga rioya qilganlarga sherikman.
64 Ey Egam, sodiq sevgingdan zamin to‘lgandir,
Farmonlaringni menga o‘rgat.

65 Ey Egam, O‘zing bergan va’dangga muvofiq
Men, O‘z qulingga yaxshilik qilding.
66 Menga donolik, zukkolik bergin,
Sening amrlaringga ishondim.
67 Jazo olmasimdan oldin adashar edim,
Endi Sening so‘zingga itoat etaman.
68 Naqadar yaxshisan, ezgulik qilasan,
Farmonlaringni menga o‘rgatgin.
69 Takabbur yolg‘on so‘ylab, meni qoraga chaplar,
Men esa chin qalbdan buyruqlaringga itoat etaman.
70 Ularning qalbini yog‘ bog‘lagan,
Men esa qonuningdan lazzat olaman.
71 Tortgan jazoim menga saboq bo‘ldi,

Shu orqali farmonlaringni oʻrgandim.
72 Minglab oltinu kumushdan koʻra,
Yaxshidir men uchun ogʻzingdan chiqqan qonun.

73 Qoʻllaring meni yaratgan, barpo qilgan,
Amrlaringni oʻrganishga menga idrok bergin.
74 Sendan qoʻrqqanlar meni koʻrib, sevinsinlar,
Zotan, Sening kalomingga umid qilganman.
75 Ey Egam, hukmlaring adolatliligini bilaman,
Menga jazo berganingda, Sen haq eding.
76 Men, Oʻz qulingga bergan va’dangga koʻra,
Sodiq sevging menga tasalli boʻlsin.
77 Menga shafqat qilgin, toki yashayin,
Axir, Sening qonuning men uchun lazzat.
78 Yolgʻon gapirib, menga zarar qilgani uchun
Takabburlar sharmanda boʻlsin.
Men esa buyruqlaring haqida fikr yuritaman.
79 Men tomon kelsin Sendan qoʻrqqanlar,
Sening shartlaringni biladiganlar.
80 Farmonlaringni bitta qolmay bajaray,
Toki men sharmanda boʻlib qolmay.

81 Najotingni kutib, jonim ado boʻlmoqda,
Sening kalomingdan umid qilmoqdaman.
82 Va’dalaringni kutib, koʻzimning nuri soʻnadi,
“Qachon menga tasalli berasan?” deya soʻrayman.
83 Tutunda qorayib, bujmaygan meshday* boʻlsam
ham,
Sening farmonlaringni men unutmaganman.
84 Qachongacha men, quling, kutishim kerak?
Meni ta’qib qiluvchilarni qachon hukm qilasan?
85 Takabburlar menga chuqur qazirlar,
Sening qonuningga ular qarshi chiqarlar.
86 Hamma amrlaring umidbaxshdir.
Meni sababsiz ta’qib etarlar, yordam ber!
87 Ular meni yer yuzidan yoʻq qilay, dedi,
Ammo buyruqlaringni men tark etmadim.
88 Sodiq sevging haqi saqla hayotimni,
Toki ogʻzingdan chiqqan shartlarga rioya qilay.

89 Kaloming, ey Egam, to abaddir,
U samolarda mustahkam turadi.
90 Sening sadoqating nasllar osha davom etadi,
Yerni barqaror qilgansan, u to abad turaveradi.
91 Qoidalaring tufayli

Yeru osmon bugun ham mustahkamdir,
Butun olam qo‘ling ostidadir.
92 Agar qonuning men uchun lazzat bo‘lmasaydi,
Tortgan g‘amu kulfatlarimdan tamom bo‘lardim.
93 Men buyruqlaringni hech qachon unutmayman,
Bular orqali Sen hayotimni saqlagansan.
94 Men Senikidirman, meni qutqargin,
Zotan, men buyruqlaringni bajarishga intilganman.
95 Fosiqlar meni o‘ldirishga payt poylaydi,
Men esa shartlaring haqida chuqur fikr yuritaman.
96 Jamiki komillikning cheklanganini ko‘rdim,
Sening amrlaring esa chegarasizdir.

97 O, naqadar sevaman qonuningni!
Kun bo‘yi xayolimda tutaman uni.
98 Amrlaring meni g‘animlarimdan ko‘proq dono
qildi,
Amrlaring doimo men bilan birga.
99 Barcha ustozlarimdan ham ziyrakroq bo‘ldim,
Sening shartlaring ustida fikr yuritaman.
100 Yoshi ulug‘lardan ham donoroq bo‘ldim,
Chunki Sening buyruqlaringga itoat etaman.
101 Har qanday yomon yo‘ldan qadamimni tiydim,
Toki Sening kalomingga itoat etay dedim.
102 Qoidalaringdan men qaytmadim,
Menga O‘zing ta’lim bergansan.
103 So‘zlaring men uchun naqadar mazalidir,
Asaldan ham shirin tuyular og‘zimga.
104 Buyruqlaring tufayli men dono bo‘laman,
Har qanday yolg‘on yo‘ldan nafratlanaman.

105 Sening kaloming qadamlarim uchun chiroqdir,
Yo‘limga nur sochadigan yorug‘likdir.
106 Adolatli qoidalaringni bajaraman, deb
Ont ichdim va bu ontimga vafo qilaman.
107 Ey Egam, men ko‘p jafo chekdim,
Va’dangga ko‘ra, hayotimni saqla.
108 Ey Egam, maqtov nazrlarimni qabul etgin,
Menga qoidalaringni o‘rgatgin.
109 Hayotim har on xavfda bo‘lsa ham,
Sening qonuningni men unutmayman.
110 Fosiqlar menga tuzoq qo‘ydilar,
Shunda ham buyruqlaringdan og‘ib ketmadim.
111 Sening shartlaring to abad mening mulkimdir,
Shartlaring qalbimning quvonchidir.

112 Farmonlaringni to abad ijro etmoqqa
Yuragimni moyil qildim.

113 Ikkiyuzlamachilardan men nafratlanaman,
Sening qonuningni sevaman.
114 Sen mening panohimsan, qalqonimsan,
Sening kalomingga umid bogʻlayman.
115 “Ey badkirdorlar, yoʻqoling koʻz oldimdan,
Men Xudoyimning amrlarini bajaray”, deb aytaman.
116 Va’dangga koʻra, menga tayanch boʻl, toki
yashayin,
Umidim puchga chiqmasin, sharmanda boʻlmayin.
117 Suyanchiq boʻl menga, toki najot topayin,
Farmonlaringga doim diqqat bilan boqayin.
118 Farmonlaringdan toyganlarni rad etding,
Ularning hiylayu nayranglari behudadir.
119 Yer yuzidagi jamiki fosiqlarni
Axlatday uloqtirib tashlaysan,
Shu bois men shartlaringni sevaman.
120 Sendan qoʻrqqanimdan vujudim titraydi,
Hukmlaringdan meni vahima bosadi.

121 Adolatli, toʻgʻri ishlar qilganman,
Meni zolimlar qoʻlida qoldirma.
122 Men, qulingning baxtiga kafolat bergin,
Takabburlar meni ezishlariga yoʻl qoʻymagin.
123 Najotingni kutaverib, koʻzim toʻrt boʻldi,
Va’da qilgan najoting armonida koʻzim nuri toʻkildi.
124 Men, Oʻz qulingga sodiq sevgingni koʻrsatgin,
Farmonlaringni menga oʻrgatgin.
125 Sening qulingman, menga idrok bergin,
Toki men shartlaringni bilib olayin.
126 Ey Egam, vaqti keldi, Oʻz ishingni qil,
Sening qonuning buzildi.
127 Chindan ham Sening amrlaringni
Oltindan, eng sof oltindan ham koʻproq sevaman.
128 Sening buyruqlaringga koʻra, qadam bosaman,
Har qanday yolgʻon yoʻldan nafratlanaman.

129 Sening shartlaring ajoyibdir,
Shu bois ularga itoat etaman.
130 Kalomingning ta’limoti ziyo sochadi,
Soddalarga aql–idrok beradi.
131 Ogʻzim ochilib, ogʻir nafas olaman,
Chunki Sening amrlaringga juda intilaman.

132 Men tomon yuz bur, menga shafqat qilgin,
Axir, Seni sevganlarga doim shafqat koʻrsatasan.
133 Soʻzingga koʻra, qadamimni Oʻzing boshqargin,
Hech qachon ustimdan gunoh hukmron boʻlmasin.
134 Inson zulmidan meni qutqargin,
Toki Sening buyruqlaringga itoat etayin.
135 Jamoling menga nurlarini sochsin,
Farmonlaringni menga oʻrgatgin.
136 Koʻzlarimdan yoshlar daryo boʻlib quyilar,
Axir, odamlar qonuningga rioya qilmayapti.

137 Sen odilsan, ey Egam,
Hukmlaring adolatlidir.
138 Adolat ila shartlaringni buyurgansan,
Tamomila ishonchlidir shartlaring.
139 Gʻazabim meni ado qilmoqda,
Dushmanlarim kalomingni rad etmoqda.
140 Va’dalaring naqadar sofdir!
Men va’dalaringni naqadar sevaman!
141 Men keraksizman, xoʻrlanganman,
Buyruqlaringni unutmayman.
142 Sening adolating mangudir,
Sening qonuning haqiqatdir.
143 Boshimga kulfatu azob keldi,
Amrlaring menga zavq berar.
144 Shartlaring to abad adolatlidir,
Idrok bergin menga, toki yashayin.

145 Ey Egam, chin koʻngildan yolvoraman, javob ber,
Farmonlaringga rioya qilaman.
146 Senga faryod qilaman, meni qutqargin,
Toki shartlaringga men rioya qilay.
147 Kun chiqmasdan Sendan madad soʻrab faryod
qilaman,
Sening kalomingga men umid bogʻlayman.
148 Sening va’dangni chuqur anglay deb,
Koʻzlarimga tun boʻyi uyqu kelmaydi.
149 Sodiq sevgingga koʻra, ovozimni eshitgin,
Ey Egam, adolating bilan hayotimni saqlagin.
150 Qabih reja tuzadiganlar yaqin kelmoqda,
Ular qonuningdan uzoqda yuradi.
151 Sen esa, ey Egam, yonimdasan,
Hamma amrlaring haqiqatdir.
152 Qonuningni Sen mangu barqaror qilgansan,
Yoshligimdan buni men bilaman.

153 Azoblarimga qaragin, meni qutqargin,
Axir, men Sening qonuningni unutmadim.
154 Mening da’voimni isbot qil, meni qutqar,
Va’dangga ko‘ra, hayotimni saqla.
155 Fosiqdan najot uzoqdadir,
Sening farmonlaringni ular izlamaslar.
156 Ey Egam, shafqating buyukdir,
Adolating bilan hayotimni saqla.
157 Meni ta’qib qiluvchi dushmanlarim ko‘p,
Men shartlaringdan yuz o‘girmayman.
158 Makkorlarga nafrat ila qarayman,
Ular Sening amrlaringga rioya qilmaydi.
159 Qaragin, naqadar sevaman buyruqlaringni,
Sodiq sevgingga ko‘ra, saqlagin hayotimni.
160 Kaloming mohiyati haqiqatdir,
Adolatli qoidalaring to abad davom etadi.

161 Hukmdorlar meni sababsiz ta’qib qilar,
Yuragim kalomingdan qo‘rqib titrab turar.
162 Xuddi ulkan xazina topgan odamday,
Sening so‘zingdan shod bo‘laman.
163 Yolg‘ondan nafratlanib, jirkanaman,
Sening qonuningni esa sevaman.
164 Sening adolatli qoidalaring tufayli
Yetti marta kuniga Seni madh qilaman.
165 Qonuningni sevganlar buyuk tinchlikka ega bo‘lar,
Hech narsa ularga to‘siq bo‘la olmaydi.
166 Ey Egam, men najotingga umid qilaman,
Men Sening amrlaringni bajaraman.
167 Shartlaringga itoat etaman,
Men ularni g‘oyatda sevaman.
168 Buyruq, shartlaringga rioya qilaman,
Hamma yo‘llarim Senga ma’lumdir.

169 Ey Egam, ohu nolam yetsin Senga,
Kalomingga ko‘ra, menga idrok bergin.
170 Iltijoim yetib borsin Senga,
Bergan va’dangga ko‘ra, meni qutqargin.
171 Lablarimdan hamdu sano to‘lib–toshsin,
Menga o‘rgatasan farmonlaringni.
172 Tilim kuylaydi Sening va’dangni,
Zotan, adolatlidir barcha amrlaring.
173 Menga yordamga tayyor turgin,
Zotan, tanlaganman men buyruqlaringni.

174 Ey Egam, najotingga talpinaman,
Sening qonuningdan lazzat topaman.
175 Umr ber menga, hamdu sano aytayin Senga,
Qoidalaring yordam bersin menga.
176 Adashgan qo'yday yo'ldan ozganman,
Izlab top meni, O'z qulingni.
Zotan, men amrlaringni unutmaganman.

## 119–SANO

*Ziyorat qo'shig'i*.*

1-2 Qayg'u–alamdan Egamga faryod qildim:
"Ey Egam, yolg'onchi lablardan,
Makkor tildan jonimni asragin!"
U faryodimga javob berdi.

3 Ey makkor til, Egamiz boshingga ne kunni solar ekan?
Senga qanday jazo berar ekan?
4 U jangchining o'tkir o'qlari bilan seni jazolaydi,
Yonayotgan yulg'un butasining cho'g'lari bilan senga jazo beradi.

5 Holimga voy, Meshexda musofirman,
Kedar* chodirlari orasida yashayman.
6 Tinchlikdan nafrat etuvchi xalq orasida
Yashashdan charchadim.
7 Men tinchlik tarafdoriman,
Ammo gapiray deb, og'iz ochsam,
Ular urushni istaydilar.

## 120–SANO

*Ziyorat qo'shig'i.*

1 Tog'larga tikaman ko'zlarimni,
Qayerdan kelar menga madad?
2 Yeru osmonni yaratgan
Egamdan kelar menga madad.

3 Qoqilishingga U yo'l qo'ymas,
U posboningdir, aslo mudramas.
4 Ha, Isroilning posbonidir U,
Mudramaydi, uxlamaydi U.

5 Egamizdir sening posboning,
Egamizdir yoningdagi soyang sening.

6 Kunduzi oftob seni urmas,
Kechasi oy senga zarar yetkazmas.
7 Egamiz seni har qanday xatardan asraydi,
Joningni Egamiz omon saqlaydi.
8 Hozir va to abad qayerga borsang ham,
Egamiz doim senga posbonlik qiladi.

## 121–SANO

*Dovudning ziyorat qoʻshigʻi.*

1 “Egamizning uyiga boraylik”, deb
Menga aytganlarida shod boʻldim.
2 Mana turibmiz, ey Quddus,
Darvozalaring ichkarisida.

3 Quddus yaxshi qurilgan shahardir,
Devorlari bir–biriga tutashtirib solingandir.
4 Isroil xalqiga berilgan qonunga koʻra,
Qabilalar u yerga chiqib borarlar!
Ha, Egamizning qabilalari
Unga shukur aytmoq uchun chiqib borarlar!
5 U yerda hukm taxtlari oʻrnashgan,
Ha, Dovud xonadonining taxtlari
U yerda joylashgan.

6 Duo qiling Quddusning tinchligi uchun:
“Uni sevganlar huzur–halovat topsin.
7 Devorlari ichida tinchlik boʻlsin,
Qal’alari bexatar boʻlsin.”
8 Qarindoshlarim, doʻstlarim haqi–hurmati,
Quddusga tinchlik boʻlsin, deya aytaman.
9 Egamiz Xudoning uyi haqi–hurmati
Quddusning iqbolini izlayman.

## 122–SANO

*Ziyorat qoʻshigʻi.*

1 Ey samolarda taxt qurgan Xudo!
Koʻzlarimni Senga tikaman.
2 Ey Egamiz Xudo!
Bizga shafqatingni koʻrsatgin deya,
Biz Sendan umid qilamiz.
Xoʻjayini qoʻliga qaragan
Qullarning koʻzlari kabi,
Bekasining qoʻliga qaragan

Cho‘ri qizning ko‘zlari kabi,
Ko‘zlarimiz Senga qadalgan.

3 Shafqat qil, ey Egam, shafqat qil bizga,
Ko‘rgan xo‘rliklarimiz yetib ortar.
4 Beg‘amlarning masxaralashi jonimizdan to‘ydirdi,
Kiborlarning haqoratidan pichoq borib suyakka yetdi.

## 123–SANO

*Dovudning ziyorat qo‘shig‘i.*

1 Endi Isroil shunday desin:
“Egamiz biz tomonda bo‘lmasa edi,
2 Ha, Egamiz biz tomonda bo‘lmasa edi,
G‘animlarimiz bizga hujum qilganda,
3 Ular bizga g‘azabini sochganda,
Bizni tiriklayin yutgan bo‘lardi.
4 To‘fon bizni girdobiga tortgan bo‘lardi,
Sel bizni bosib olgan bo‘lardi.
5 Pishqirgan suvlar ustimizdan bosgan bo‘lardi.”

6 Egamizga olqishlar bo‘lsin,
Yirtqich tishlarga bizni o‘lja qilib qo‘ymadi.
7 Biz ovchining tuzog‘idan qutulgan
Qushlarga o‘xshaymiz.
Tuzoq sinib, biz qutuldik.

8 Yeru osmonni yaratgan Egamizdan
Bizga madad keladi.

## 124–SANO

*Ziyorat qo‘shig‘i.*

1 Egamizga umid bog‘laganlar Sion tog‘iga o‘xshar,
Hech qachon tebranmas, to abad mustahkam turar.
2 Tog‘lar Quddusni o‘raganday,
Hozirdan boshlab, to abad
Egamiz O‘z xalqini o‘rab olgandir.

3 Fosiq shohning saltanat hassasi*
Solihlarning yurtida uzoq qolmaydi.
Bo‘lmasa solihlar qo‘llarini yomon ishlarga uzatadi.

4 Ey Egam, yuragi to‘g‘ri bo‘lganlarga,
Yaxshilarga yaxshilik qilgin.

5 Ey Egam, egri yoʻllarga burilganlarni
Badkirdorlar bilan birga haydab yuborgin.
Isroil uzra tinchlik boʻlsin!

## 125–SANO

*Ziyorat qoʻshigʻi.*

1 Egamiz Quddusni* yana farovonlikka
erishtirganda*,
Tush koʻrayotgan odamlarga oʻxshar edik.
2 Ogʻzimiz kulgi bilan,
Tillarimiz shodlik qoʻshigʻi bilan toʻla edi.
Shunda xalqlar aytdilar:
“Ular uchun Egamiz buyuk ishlar qildi.”
3 Ha, Egamiz biz uchun buyuk ishlar qilgandi,
Biz quvonchga toʻlgandik.

4 Nagav choʻlidagi soyliklarni qayta suvga
toʻldirganday,
Ey Egam, farovonligimizni qayta tiklagin.
5 Koʻz yosh bilan urugʻ ekkanlar
Shodlik qoʻshiqlari ila hosil oʻradi.
6 Yigʻlab, urugʻ xaltasini olib boruvchilar
Shodlik qoʻshiqlari bilan qaytib keladi,
Don bogʻlamlarini olib qaytadi.

## 126–SANO

*Sulaymonning ziyorat qoʻshigʻi.*

1 Agar uyni Egamiz qurmasa,
Quruvchilarning ishi bekor boʻladi.
Agar Egamiz shaharni qoʻriqlamasa,
Qorovul behuda poyloqchilik qiladi.
2 Erta turib, kech yotganingiz ham,
Ovqat topay deb, tortgan mashaqqatingiz ham
bekordir.
Egamiz Oʻz sevganlarining ehtiyojini
Uyqularida ham qondiradi*.

3 Oʻgʻillar Egamizdan merosdir,
Farzandlar Undan mukofotdir.
4 Yoshligingizda tugʻilgan oʻgʻillaringiz
Jangchining qoʻlidagi oʻqlardaydir.
5 Oʻqdoni toʻla shunday inson baxtlidir!
Shahar darvozasi oldida

Dushmani bilan da’volashganda,
U sharmanda bo‘lib qolmaydi.

## 127–SANO

*Ziyorat qo‘shig‘i.*

1 Ey Egamizdan qo‘rqqanlar, hammangiz baxtlisiz,
Ey Uning yo‘lidan yuradiganlar, sizlar baxtlisiz.
2 Mehnatingiz samarasini yeysiz,
Baxtli bo‘lib, huzur–halovatga yetasiz.
3 Xotiningiz hovlingizdagi serhosil
Uzum tokiga o‘xshagan bo‘ladi.
Dasturxoningiz atrofidagi bolalaringiz
Yosh zaytun ko‘chatiga o‘xshagan bo‘ladi.
4 Ey Egamizdan qo‘rqadiganlar,
Shu tariqa baraka topasiz.

5 Egamiz Quddusdan turib sizga baraka bersin,
Umringiz bo‘yi Sionning gullab–yashnashini ko‘ring.
6 Yashayvering siz, nevara–chevara ko‘ring,
Isroil uzra tinchlik bo‘lsin!

## 128–SANO

*Ziyorat qo‘shig‘i.*

1 Isroil shunday deb aytsin:
“Ular yoshligimdan menga ko‘p zulm o‘tkazib keldi.
2 Ha, yoshligimdan menga zulm o‘tkazib kelgan,
Ammo meni yenga olmaganlar.
3 Meni savalab, yelkalarimda chuqur izlar qoldirdilar,
Yaralarim daladagi uzun jo‘yaklarga o‘xshar.
4 Egamiz adolatparvardir,
Fosiqlarning arqonini qirqib, meni ozod qildi.”

5 Quddusdan* nafratlanganlarning hammasi
Sharmanda bo‘lib, ortiga qaytsin.
6 Tom ustidagi o‘tlarga* o‘xshasin ular,
O‘smasdan oldin qurib qolsinlar.
7 Bunday o‘tga o‘roqchilarning hovuchi to‘lmaydi,
Bog‘lovchilarning quchog‘i to‘lmaydi.
8 O‘tgan–ketganlar ularga:
“Egamiz sizlarga baraka bersin,
Egamiz nomi bilan sizlarni duo qilamiz!” deb
aytmasin.

## 129–SANO

*Ziyorat qo'shig'i.*

1 Ey Egam, tubsiz suvlardan Senga nola qilaman.
2 Ey Rabbiy, mening ovozimni eshitgin!
Iltijolarimga diqqat ila quloq solgin!

3 Ey Egam, gunohlarni hisobga olsang agar,
Ey Rabbiy, kim ham bardosh bera olar?!
4 Ammo Sen kechirimlisan,
Shu bois Sendan qo'rqamiz.

5 Egamga umid bog'layman,
Ha, jonim Unga talpinadi.
Uning kalomiga umid bog'layman.
6 Tongni kutgan posbondan ham ko'proq,
Ha, tongni kutgan posbondan ham ko'proq
Mening jonim Rabbiyga talpinadi.

7 Ey Isroil! Umid qilgin Egamizdan!
Egamiz sodiq sevgisini ko'rsatadi.
Qutqarishga U doim tayyor!
8 Isroilni barcha gunohlaridan
Qutqaradigan Uning O'zidir.

## 130–SANO

*Dovudning ziyorat qo'shig'i.*

1 Ey Egam, yuragimda mag'rurlik yo'q,
Ko'zlarim aslo kiborlarcha boqmaydi.
Menga g'oyat hayratli bo'lgan, buyuk ishlar bilan
Men o'zimni band qilmayman.
2 Bola onasi bag'rida tinchlanganday,
Men ham yengil tortib, tinchlanganman.
Ha, jonim tinchlangan.

3 Ey Isroil! Hozir ham, abadulabad Egamizdan umid qilgin!

## 131–SANO

*Ziyorat qo'shig'i.*

1 Ey Egam, eslagin Dovudni,
U tortgan barcha azob–uqubatlarni!
2 Ey Egam, u Senga qasam ichgandi.
Ey Yoqubning qudratli Xudosi,

U Senga va’da bergandi:
3 “Men aslo uyimga kirmayman,
Yoki oʻrnimga yotmayman.
4 Koʻzlarimga uyqu bermayman,
Qovoqlarim yumilishiga yoʻl qoʻymayman.
5 Egamiz uchun bir joy topmagunimcha,
Yoqubning qudratli Xudosi uchun
Bir maskan boʻlmaguncha aslo dam olmayman.”

6 Ahd sandigʻi Efratda*, deb eshitgandik,
Biz uni Yoʻr* dalalarida topib oldik.
7 “Egamizning maskaniga boraylik,
Uning poyiga sajda qilaylik”, dedik.

8 Qani, kel, ey Egam, oromgohingga
Qudrating ramzi boʻlgan Sandiq bilan birga.
9 Ruhoniylaring solihlikni kiysinlar,
Taqvodorlaring shodlikdan kuylasinlar!

10 Oʻz quling Dovudning haqi–hurmati,
Tanlagan shohingni rad qilmagin.
11 Ey Egam, Sen Dovudga ont ichgan eding,
Sen shu ontingdan aslo qaytmay deysan:
“Oʻzingdan bino boʻlgan oʻgʻillaringdan
Birini sening taxtingga oʻtqazaman.
12 Agar oʻgʻillaring Mening ahdimga rioya qilsa,
Ularga oʻrgatgan amrlarimga itoat etsa,
Ularning oʻgʻillari ham
Shoh boʻlib, to abad sening taxtingda oʻtiradi.”

13 Ey Egam, Sen Quddusni* tanlagansan,
U yerni Oʻzingga maskan qilishni istagansan.
14 Sen shunday deding:
“Men to abad yashaydigan joy shu joydir,
Bu yerda istiqomat qilishni istaganman.
15 Uning ozuqalariga moʻl qilib baraka beraman,
U yerdagi faqirlarni toʻydiraman.
16 Ruhoniylarni najotga burkayman,
Taqvodorlari shodlikdan kuylaydilar!
17 Dovudning naslini bu yerda koʻkartiraman,
Oʻzim tanlagan shohning chirogʻini oʻchirmayman.
18 Uning gʻanimlarini sharmandalikka oʻrayman,
Shohning boshidagi toji esa porlab turaveradi.”

# 132–SANO

*Dovudning ziyorat qo‘shig‘i.*

1 Naqadar yaxshidir, yoqimlidir
Birodarlar birga ahil yashasalar.
2 Ahillik Horunning boshiga surtilgan,
Soqoligacha oqib tushgan qimmatbaho moydaydir*,
Kiyimlari yoqasidan oqib tushgan moy kabidir.
3 Sion tog‘lariga keladigan baraka*
Xermon tog‘idagi mo‘l shabnamga o‘xshaydi.
Siondan Egamiz O‘z barakasini va abadiy hayotni
beradi.

# 133–SANO

*Ziyorat qo‘shig‘i.*

1 Ey sizlar — Egamizning qullari,
Egamizning uyida kechasi xizmat qiladiganlar,
Egamizni olqishlang!
2 Muqaddas maskan tomon
Qo‘llaringizni ko‘tarib,
Egamizni olqishlang!

3 Yeru osmonni yaratgan Egamiz
Quddusdan* turib, sizga baraka bersin.

# 134–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizning nomiga madhiyalar bo‘lsin!
Hamdu sano ayting, ey Egamizning qullari,
2 Ey Egamizning uyida xizmat qiladiganlar,
Ey Egamiz uyining hovlisida xizmat qiladiganlar!
3 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin,
U yaxshidir!
Tarannum eting Uni, bu* yoqimlidir.
4 Egamiz O‘zi uchun Yoqub naslini tanladi.
Ha, O‘zimning xazinam deb, Isroil xalqini tanladi.

5 Ha, bilaman, Egamiz ulug‘dir,
Rabbimiz barcha xudolardan yuksakdir.
6 Osmonda ham, zaminda ham,
Dengizlarda, jamiki tubsiz suvlarda
Egamiz istaganini qiladi.
7 U yerning to‘rt tomonidan bulutlarni olib keladi,

Yomg‘ir bilan birga chaqmoq yuboradi,
Omborlaridan shamol olib keladi.

8 Egamiz Misrning to‘ng‘ichlarini,
Inson hamda hayvonlarning birinchi tug‘ilganlarini
nobud qildi*.
9 Fir’avn va uning hamma a’yonlariga qarshi
Misrning orasiga Egamiz alomatu mo‘jizalarni
yubordi*.
10 U ko‘p ellar, xalqlarni qirgan,
Qudratli shohlarni bo‘g‘izlagan.
11 Amor xalqining shohi Sixo‘nni, Bashan shohi O‘gni
Hamda Kan’onning barcha shohlarini qirgan*.
12 Ularning yerini Isroil xalqiga mulk qilib berdi.

13 Egamizning nomi to abad davom etar,
Egamizning shuhrati nasllar osha davom etar.
14 Egamiz O‘z xalqiga adolat qiladi,
O‘z qullariga rahm–shafqat qiladi.

15 Xalqlarning xudolari esa kumush, oltindan,
Inson qo‘llarining mahsulidir.
16 Butlarning og‘izlari bor, so‘zlay olmaslar,
Ko‘zlari bor, ko‘ra olmaslar.
17 Quloqlari bor ularning, eshita olmas,
Ular aslo nafas ololmas.
18 Butlarni barpo qilganlar, butlarga ishonganlar
Xuddi ularga o‘xshagan bo‘lib qolar.

19 Ey Isroil xalqi, olqishlar ayting Egamizga!
Ey Horun xonadoni*, madhiyalar ayting Egamizga!
20 Ey Levi xonadoni*, olqishlar ayting Egamizga!
Ey Egamizdan qo‘rqqanlar, madhiyalar ayting Unga!
21 Quddusda istiqomat qiladigan Egamizga
Sionda olqishlar ayting!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 135–SANO

1 Shukrona ayting Egamizga, U yaxshidir!
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
2 Shukrona ayting xudolarning Xudosiga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
3 Shukrona ayting egalarning Egasiga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

4 Shukrona ayting Xudoga,
Faqatgina U buyuk ajoyibotlar ko‘rsatadi.
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
5 Shukrona ayting donolik bilan samolarni
yaratganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
6 Shukrona ayting suvlar uzra yerni barpo qilganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
7 Shukrona ayting ulkan yoritqichlarni yaratganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
8 Kunduzi nur sochib tursin deya,
Quyoshni yaratganga shukrona ayting.
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
9 Tun uzra nur sochib tursin deya,
Yulduzlaru oyni yaratganga shukrona ayting.
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

10 Shukrona ayting Misrning to‘ng‘ichlarini urganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
11 Shukrona ayting Misrdan Isroilni olib chiqqanga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
12 Shukrona ayting yo‘g‘on bilaklariyu
Kuchli qo‘li ila Isroilni olib chiqqanga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
13 Shukrona ayting Qizil dengizni* ikkiga bo‘lganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
14 Shukrona ayting Isroilni dengiz o‘rtasidan
o‘tkazganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
15 Shukrona ayting fir’avn va uning lashkarlarini
Qizil dengizga uloqtirganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
16 Shukrona ayting O‘z xalqini sahro bo‘ylab olib
o‘tganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
17 Shukrona ayting buyuk shohlarni halok qilganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
18 Shukrona ayting qudratli shohlarni qirganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
19 Shukrona ayting Amor xalqining shohi Sixo‘nni
o‘ldirganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
20 Shukrona ayting Bashan shohi O‘gni o‘ldirganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
21 Shukrona ayting ularning yerini

O‘z xalqiga mulk qilib berganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
22 Shukrona ayting u yerlarni
O‘z quli Isroilga mulk qilib berganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

23 Shukrona ayting xor bo‘lganimizda bizni
eslaganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
24 Shukrona ayting bizni dushmanlarimizdan
qutqarganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
25 Shukrona ayting barcha jonzotlarni
oziqlantiradiganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

26 Shukrona ayting Samoviy Xudoga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

## 136–SANO

1 Bobildagi daryolar bo‘yida o‘tirardik,
Yig‘lab, u yerlarda Quddusni* eslardik.
2 Liralarimizni o‘sha yerdagi tollarga
Osib qo‘ygandik.
3 Bizni u yerda asirga olganlar:
“Qo‘shiq aytib beringlar”, derdilar,
Bizga zulm qilganlar ko‘ngillarini chog‘ qilgani:
“Bizga Quddus qo‘shiqlaridan kuylanglar”, derdilar.

4 Qanday qilib begona yurtda
Biz Egamizga qo‘shiq kuylay olardik?!
5 Ey Quddus, agar seni unutsam,
O‘ng qo‘lim qurib qolsin.
6 Agar men seni eslamasam,
Quddusni eng katta shodligim deb bilmasam,
Tilim tanglayimga yopishib qolsin.

7 Ey Egam, Quddus qulagan kunda
Edomliklar* nima qilganini yodda tutgin.
Axir, ular: “Qulating, yiqiting uni!
Poydevorigacha qulatib tashlang!” deb baqirgan.

8 Ey Bobil shahri! Qirg‘inga mahkum bo‘lgansan*.
Bizga ne qilgan bo‘lsang, o‘shani
Boshingga soladiganlar baxtlidir.
9 Sening go‘daklaringni ushlab, qoyaga urib,

Tilka–pora qiladiganlar baxtlidir.

## 137–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Ey Egam, chin dildan Senga shukrona aytaman,
Farishtalar* oldida Sening madhingni kuylayman.
2 Muqaddas Ma'bading oldida sajda qilaman,
Sodiq sevging, sadoqating uchun O'zingga shukrona aytaman,
Nomingni ham, so'zingni ham har narsadan yuqori qo'ygansan.
3 Chaqirganimda, menga javob bergansan,
Qudrating bilan meni jasur qilgansan.

4 Ey Egam, zamin shohlari Senga shukur aytadi,
Og'zingdan chiqqan so'zlarni ular eshitganlar.
5 Ey Egam, ishlaringni ular kuylasinlar!
Zero, Sening shuhrating buyukdir!
6 Garchi Sen yuksak bo'lsang–da, xor bo'lganlarga boqasan,
Kiborlarni Sen uzoqdan ham bilasan.

7 Kulfatda yursam ham, dushmanlarim g'azabidan saqlaysan,
O'ng qo'lingni uzatib, meni qutqarasan.
8 Ey Egam, men uchun qasos olasan*.
Sodiq sevging to abad davom etar,
O'zing yaratganlarni tark etmagin.

## 138–SANO

*Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

1 Ey Egam, meni O'zing sinab ko'rib, bilgansan,
2 Qachon o'tirib, qachon turishimni O'zing bilasan,
O'y–xayollarimni uzoqdan turib anglab olasan,
3 Yurishimni, yotishimni Sen tekshirasan,
Barcha yo'llarim Senga oyday ravshandir.
4 Biron so'z tilimga kelmasdan oldin,
Ey Egam, Sen hammasini bilasan.
5 Meni hamma tomondan o'rab olgansan,
Qo'llaringni ustimga qo'ygansan.
6 Donoliging men uchun juda ajoyibdir,
Shu qadar yuksakki, men anglay olmasman.

7 Sening Ruhingdan qochib, qayerga ham bora

olaman?!
Sening huzuringdan qayerga ham keta olaman?!
8 Agar osmonga chiqsam, Sen oʻsha yerdasan!
Oʻliklar diyoriga* tushsam ham, Sen oʻsha yerdasan!
9 Saharning qanotlarini olib parvoz qilsam,
Dengizning eng uzoq chetlariga oʻrnashsam,
10 Hatto u yerda ham qoʻllaring meni yetaklar,
Oʻng qoʻling meni quvvatlar.
11 Agarda: "Shubhasiz, meni zulmat qamrab oladi,
Atrofimda kunduz tunga aylanadi", deb aytsam,
12 Hatto zulmat ham Sen uchun qorongʻi emas,
Tun kunduz kabi nur sochar,
Tunu kunduz Sen uchun birdir.

13 Ichki a'zolarimni Sen yaratgansan,
Onamning qornida menga shakl bergansan.
14 Senga shukrona aytaman.
Axir, qanday ajoyib qilib yaratilganman!
Sening barcha ishlaring naqadar ajoyib,
Buni men juda yaxshi bilaman.
15 Men pinhon yaratilganimda,
Yerning tubida* mahorat ila toʻqilganimda,
Suyaklarim Sendan yashirin emas edi.
16 Koʻzlaring koʻrgandi homila ekanimni.
Menga ajratilgan kunlar kelmasdan,
Hammasi kitobingga yozilgandi.
17 Sening niyatlaring, ey Xudo, menga qadrlidir,
Niyatlaringning son–sanogʻi naqadar koʻpdir.
18 Qumdan ham koʻp boʻlardi agar ularni
sanaganimda,
Uygʻonganimda qarasam, hamon men bilan ekansan
birga.

19 Ey Xudo, koshki fosiqni oʻldirsang edi,
Qonxoʻr mendan uzoqlashsa edi,
20 Sen haqingda ular fitna qiladilar,
Dushmanlaring Sening noming bilan yolgʻon qasam
ichadilar.
21 Ey Egam! Sendan nafratlanganlardan men
nafratlanmaymanmi?!
Senga qarshi isyon qilganlardan men
jirkanmaymanmi?!
22 Ulardan butunlay nafratlanaman,
Ularni oʻzimning dushmanim deb bilaman.

[23] Tekshirib ko‘r meni, ey Xudo, yuragimni bil,
Sinab ko‘r meni, tashvishlarimni bil.
[24] Bilgin–chi, mening biron qabihligim bormikan?
Meni abadiy yo‘ldan* yetaklab borgin.

## 139–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

[2] Yomonlardan meni qutqar, ey Egam,
Zo‘ravonlardan himoya qil meni.
[3] Ular yuraklarida qabihlikni qasd qiladi,
Doimo urush–janjallarni qo‘zg‘aydi.
[4] Ular tillarini ilonday o‘tkir qiladi,
Tillaridan ilon zahri tomadi.

[5] Ey Egam, meni qabihlarning qo‘lidan qutqar,
Yiqitmoqchi bo‘lgan zo‘ravonlardan meni himoya qil.
[6] Takabburlar men uchun tuzoq qo‘yganlar,
Ular to‘rlarining iplarini yoyganlar,
Yo‘lim bo‘ylab menga qopqon qo‘yganlar.

[7] Ey Egam, Senga aytaman: “Sen Mening
Xudoyimsan.”
Quloq sol, ey Egam, Senga iltijo qilaman.
[8] Ey Egam Rabbiy, qudratli najotkorim!
Jang kunida boshimni omon saqlading.
[9] Ey Egam, fosiqning istagini bajo qilmagin,
Ularning qabih rejalariga omad bermagin,
Ular mag‘rurlanib ketmasin.

[10] Atrofimni o‘rab olganlarning tahdidlari,
O‘zlarining boshiga kelsin.
[11] Yonayotgan ko‘mir cho‘g‘i o‘zlariga yog‘ilsin,
Ular olovga, iflos chuqurlarga uloqtirilsin–u,
Aslo qaytib chiqmasin.
[12] Tuhmatchilarga yurtda aslo joy bo‘lmasin,
ko‘karmasin,
Falokat zolimning izidan tushib, uni yo‘q qilsin.

[13] Bilaman, ey Egam, mazlumni himoya qilasan,
Bechoraholni adolat ila qo‘llab–quvvatlaysan.
[14] Solihlar albatta Senga shukrona aytadi,
To‘g‘ri insonlar huzuringda istiqomat qiladi.

# 140–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Senga yolvoraman, ey Egam, yonimga tez kelgin,
Senga yolvorganimda ovozimga quloq solgin.
2 Ibodatimni tutatqi nazriday qabul qilgin,
Qo‘llarimni ko‘targanimni kechki qurbonlik deb bilgin.

3 Ey Egam, og‘zimga posbon qo‘ygin,
Lablarim eshigini qo‘riqlagin.
4 Yuragimni qabihlikka burmagin,
Yomon ishlarga qo‘shilishimga yo‘l qo‘ymagin,
Badkirdorlarning jamoasida
Ziyofatlarini yeyishimga yo‘l qo‘ymagin.
5 Mayli, solih odam meni uraversin,
Sodiq odam meni to‘g‘rilasin,
Boshim shunday a’lo moyni rad qilmasin.

Mening ibodatim muttasil
Badkirdorlarning qabih ishlariga qarshidir.
6 Ularning hakamlari qoyadan uloqtiriladi,
Shunda fosiqlar so‘zlarim haq ekanligini bilib olishadi.
7 Badkirdorlar aytar: “Shudgor qilinib, parchalangan yerday,
Suyaklarimiz qabr* og‘zida maydalanib, sochilib yotibdi.”

8 Ko‘zlarim Sendadir, ey Egam Rabbiy,
Sendan panoh izlayman,
Meni tashlab qo‘ymagin.
9 Badkirdorlarning qopqonlaridan,
Ular qo‘ygan tuzoqdan meni saqlagin.
10 Men sog‘–omon o‘tib ketayin,
Fosiqlar qo‘ygan to‘rlariga o‘zlari tushsin.

# 141–SANO

*Dovud g‘orda bo‘lgandan keyin* aytgan qasidasi*. Ibodat.*

1 Ey Egam, Senga qattiq faryod qilaman,
Ey Egam, Senga qattiq yolvoraman.
2 Dardlarimni Senga to‘kib solaman,
Qayg‘ularimni Sening oldingda aytaman.

3 Ruhim so‘lg‘in bo‘lganda,
Yo‘llarimni Sen bilasan.

Men yuradigan so‘qmoqlarda
G‘animlarim menga tuzoq qo‘yishgan.
4 O‘ng tomonimga qarab ko‘r:
Menga e’tibor beradigan biron kimsa yo‘q.
Hech qayerga qochib keta olmayman,
Men uchun hech kim qayg‘urmas.

5 Senga yolvorib aytaman, ey Egam:
“Sen mening panohimsan,
Bu dunyodagi xavfsizligim Sensan.”
6 Faryodimga quloq solgin,
Axir, oyoq osti bo‘lib ketdim–ku.

Meni ta’qib qiluvchilardan qutqar,
Ular mendan g‘oyat kuchlidirlar.
7 Meni tutqunlikdan chiqarib olgin,
Toki Senga shukrona aytay.
Menga ezgulik qilganing uchun
Solihlar atrofimni o‘rab oladi.

## 142–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Eshitgin, ey Egam, ibodatlarimni,
Sen sodiqsan, iltijoimga quloq sol,
Sen odilsan, javob ber.
2 Men, O‘z qulingni hukm qilmagin,
Axir, Sening nazaringda hech kim solih emas.

3 Dushmanlar meni ta’qib qilgan,
Mening tanamni tuproqqa qorgan,
Azalda olamdan o‘tganlar kabi,
Meni zulmatda yashashga majbur qilar.
4 Shu bois ruhim so‘lgan,
Yuragim qo‘rquvdan uvushib qolgan.

5 Men oldingi kunlarni eslayman,
Sening hamma ishlaring haqida o‘ylayman,
Qo‘llaring ijodini xayolimga keltiraman.
6 Qo‘llarimni Senga ibodat uchun ochaman,
Qaqragan yer kabi jonim Senga tashna.

7 Ey Egam, menga tez javob ber,

Ruhim tushkunlikda,
Mendan yuz oʻgirmagin,
Toki qabrga kirganlarday boʻlib qolmayin.
8 Saharda sodiq sevgingni menga bildirgin,
Umidimni Senga bogʻlayman.
Yuradigan yoʻlimni Oʻzing koʻrsatgin,
Yuragimni Senga ochaman.
9 Ey Egam, meni gʻanimlarimdan qutqar,
Panoh istab Senga qochib borganman.
10 Sening xohishingni bajarmoqqa meni oʻrgat,
Sen Xudoyimsan, Sening ezgu Ruhing
Meni tekis soʻqmoqdan yetaklab borsin.

11 Ey Egam, Oʻz noming haqi meni saqlagin,
Adolating bilan meni kulfatdan qutqargin.
12 Sodiq sevging haqi qirgin gʻanimlarimni,
Yoʻq qilib tashlagin hamma dushmanlarimni,
Axir, men Sening qulingman–ku.

## 143–SANO

*Dovud sanosi.*

1 Egamga, suyangan qoyamga olqishlar boʻlsin,
U qoʻllarimni urushga, barmoqlarimni jangga
oʻrgatgan.
2 Egam doim menga sodiqdir,
U mening qalʼam, qoʻrgʻonim, xaloskorimdir.
Ha, Egam mening qalqonim,
Unda men panoh topaman,
Xalqlarni* U menga boʻysundiradi.

3 Ey Egam, inson zoti kimdirki, unga eʼtibor bersang?!
Bandalar* kimdirki, ular haqda oʻylasang?!
4 Inson umri ogʻizdan chiqqan nafasga oʻxshar,
Odamzodning hayoti oʻtkinchi soyaga oʻxshar.

5 Ey Egam, koʻklarni yorib, pastga tushgin,
Togʻlarga tekkin, ulardan tutun chiqsin.
6 Chaqmoq chaqtir, yovlarni tirqiratgin,
Oʻqlaringni ot, ularni sarosimaga solgin.
7 Yuqoridan uzat qoʻlingni, meni qutqargin,
Azim suvlardan meni chiqarib olgin,
Begonalar qoʻlidan meni qutqargin.
8 Ularning soʻzlari behuda,
Qoʻlini koʻtarib, ular yolgʻon qasam ichadi.

9 Ey Xudo, Senga yangi qoʻshiq kuylayman,
Oʻn torli arfa chalib Seni tarannum etaman.
10 Shohlarga Sen zafar ato etasan,
Quling Dovudni shafqatsiz qilichdan qutqarasan.
11 Kelgindilarning qoʻlidan
Meni xalos qil, qutqargin.
Ularning soʻzlari behuda,
Qoʻlini koʻtarib, ular yolgʻon qasam ichadi.

12 Oʻgʻillarimiz yoshligida yaxshi oʻsgan koʻchatga
oʻxshasin,
Qizlarimiz saroyning oʻymakor ustunlariga
oʻxshasin.
13 Omborlarimiz noz–ne’matlarga toʻlib–toshsin,
Qoʻylarimiz minglab, oʻn minglab yaylovlarda
koʻpaysin.
14 Hoʻkizimiz ogʻir yuklarni tortsin*,
Devorlarimiz darz ketmasin,
Odamlarimiz surgun boʻlmasin,
Koʻchalarimizda oh–voh, gʻamu kulfat boʻlmasin.

15 Naqadar baxtlidir bunday insonlar!
Baxtlidir Xudoni Egamiz deb bilgan xalq!

## 144–SANO

*Dovudning hamdu sanosi.*

1 Ey Xudoyim, Shohim! Seni ulugʻlayman!
To abad Sening nomingni olqishlayman!
2 Har kuni Seni olqishlayman,
Senga to abad hamdu sano aytaman.

3 Egamiz buyukdir, madh etilsin yanada,
Aql yetmas Uning buyukligiga.

4 Ey Egam, bir nasl boshqasiga maqtar ishlaringni,
Ular e’lon qilar qudratli ishlaringni.
5 Ular shonli dabdabangni, ulugʻvorligingni
soʻylaydilar,
Men esa ajoyib moʻjizalaring haqida oʻylayman*.
6 Odamlar qoʻrqinchli ishlaring qudrati haqida
aytadilar,
Men esa buyukligingni e’lon qilgayman.
7 Insonlar cheksiz ezguligingni xotirlab,
gapiraveradilar.
Adolatingni ular sevinch ila kuylaydilar.

8 Egamiz inoyatli, rahmdildir,
Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir.
9 Egamiz har kimsaga himmat qilar,
Yaratganlarining har biriga shafqat aylar.

10 Ey Egam, jamiki yaratganlaring Senga shukur
aytar,
Jamiki taqvodorlaring Senga olqishlar kuylar.
11 Saltanating shuhratini ular hikoya qilar,
Sening qudrating haqida ular so‘ylab yurar.
12 Hammani qudratli ishlaringdan,
Saltanating shuhratiyu dabdabasidan xabardor qilar.
13 Sening saltanating abadiy shohlikdir,
Hukmronliging nasllar osha davom etar*.

14 Yiqilayotganlarga Egamiz tayanch bo‘ladi,
Ikki bukilganlarning qaddini rostlaydi.

15 Ey Egam, hammaning ko‘zi umid bilan Senga
tikilar,
O‘z paytida ularning rizqini berasan.
16 Sen qo‘lingni ochib,
Jamiki jonzotning istagini qondirasan.

17 Egamiz hamma yo‘llarida adolat qilar,
Hamma ishlarida sevgisini ko‘rsatar.
18 Egamiz O‘ziga yolvorganlarning yonidadir,
Chin dildan iltijo qilganlarning yonidadir.
19 Undan qo‘rqqanlarning tilagini Egamiz qondirar,
Ularning nolasini eshitib, ularga najot berar.
20 Egamiz O‘zini sevuvchilarni asraydi,
Hamma fosiqlarni qirib tashlaydi.

21 Egamizning hamdu sanosi doimo tilimda bo‘ladi,
Jamiki jonzot Uning muqaddas nomini to abad
olqishlaydi.

## 145–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamni madh qil, ey jonim!
2 Tirik ekanman, Egamga hamdu sano aytaman,
Umrim boricha Xudoyimga hamdu sano kuylayman.

3 Umid bog‘lamang shahzodalarga,

Najot berolmaydigan inson zotiga.
4 Ular jon bergach, tuproqqa qaytar,
O‘sha ondayoq ularning rejasi yo‘qqa chiqar.

5 Yoqubning Xudosini madadkorim, deb aytganlar
baxtlidir,
O‘zlarining Egasi Xudodan umid qilganlar baxtlidir.
6 Ha, Yoqubning Xudosi
Osmonni, yerni hamda dengizni yaratgan.
Dengizu undagi hamma jonzotni U yaratgan,
U to abad sodiq bo‘lib qoladi,
7 Mazlumlarga adolat qiladi,
Ochlarga U non beradi.
Asirlarni ozod qiluvchi Egamizdir.
8 Egamiz ko‘rning ko‘zlarini ochadi,
Ikki bukilganlarning qaddini rostlaydi,
Egamiz solihlarni sevadi.
9 Egamiz musofirlarni asraydi,
Yetim va bevalarni qo‘llaydi,
Fosiqning yo‘llariga xalaqit beradi.

10 Egamiz to abad hukmdordir,
Ey Quddus*, sening Xudoying nasllar osha
hukmdordir!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 146–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Naqadar yaxshidir Xudoyimizni tarannum etmoq!
Naqadar lazzatli, munosib Unga hamdu sano
aytmoq!
2 Egamiz Quddusni qaytadan quradi,
Surgundagilarni Isroilga yig‘adi.
3 Ezilgan ko‘ngillarga U shifo beradi,
Ularning yaralariga malham qo‘yadi.
4 Yulduzlarning sonini U aniqlab chiqadi,
Ularning hammasiga nom beradi.
5 Rabbimiz buyukdir, qudrati azimdir,
Uning donoligi cheksizdir.
6 Egamiz mazlumlarni yuksaltiradi,
Fosiqlarni esa yerga urib ezadi.

7 Egamizga shukrona aytib tarannum qiling,
Xudoyimizga atab lirada kuy chaling.

8 U samolarni bulutlar ila qoplaydi,
U yerni yomg‘ir bilan ta’minlaydi,
Qir–adirlarda o‘t–o‘lan o‘stiradi.
9 U hayvonlarning rizq–ro‘zini beradi,
Qarg‘a bolalari qag‘illaganda ularga oziq beradi.
10 U otlarning kuchidan zavq olmaydi,
Sipohning kuchli oyoqlaridan xushlanmaydi.
11 Egamiz O‘zidan qo‘rqqanlardan xushlanadi,
Uning sodiq sevgisiga umid qilganlardan mamnun
bo‘ladi.

## 147–SANO

1 Egangni olqishlagin, ey Quddus!
Xudoyingga hamdu sano ayt, ey Sion!
2 Darvozalaring tambalarini U mustahkam qiladi,
Ichingdagi bolalaringga U baraka beradi.
3 Shohligingga U tinchlik ato qiladi,
Bug‘doyning eng yaxshisi bilan to‘ydiradi.

4 Xudo amrlarini yer yuziga yuboradi,
Uning aytgan so‘zlari tez yoyiladi.
5 U qorni oppoq ko‘rpaday yoyadi,
Qirovni kul kabi sochadi.
6 Do‘lni ushoq kabi yog‘diradi,
Uning sovug‘i oldida kim bardosh bera oladi?!
7 Kalomini yuborib, Egamiz muzlarni eritadi,
Shamolini esdirib, suvlar oqizadi.

8 Yoqub nasliga so‘zini ayon qiladi,
Qonun–qoidalarini Isroilga bildiradi.
9 Boshqa xalqlarga Egamiz shunday qilmadi,
O‘sha xalqlar Uning qonunlarini bilmaydi.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 148–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin samolardan,
Unga hamdu sanolar bo‘lsin falaklardan!
2 Ey Uning farishtalari,
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Ey Uning samoviy lashkarlari,
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

3 Unga hamdu sanolar bo‘lsin, ey quyosh, ey oy,
Hamdu sanolar bo‘lsin Unga, nurli yulduzlar!
4 Hamdu sanolar bo‘lsin Unga, ey falaklar toqi,
Ey samolar uzra joylashgan suvlar!*

5 Egamizga hamdu sano aytsin ular,
Egamizning amri bilan yaratilgan ular.
6 Egamiz bir farmon bilan ularni to abad joyiga
o‘rnashtirdi,
Bu farmon bekor qilinmaydi.

7 Yer yuzidan Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Ey jamiki tubsiz suvlar, dengiz maxluqlari,
8 Ey chaqmoq, qor, do‘l, bulutlar,
Uning amriga bo‘ysunuvchi bo‘ronlar
Egamizga hamdu sanolar ayting!

9 Madhiyalar ayting Unga, ey tog‘lar, jamiki qirlar,
Mevali daraxtlar, jamiki sadr daraxtlari!
10 Hamdu sano ayting Unga,
Ey yovvoyi hayvonlar, jamiki chorva,
Sudralib yuruvchilaru uchar qushlar!

11 Madhiyalar ayting Unga,
Ey zamindagi shohlar, jamiki xalqlar,
Shahzodalar, zamindagi hamma hukmdorlar!
12 Unga hamdu sano ayting yigitlar, qizlar,
Yoshu qari — hammangiz birga.

13 Hammasi Egamizga hamdu sano aytsin,
Yolg‘iz Uning nomi yuksakdir,
Shuhrati zaminu osmondan balanddir.
14 Egamiz O‘z xalqini qudratli qildi*.
Shu bois taqvodorlari Uni ulug‘lamoqda,
Qadrdoni Isroil xalqi Uni madh etmoqda.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 149–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizga yangi bir qo‘shiq ayting,
Taqvodorlar jamoasiga hamdu sano ayting.
2 Isroil o‘z Yaratuvchisi tufayli quvonsin,
Quddus* xalqi o‘z Shohidan shod bo‘lsin.
3 Egamizga ular raqs ila hamdu sano aytsin,

Doira, lira Unga atab kuy chalsin.
4 Egamiz O‘z xalqidan xushnuddir,
Mazlumlarga najotni toj qilib kiydiradi.
5 Erishgan sharafi tufayli taqvodorlar shod bo‘lsin,
To‘shaklarida yotganlarida shodlanib qo‘shiq aytsin.
6 Xudoga hamdu sano tillaridan tushmasin,
Qo‘llarida dudama qilichlar bo‘lsin,
7 Toki yot xalqlardan qasos olsin,
Elatlarga jazosini bersin,
8 Ularning shohlarini zanjirband qilsin,
Aslzodalariga temir kishanlar solsin.
9 Ular ustidan Xudoning hukmini ijro etsin,
Taqvodorlari uchun sharaf shudir.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

## 150–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin muqaddas maskanida,
Unga hamdu sanolar bo‘lsin
Samoda — mustahkam qal’asida.
2 Qudratli ishlari uchun Unga hamdu sanolar bo‘lsin,
Tengsiz buyukligi uchun madhiyalar bo‘lsin.

3 Unga hamdu sano ayting burg‘u chalib,
Unga hamdu sano ayting arfa, lira chalib.
4 Doira chalib, raqs ila Unga hamdu sano ayting,
Torli asbob, nay chalib, Unga madhiyalar ayting.
5 Jarangdor zillar chalib, Unga hamdu sano ayting,
Ohangdor zillarni qattiq chalib, Unga madhiyalar ayting.
6 Egamizga hamdu sano ayting,
Ey jamiki tirik jonzotlar!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

# IZOHLAR

**2:6** *Sion* — Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

**2:7** *...Sen mening o‘g‘limsan, Bugun Men senga ota bo‘ldim* — qadimgi paytlarda ba’zan shohanshoh va uning qo‘li ostidagi boshqa bir shoh orasidagi munosabat ota–o‘g‘il munosabatiday tasvirlangan. Ushbu oyatda Dovud naslidan bo‘lgan, toj kiydirilgan yangi shoh Xudoning o‘g‘li deb aytilgan. Shohanshoh Xudo esa bu oyatda o‘sha shohning otasi sifatida tasvirlangan. 2 Shohlar 7:8-16, Zabur 88:20-30 ga qarang.

**2:9** *...ularni urib ezasan...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *...ularni boshqarasan...*.

**2:11** *Vahima ila tavba qiling!* — yoki *Titrab, shod bo‘ling!*

**2:12** *Uning o‘g‘li* — shu sanoning 7–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

**3:1** *O‘g‘li Absalomdan qochib ketgandan keyin...* — 2 Shohlar 15:13-17:22 ga qarang.

**3:5** *Muqaddas tepaligi* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**4:3** *Ey insonlar, qachongacha...yolg‘onlarni izlab yurasiz?!* — yoki *Ey insonlar, qachongacha mening ulug‘vor Xudoyimni kamsitasiz?! Qachongacha arzimas narsalarga ko‘ngil qo‘yasiz?! Soxta xudolarni izlab yurasiz?!*

**4:5** *Hatto g‘azablanganingizda ham gunoh qilmang...* — yoki *Qo‘rquvdan titrang, gunoh qilmang...*.

**6:6** *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi. Yana 87:11-13 ga qarang.

**8:5** *Bandalar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Inson o‘g‘li*. Bu ibroniycha ibora ko‘chma ma’noda ishlatilib, odamning o‘tkinchi ekanligini bildiradi.

**8:6** *O‘zing* — ibroniycha matnda *elohim*. Odatda bu so‘z Xudoga ishora qiladi, ammo qudratli hukmdorlar, ilohiy mavjudotlar yoki farishtalarni ham bildirishi mumkin.

**8:7** *Jamiki yaratganing uzra ularni hukmron qilding...* — Ibtido 1:26-28 ga qarang.

**9:1** *Qizlar* — yoki *O‘g‘ilning o‘limi*.

**9:12** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 15–oyatida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

**9:16** *Xalqlar o‘zlari qazigan chuqurga o‘zlari yiqildi...* — 7:16-17 ga qarang.

**9:18** *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**10:6** *Qabihning ustiga cho‘g‘, oltingugurt yog‘diradi...* — Ibtido 19:24-25 ga qarang.

**10:6** *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol. Bu o‘rinda majoziy ma’noda ishlatilib, Xudoning hukmini bildiradi.

**13:1** *Ahmoqlar — ahmoqlar* deb tarjima qilingan ibroniycha so‘z axloqsiz odamlarga

ishora qiladi. Bunday odamlar Xudoni sevishni va Unga ishonishni rad qiladilar.

**13:7** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**14:1** *Sening muqaddas tog‘ing* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**15:10** *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**15:10** *Taqvodoring* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Muqaddas bo‘lganing*.

**17:3** *qoya* — bu obraz ba’zan ibroniy she’riyatida ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, Egamizni toqqa o‘xshatadi. Egamizning xalqi o‘z dushmanlaridan qutulish uchun, qochib Egamizda panoh topadi. Bu obraz Egamizning barqarorligini va qoyaday mustahkam ekanligini ko‘rsatadi.

**17:3** *qudratli najotkorim* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *najotimning shoxi* yoki *meni qutqaradigan shox*. Ho‘kizning shoxi kuch–qudrat ramzi edi, chunki ho‘kiz qadimiy Yaqin Sharqdagi eng kuchli hayvonlardan biri edi.

**17:6** *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**17:11** *karub* — qanotli samoviy mavjudot. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

**17:14** *...Xudoyi Taoloning sadosi eshitildi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 2 Shohlar 22:14 ga qarang). Ibroniycha matnda *do‘l va qip–qizil cho‘g‘* degan ibora bu misraning oxiriga qo‘shilgan.

**17:16** *Zamin poydevori* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

**18:4-5** *Samo, falak aytmas bir gap...*[5] *Ammo xabarlari...* — yoki *Biron xalq yo‘qki, samoyu falakning ovozini eshitmasa, Til yo‘qki, uni tushunmasa.* [5] *Ammo ularning ohanglari...*.

**19:3** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**19:10** *Ey Egam...javob bergin bizga* — yoki *Ey Egam, ato qilgin g‘alaba. Ey Shohimiz, iltijo qilganimizda, javob bergin bizga*.

**21:13** *buqalar* — sano ijodkori bu so‘z orqali dushmanlarini nazarda tutgan. U dushmanlarini yana sherlar (shu sanoning 14, 22–oyatlariga qarang), ko‘ppaklar (shu sanoning 17, 21–oyatlariga qarang) va yovvoyi buqalar (shu sanoning 22–oyatiga qarang) deb ataydi.

**21:13** *Bashan o‘lkasi* — Bashan Jalila ko‘lining shimoli–sharqida joylashgan bo‘lib, o‘zining ko‘m–ko‘k yaylovlari va sog‘lom nasldor, chorvasi bilan mashhur edi.

**21:16** *Madorim qurib, sopol parchasiday bo‘lib qoldim* — yoki *Og‘zim sopol parchasiday qurib ketdi*.

**21:17** *...Qo‘lu oyoqlarimni ular ilma–teshik qiladi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...Sher kabi, qo‘l–oyoqlarim*. Bu iborani *...Ular sher kabi, qo‘l–oyoqlarimni bosib turadilar* yoki *...Ular sher kabi, qo‘l–oyoqlarimni g‘ajiydilar* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

**21:27** *...yeb to‘yadilar...* — sano ijodkori Xudodan olgan yordami uchun Xudoga

shukrona bildirish niyatida Ma’badga nazr olib kelgan. So‘ng o‘sha nazrning bir qismini taom sifatida qashshoqlarga ulashib bergan.

**22:4** *zulmat vodiysi* — yoki *o‘lim vodiysi zulmati*.

**22:4** *tayoq* — yovvoyi hayvonlarni haydab yuborish uchun ishlatilgan.

**22:4** *Xivich* — qo‘ylarga yo‘l ko‘rsatish, ularni boshqarish va xavfli joylardan qutqarish uchun ishlatilgan.

**23:2** *U olamni o‘rnatgan…ummonlar uzra* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

**23:3** *Uning tepaligi* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**23:6** *…Xudoga intilgan Yoqub nasli…* — yoki *…Yoqubning Xudosiga intilgan odamlar…*.

**24:1** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

**25:3** *…Senga doim sodiqman* — yoki *…Sadoqating tufayli yo‘limni topaman*.

**27:2** *maskan* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z Ma’badning Eng muqaddas xonasiga ishora qiladi.

**28:1** *ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudoning o‘g‘illari*. Bu ibora samoda yashaydigan mavjudotlarga, jumladan, farishtalarga nisbatan ishlatilgan. Xudoning taxti atrofida samoviy mavjudotlar yig‘ilgani haqida Eski Ahdda bir necha marta so‘z yuritilgan (misol uchun, 81:1, 88:6-8 ga va 3 Shohlar 22:19-22, Ishayo 6:1-8 ga qarang).

**28:2** *Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!* — yoki *Egamizning muqaddas maskani ulug‘vorligi ichra Unga sajda qiling!* yoxud *Muqaddas liboslarda Egamizga sajda qiling!*

**28:5** *Lubnondagi sadr daraxtlari* — Lubnon tog‘larida o‘sadigan bu sadr daraxtlari dunyoning o‘sha hududidagi eng katta daraxt turlaridan edi.

**28:6** *Xermon tog‘i* — ibroniycha matnda *Siriyon*, Xermon tog‘ining yana bir nomi (Qonunlar 3:9 ga qarang). Xermon tog‘i — hozirgi Suriyaning eng baland tog‘i.

**28:9** *…ulkan daraxtlarni egib yuboradi…* — yoki *…bug‘u tug‘ishiga sabab bo‘ladi…*.

**28:10** *to‘fon* — shu sanoning 3–oyatida aytib o‘tilgan suvlarga ishora qilingan, shuningdek, olamni yo‘q qilib yuborgan to‘fonga ishora qilayotgan bo‘lishi ham mumkin (Ibtido 7:1-8:22 ga qarang). Xudo bu qudratli kuchlarni boshqaradi.

**29:4** *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**29:10** *Tuproq Senga hamdu sano aytarmi?!* — 6:6 ga qarang.

**29:12** *Aza libosi* — ibroniycha matnda *Qanor*. Qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan (shu sanoning 8-10–oyatlariga qarang).

**30:11** *Gunohlarim* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va suryoniycha

tarjimalarda *kulfatlarim*.

**30:18** *O'liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo'l*. 6:6 izohiga qarang.

**31** *qasida* — ta'lim beradigan yoki marsiya mazmunidagi she'r. Bu o'rindagi ibroniycha so'zning ma'nosi bahsli.

**32:7** *U dengiz suvlarini...joylab qo'ygan* — Ibtido 1:6-8 ga qarang.

**33:1** *Dovud...uning huzuridan quvilgandan keyin...* — 1 Shohlar 21:10-22:1 ga qarang (Abumalek nomi Filist shohlariga nisbatan ishlatilgan unvon bo'lishi mumkin).

**33:2** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she'rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so'z ibroniy alifbesi tartibi bo'yicha boshlanadi.

**34:13** *...Men qanor kiyib, ro'za tutib, qayg'u chekardim* — qanor dag'al qoramtir mato bo'lib, echki yoki tuya junidan to'qilgan. Qanor kiyib olish va ro'za tutish umidsizlikni va qayg'uli holatni ifodalaydi. Ko'pincha bu harakat Xudodan kechirim so'rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

**34:13** *Boshimni quyi solib, ibodat qilardim* — yoki *Ular uchun ibodat qilardim, ammo mening ibodatlarim javobsiz qolardi*.

**36:1** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she'rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so'z ibroniy alifbesi tartibi bo'yicha boshlanadi.

**37:6** *Aqlsizligim* — gunohkorona xulq–atvor nazarda tutilgan.

**38:1** *Yodutun* — 1 Solnomalar 16:41-42, 25:1, 3 ga qarang.

**39:7** *Gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so'rab keltirgan qurbonligi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi QURBONLIK so'zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

**39:7** *Sen qurbonligu nazrni istamading...Itoat qilishim uchun Sen quloqlarimni ochding* — 1 Shohlar 15:22 ga qarang.

**39:8** *Muqaddas bitiklarda men haqimda yozilgan* — Qonunlar 17:14-20 nazarda tutilgan bo'lishi mumkin, bu oyatlarda Isroil shohlari uchun ko'rsatmalar berilgan.

**41:1** *Ko'rax nasli* — ular Ma'bad sozandalari edi (1 Solnomalar 6:31-38 ga qarang).

**41:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**41:7** *Xermon* — hozirgi Suriyaning eng baland tog'i.

**41:7** *Mizor tog'i* — aynan qayerda joylashgani ma'lum emas. Xermon tog'iga yaqin yerda bo'lishi mumkin.

**42:3** *Muqaddas tog'ing* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**43:1** *Ko'rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**43:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**43:3** *...Ozod qilding Sen otalarimizni* — yoki *...Sen otalarimizni gullatib–yashnatding* yoxud *...Sen begona xalqlarni quvib yubording*.

**44:1** *Ko'rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**44:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**44:7** *Xudo bergan taxting…* — yoki *Ey Xudo, taxting…*.

**44:9** *mirra* — maʼlum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan xushboʻy modda.

**44:10** *Ofir* — bu yurt Arabiston yarim orolining janubida joylashgan boʻlishi mumkin. Ofir oltini eng sifatli oltin hisoblangan.

**44:13** *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega boʻlgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, Oʻrta yer dengizi boʻyida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

**45:1** *Koʻrax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**45:5** *Xudo shahri* — Quddusga ishora.

**45:10** *Qalqonlar* — yoki *Jang aravalari*.

**46:1** *Koʻrax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**46:10** *Zaminning shohlari* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Zaminning qalqonlari* (83:10 ga qarang).

**47:1** *Koʻrax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**47:2** *Oʻzining muqaddas togʻi* — Quddusdagi Sion togʻiga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**47:3** *Buyuk Shohning shahridagi, Uning shimolidagi…* — yoki *Buyuk Shohning shahri boʻlgan, Zofunning buyuk choʻqqilariga oʻxshagan…*. Ibroniy tilida odatda *Zofun* soʻzi "shimol" maʼnosini ifodalab, Sion togʻi Quddus shahrining shimoliy qismida joylashganiga ishora qilayotgan boʻlishi mumkin. Ammo *Zofun* Isroildan shimolda, Finikiyada joylashgan bir togʻning ham nomidir. Bu hududda yashagan xalqlarning eʼtiqodi va tasavvuriga koʻra, xudolar aynan shu togʻda yigʻilishardi. Baʼzi olimlarning fikri boʻyicha, sano ijodkori bu yerda oʻzining, Xudo Sion togʻida yashaydi, degan ishonchini taʼkidlash uchun bu parchada Zofun togʻiga ishora qilyapti.

**47:3** *Sion togʻi* — Quddusdagi Maʼbad qurilgan tepalik Sion togʻi deb atalgan. Eski Ahddagi sheʼriy parchalarda va paygʻambarlar bitiklarida Sion soʻzi koʻpincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi SION soʻziga qarang.

**47:8** *Tarshish* — hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bu bandargoh shahar oʻzining katta va haybatli kemalari bilan mashhur edi. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi BANDARGOH soʻziga qarang.

**47:13** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**48:1** *Koʻrax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**48:8** *hayoti* — yoki *birodarining hayoti*.

**48:12** *…berganda ham…Maskani nasldan naslga oʻtaveradi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…bergan. Ular, uylarimiz to abaddir, maskanlarimiz nasldan naslga oʻtaveradi, deb oʻylaydilar*.

**48:15** *…oʻliklar diyori…Oʻliklar diyori…* — ibroniycha matnda *…Sheoʻl…Sheoʻl…* (shu sanoning 16–oyatida ham bor). 6:6 izohiga qarang.

**49** *Osif* — 1 Solnomalar 6:31-33, 39-43, 25:1-2 va Ezra 2:41 ga qarang.

**49:2** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**50:1-2** *Natan payg'ambar kelib, Dovudning Botsheva bilan qilgan gunohini fosh etgandan keyin...* — 2 Shohlar 11:1-12:25 ga qarang.

**50:8** *o'rgatgin* — yoki *o'rgatasan*.

**50:9** *issop o'ti* — bu o'simlikdan ko'pincha poklash marosimlarida odamlarga yo narsalarga suv yoki qon sepish uchun ishlatilgan (Chiqish 12:21-23, Levilar 14:1-7 va Sahroda 19:1-19 ga qarang). Bu o'rinda sano ijodkori kechirim orqali ruhan poklanish istagini ifodalab, poklanish marosimiga ishora qilyapti.

**51:1-2** *Edomlik Doyeg...xabar bergandan keyin...* — 1 Shohlar 21:7, 22:9-10 ga qarang.

**51:1-2** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**52:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**52:2** *Ahmoqlar* — 13:1 izohiga qarang.

**52:7** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**53:1-2** *Zifliklar...xabar berganlaridan keyin...* — 1 Shohlar 23:14-25, 26:1-5 ga qarang.

**53:1-2** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**54:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**54:16** *o'liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo'l*. 6:6 izohiga qarang.

**55:1** *Filist xalqi Dovudni Gat shahrida tutib olgandan keyin...* — 1 Shohlar 21:10-15, 27:1-4 ga qarang.

**55:8** *Jinoyatlari uchun ularni uloqtir...* — yoki *O'zlarining jinoyatlari uchun ular jazodan qutulib qoladilarmi?!*

**56:1** *...g'orda yashirinib qutulganidan keyin...* — 1 Shohlar 24:1-22 ga qarang.

**56:3** *...Men uchun qasos oluvchi Xudoga* — yoki *...Hayotim uchun O'z maqsadini amalga oshiradigan Xudoga* yoxud *...Menga ezgulik qiladigan Xudoga*.

**56:5** *sherlar* — sano ijodkorining dushmanlariga ishora qilayotgan ko'chma ma'nodagi so'z.

**58:1** *Shoul Dovudni o'ldirish uchun uning uyini kuzatishga kishi yuborgandan keyin...* — 1 Shohlar 19:11-17 ga qarang.

**59:1-2** *Oram–Naxrayim* — ibroniychadagi ma'nosi *Ikki daryoning Orami* demakdir. Bu yer Furot daryosi bo'yida joylashgan bo'lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi.

**59:1-2** *Oram–Zo'vo* — bu yer hozirgi Suriya mamlakatining markaziy qismida joylashgan edi.

**59:1-2** *Dovud Oram–Naxrayim va Oram–Zo'vo xalqi bilan urush qilayotgan paytda...* — 2 Shohlar 8:3-8, 10:16-18 va 1 Solnomalar 18:3-11, 19:6-19 ga qarang.

**59:1-2** *Tuz vodiysi* — O'lik dengizning janubidagi o'lka.

**59:5** *sharob* — bu o'rinda Xudo g'azabining ramzi bo'lib, sharobdan mast bo'lish

Xudoning hukmiga duchor boʻlishni bildiradi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang).

**59:6** *Ular kamon oʻqlaridan yashirinib olsin deya...* — yoki *Ular haqiqat haqi bayroq ostida yigʻilsin, deya...*.

**59:7** *...Iltijoimizga javob bergin...* — yoki *...Iltijoimga javob bergin...*.

**59:8** *...Oʻz muqaddas makoningdan vaʼda bergansan...* — yoki *...Sen muqaddassan, vaʼda bergansan...*.

**59:8** *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar.

**59:8** *Suxot vodiysi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

**59:9** *Gilad...Manashe...* — Gilad oʻlkasi Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan. Manashe Isroil xalqining qabilalaridan biri boʻlib, bu qabilaning hududi Iordan daryosining sharq va gʻarb tomonida joylashgan edi.

**59:9** *...Efrayim...Yahudo...* — Isroil xalqining ikkita yetakchi qabilasi. Efrayim Isroilning shimolida, Yahudo janub tomonida joylashgan edi. Ikkala qabila ramziy maʼnoda butun Isroil xalqini ifoda etadi.

**59:10** *...chorigʻimni otaman...* — qadimgi Isroilda kimdir yerdan bir qismini mulk qilib olishga daʼvogarlik qilganda chorigʻini otgan, shu ramziy xatti–harakat odat boʻlib qolgan.

**59:10** *Moʻab...Edom...Filistlar* — Isroilning sharq, janub va gʻarbidagi qoʻshni xalqlari boʻlib, ular Isroilga dushman edilar. Moʻab yurti Oʻlik dengizning sharqida, Edom yurti Oʻlik dengizning janubida joylashgan edi. Filistlar Oʻrta yer dengizi boʻyida yashagan.

**59:11** *mustahkam shahar* — Edom yurtining poytaxti Sela nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

**61:1** *Yodutun* — 1 Solnomalar 16:41-42, 25:1, 3 ga qarang.

**62:1** *Dovud Yahudo choʻlida boʻlgandan keyin...* — 2 Shohlar 15:13-28, 16:1-2, 13-14, 17:16, 27-29 ga qarang.

**64:2** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**64:4** *ustimizdan* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *ustimdan*.

**64:4** *...kechirasan gunohlarimizni* — yoki *...poklaysan gunohlarimizdan*.

**65:6** *Xudo dengizni quruq yerga aylantirdi, Ota–bobolarimiz bahrdan yurib oʻtdi...* — Chiqish 14:21-22 ga qarang.

**65:12** *Farovonlik* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalarda *keng yer*, yaʼni ozod, bexatar oʻlka.

**67:9** *Sinay togʻining Xudosi* — Isroil xalqi Misrdan Kanʼon yurtiga ketganda, Xudo Sinay togʻida ularga Oʻzini zohir qilgan edi (Chiqish 19:10-25 ga qarang).

**67:10** *yering* — Isroil xalqi oʻrnashgan Kanʼon yurti.

**67:15** *Zalmon togʻi* — Shakam shahri yaqinida joylashgan Ebal togʻining yoki Garizim togʻining yana bir nomi (Hakamlar 9:46-49 ga qarang) yoki Iordan daryosining

sharqidagi bir tog‘.

**67:16** *Bashanning tog‘i* — Bashan o‘lkasida, Jalila ko‘lidan qariyb 60 kilometr shimoli–sharqda joylashgan Xermon tog‘i nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Xermon tog‘i hozirgi Suriyaning eng baland tog‘i bo‘lib, uchta alohida–alohida cho‘qqisi bor.

**67:17** *Xudo makon qilib tanlagan tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**67:19** *Yuksaklar* — Sion tog‘ida joylashgan Ma’bad nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Sano ijodkori Rabbiyni o‘z taxtiga ko‘tarilayotgan g‘olib shoh sifatida tasvirlaydi.

**67:28** *...Benyamin...Yahudo...Zabulun, Naftali...* — Isroil xalqining qabilalaridan to‘rttasi. Benyamin va Yahudo qabilalari Isroil yurtining janubida, Zabulun va Naftali qabilalari shimolida joylashgan edi.

**67:29** *Ey Xudo, ko‘rsatgin qudratingni!* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Sizlar qudratli bo‘lasizlar, deb Xudoyingiz qaror qilgan edi*.

**67:31** *...qamishzor orasidagi o‘sha yovvoyi hayvon...* — Nil daryosidagi begemot nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Begemot Misr xalqining ramzi edi.

**67:32** *Misrdan bronza keltiriladi...* — yoki *Aslzodalar Misrdan keladi...*.

**67:32** *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

**68:11-12** *...ro‘za tutganimda...[12]...qanor kiyganimda...* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanor kiyib olish va ro‘za tutish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

**68:13** *Shahar darvozasi oldida...* — qadimgi paytlarda odamlar savdo–sotiq, ijtimoiy va huquqiy masalalarni hal qilish uchun shahar darvozasi oldida yig‘ilishardi.

**68:36** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**71:5** *...Uning umri ham shunchalik uzoq bo‘lsin* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *...Shunday uzoq vaqt davomida Sendan qo‘rqsinlar*.

**71:10** *Tarshish* — 47:8 izohiga qarang.

**71:10** *Shava* — Arabiston yarim orolining janubi–g‘arb tomonida bo‘lgani ehtimoldan holi emas. Keyinchalik Shava malikasi shoh Sulaymonga hadyalar olib kelgan edi (3 Shohlar 10:1-13 ga qarang).

**71:10** *Savo* — Arabiston yarim orolining janubida yoki Afrikada, Qizil dengizning g‘arbiy bo‘yida joylashgan bo‘lishi mumkin.

**72** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**72:4** *Ular og‘riq nimaligini bilmaydilar...* — yoki *Ular o‘lim paytigacha og‘riqni sezmaydilar...*.

**72:10** *Shu bois har kim ularga yuz buradi, Ularning so‘zlarini suv kabi ichadi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Shu bois uning xalqi shu yerga qaytib keladi va mo‘l–ko‘l suvni simirib ichadi*. Ibroniycha matnda bu oyatning ma’nosi bahsli.

**73** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**73** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**73:14** *Levitan* — Kan'on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq. Levitan halokat keltiruvchi dengiz kuchlarining va oʻrnatilgan barcha tartibga tahdid soladigan buzgʻunchi kuchlarning ramzidir. Muqaddas Kitobda Xudoning Levitan ustidan qozongan gʻalabasi Uning kuch–qudrati ramzidir. Zotan, Xudo butun borliq ustidan, shuningdek, Oʻz xalqining dushmanlari ustidan gʻolib boʻlgan qudratli Hukmdordir.

**73:14** *Choʻl jonzotlari* — yoki *Choʻlda yashaydigan odamlar*.

**73:16** *oy* — yoki *yulduzlar*.

**74:1** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**74:4** *Zamin ustunlari* — 17:16 izohiga qarang.

**74:9** *sharob* — 59:5 izohiga qarang.

**75:1** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**75:3** *Quddus* — ibroniycha matnda *Salim*, Quddusning qadimgi nomi.

**75:11** *Insonga boʻlgan gʻazabing…* — yoki *Senga boʻlgan inson gʻazabi…*.

**75:11** *…Gʻazabingdan qutulganlarni atrofingga toʻplaysan* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *…Gʻazabning qolganini kiyib olasan*. Oyatning bu qismidagi ibroniycha matnning ma'nosi bahsli.

**75:12** *atrofidagilari* — atrofdagi xalqlarning hukmdorlari (shu sanoning 13–oyatiga qarang) yoki samodagi kengashda ishtirok etgan ilohiy zotlar nazarda tutilgan (81:1, 88:8 ga qarang).

**76:1** *Yodutun* — 1 Solnomalar 16:41-42, 25:1, 3 ga qarang.

**76:1** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**76:2** *…Eshitgin meni, deb Xudoga hayqiraman* — yoki *…Xudoga hayqiraman, meni eshitadi*.

**76:7** *Tun boʻyi oʻzim bilan oʻzim suhbat qurdim…* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Tunda aytgan qoʻshiqlarimni esladim…*.

**77** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**77** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**77:5** *Ota–bobolarimizga amr berib…dedi* — Qonunlar 6:6-7 ga qarang.

**77:9** *Efrayim jangchilari* — Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila boʻlgani bois, Eski Ahdning ba'zi oʻrinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya'ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. Bu shohlikning poytaxti Samariya edi. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi EFRAYIM soʻziga qarang.

**77:9** *…Jang kunida ortiga qaytdi* — Efrayim qabilasi va Isroil, ya'ni shimoliy shohlik jangda qoʻrqoqlik koʻrsatganligi haqida hech qayerda aytib oʻtilmagan. Bu yerda sano ijodkori ular haqida, jangdan orqaga qaytdi, deb aytganda, Isroil xalqining Xudo bilan qilgan ahdiga bevafolik qilgani va shu sababli ularning shohligi qulaganini nazarda tutgan boʻlsa kerak (shu sanoning 60, 67-68–oyatlariga va 60–oyatning izohiga qarang).

**77:12** *Zo'van tekisligi* — Go'shen yerlarining yana bir nomi, bu joy Nil deltasining sharq tomonida joylashgan edi. Zo'van bu tekislikdagi muhim shahar bo'lib, Ramzes nomi bilan ham atalar edi. Ibtido 47:11, 27 ga qarang.

**77:13** *Dengizni yorib...Suvlarni devor kabi tik qilib qo'ydi* — Chiqish 14:21-29 ga qarang.

**77:14** *Kunduzi ularni...Tun bo'yi...yetakladi* — Chiqish 13:21-22 ga qarang.

**77:15-16** *U sahrodagi qoyalarni parchaladi...[16]...Suvlarni...oqizdi* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:2-11 ga qarang.

**77:18** *Ular ataylab Xudoni sinadilar...* — Chiqish 16:2-15, Sahroda 11:4-23 ga qarang.

**77:21** *Egamiz ularning gapini eshitib...Isroil nasliga qarshi qahrini sochdi* — Sahroda 11:1-3 ga qarang.

**77:24** *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan'on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog'ilardi, odamlar saharda turib, uni yig'ib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

**77:31** *...Isroilning gulday yigitlarini yer tishlatdi* — Sahroda 11:31-35 ga qarang.

**77:43** *Zo'van tekisligi* — shu sanoning 12–oyati izohiga qarang.

**77:46** *chigirtkalar* — ba'zan to'da–to'da bo'lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

**77:47** *shikamora–anjir daraxtlari* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yong'oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o'xshash bo'lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

**77:44-51** *[44] Misrdagi daryolarni Xudo qonga aylantirdi...[51] Misrning hamma to'ng'ich o'g'illarini nobud qildi...* — Chiqish 7:14-12:32 ga qarang.

**77:51** *Xom avlodi* — Misrliklarga nisbatan qo'llangan she'riy usul. Xomning o'g'li Mizra Misr xalqining bobokalonidir (Ibtido 10:6 ga va o'sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

**77:55** *boshqa xalqlar* — Qonunlar 7:1 ga qarang.

**77:60** *Shilo'* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan bu shahar Efrayim qabilasining hududida edi. Shoh Dovud davridan oldin Shilo' Isroil xalqining sajda markazi bo'lgan edi (Yoshua 18:1, 1 Shohlar 1:3 ga qarang). Keyinchalik Yahudo qabilasining hududidagi Quddus sajda markazi bo'lib qoldi, Ma'bad Quddusda qurildi (shu sanoning 67-69–oyatlariga qarang).

**77:61** *...asir qilib berdi Ahd sandig'ini, O'zining qudratiyu shuhrati ramzini* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *...asir qilib berdi O'z qudratiyu shuhratini.*

**77:67** *Efrayim qabilasi* — shu sanoning 9–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

**77:68** *Yahudo qabilasi* — Yahudo qabilasi Isroilning janubiy qismidagi eng katta qabila edi. Shu bois Eski Ahdning ba'zi parchalarida Yahudo so'zi janubiy shohlikka nisbatan ishlatilgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi YAHUDO so'ziga qarang.

**77:67-68** *...Efrayim qabilasini tanlamadi. [68]...Yahudo qabilasini...Sion tog'ini tanladi* — Ma'badning Yahudo hududida, Quddusdagi Sion tog'ida qurilganiga ishora (shu sanoning 60–oyatiga va o'sha oyatning izohiga qarang).

**78** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**78:7** *Isroil* — ibroniycha matnda *Yoqub*, Isroil naslining yana bir nomi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

**79:1** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**79:2-3** *Yusuf nasli* — bu oʻrinda Isroil xalqi nazarda tutilgan. Yusuf Yoqubning Rohiladan koʻrgan toʻngʻich oʻgʻli edi. Efrayim va Manashe qabilalari Yusufning ikkala oʻgʻlidan tarqalgan nasllardir.

**79:2-3** *...Efrayim, Benyamin, Manashe...* — Isroil xalqining qabilalaridan uchtasi. Efrayim va Manashe gʻoyat muhim oʻrin tutgan shimoliy qabilalar edi.

**79:12** *dengiz* — yaʼni Oʻrta yer dengizi.

**79:14** *Yovvoyi toʻngʻizlar...Yovvoyi jonivorlar...* — Isroil xalqining dushmanlariga ishora qilayotgan koʻchma maʼnodagi iboralar.

**79:16** *novda* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *oʻgʻil*, Xudo oʻtqazgan tokka, yaʼni Isroil xalqiga ishora qilayotgan koʻchma maʼnodagi soʻz.

**79:18** *xalq* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *inson oʻgʻli*. Shu sanoning 16–oyatiga va oʻsha oyatning izohiga qarang. Yana 8:5 izohiga qarang.

**80:1** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**80:4** *bayram kunimiz* — Chayla bayrami nazarda tutilgan boʻlishi mumkin (Levilar 23:33-43 ga qarang).

**80:6** *Isroil* — ibroniycha matnda *Yusuf*. 79:2-3 ning birinchi izohiga qarang.

**80:7** *Yukni oldim yelkangizdan...Qoʻllaringiz savatdan ozod boʻldi* — Isroil xalqining Misrda qilgan ogʻir mehnati nazarda tutilgan (Chiqish 1:11-14 ga qarang).

**80:8** *...Mariva suvlari boʻyida...* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:1-13 ga qarang.

**81** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**81:1** *samodagi kengash* — Xudoning taxti atrofida samoviy mavjudotlar yigʻilgani haqida Eski Ahdda bir necha marta soʻz yuritilgan (misol uchun, 88:6-8, 3 Shohlar 22:19-22, Ayub 1:6-12, 2:1-6, 15:8, Ishayo 6:1-8 ga qarang).

**81:1** *xudolar* — ibroniycha matnda *elohim* (shu sanoning 6–oyatida ham bor). Odatda bu soʻz Xudoga ishora qiladi, ammo hukmdorlar, ilohiy mavjudotlar yoki farishtalarni ham bildirishi mumkin.

**81:5** *Zaminning poydevori* — 17:16 izohiga qarang.

**82:1** *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

**82:6-8** *Edomliklar...Moʻabliklar...* — Edom Oʻlik dengizning janubida, Moʻab shu dengizning sharqida joylashgan yurtlar edi.

**82:6-8** *...Ismoil avlodlari...Hojar nasllari...* — Iordan daryosining sharq tomonida yashagan qarindosh ikki arab qabilasi (Ibtido 25:12-18, 1 Solnomalar 5:10 ga qarang).

**82:6-8** *Gabol* — bu oʻrinda yo Oʻrta yer dengizi boʻyidagi Finikiyaga qarashli shahar (Bibl nomi bilan ham maʼlum boʻlib, Tir shahridan shimolda joylashgan) yoki Oʻlik dengizning janubidagi yerlar nazarda tutilgan.

**82:6-8** *...Ommon va Omolek...* — Ommon xalqi Iordan daryosining sharq tomonida, Omolek xalqi esa Isroildan janubi–g‘arbda, Sinay yarim orolida yashagan.

**82:6-8** *...Tir...Filistiya...* — Tir Finikiyadagi shahar bo‘lib, Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan. Filistiya O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan yurt edi.

**82:9** *Lut nasli* — ya’ni Edom va Mo‘ab xalqlari (Ibtido 19:30-38 ga qarang).

**82:10** *...Midiyonlarni jazolaganingday...* — Hakamlar 7:1-23 ga qarang.

**82:10** *...Sisaro, Yobinni qirganingday...* — Hakamlar 4:1-24 ga qarang.

**82:12** *Oriv va Zayovday...* — Hakamlar 7:25 ga qarang.

**82:12** *...Zevax va Zalmunoday...* — Hakamlar 8:21 ga qarang.

**83:1** *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**83:7** *Qaqragan soylikdan* — ibroniycha matnda *Baka soyligi*. Ibroniychadagi *baka* so‘zi quruq yerlarda o‘sadigan daraxtning bir turini bildirishi mumkin. Ba’zi ibroniy qo‘lyozmalarida, qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalarda *Yig‘i soyligi*. Bu soylikning qayerda joylashgani ma’lum emas.

**83:7** *suv havzalari* — yoki *barakalar*.

**83:8** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**84:1** *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**84:9** *bema’ni yo‘llar* — gunohkorona xulq–atvor nazarda tutilgan.

**85:13** *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**86:1** *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**86:2** *muqaddas tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**86:2** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 4, 5, 6–oyatlarida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

**86:4** *Misr* — ibroniycha matnda *Rahob*, Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq (73:14 ning birinchi izohiga qarang). Bu o‘rinda Rahob Misrning she’riy nomi sifatida kelgan (Ishayo 30:7 ga qarang).

**86:4** *...Filistiya...Tir...* — Filistiya O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan yurt edi. Tir Finikiyadagi shahar bo‘lib, Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

**86:4** *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

**87:1** *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

**87:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**87:4** *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**87:10** *har kuni* — yoki *kun bo‘yi*.

**87:12** *Halokat diyori* — ibroniycha matnda *Abaddo‘n*. Bu so‘z *Sheo‘l*ni, ya’ni o‘liklar diyorini bildiradi.

**87:12-13** *...qabr...*[13] *Zulmat diyori...Unutilganlar makoni...* — *Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori

nazarda tutilgan. 6:6 izohiga qarang.

**87:16** *...umidsiz qolganman* — yoki *...mening tinka–madorim qurigan*.

**88:1** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**88:4** *Sen shunday deding...* — 2 Shohlar 7:16 ga qarang.

**88:7** *Ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudoning o‘g‘illari*. 28:1 izohiga qarang.

**88:8** *muqaddas malaklar davrasi* — 81:1 ning birinchi izohiga qarang.

**88:11** *Rahob* — Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq (73:14 ning birinchi izohiga qarang).

**88:13** *...Tovur, Xermon tog‘lari...* — Tovur tog‘i Jalila ko‘lining janubiy qirg‘og‘idan qariyb 19 kilometr g‘arbda joylashgan. Xermon hozirgi Suriyaning eng baland tog‘idir.

**88:21** *...Muqaddas moyimni surtib uni tanladim* — 1 Shohlar 16:1-13 ga qarang.

**88:28** *Men uni to‘ng‘ich o‘g‘il qilib olaman...* — 2:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

**88:49** *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**88:51** *...men, quling, qanchalar masxara bo‘lganimni...* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *...qullaring qanchalar masxara bo‘lganini...*.

**89:4** *Sen insonni tuproqqa qaytarasan...* — Ibtido 3:19 ga qarang.

**90:13** *Sher va zaharli ilon* — Isroil xalqining dushmanlariga ishora qilayotgan ko‘chma ma’nodagi ibora.

**91:11** *...Qudrating bilan menga qaytadan kuch ato etding* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...Menga yangi moy surtilgan*. Bu o‘rinda moy Xudodan kuch olishga ishora bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

**91:13** *Lubnondagi sadr daraxti* — 28:5 izohiga qarang.

**94:8** *Marivada...Massaxda...* — Chiqish 17:1-7 ga qarang.

**94:10** *Qirq yil u nasldan nafratlanib...* — Sahroda 14:33-34 ga qarang.

**94:11** *...«Ular farog‘at diyorimga kirmaydi», dedim* — Sahroda 14:20-23 ga qarang.

**95:9** *Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!* — yoki *Egamizning muqaddas maskani ulug‘vorligi ichra Unga sajda qiling!* yoxud *Muqaddas liboslarda Egamizga sajda qiling!*

**96:8** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**98:2** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**98:9** *muqaddas tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

**101:14** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 17–oyatida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

**101:26** *zaminning poydevori* — 17:16 izohiga qarang.

**102:5** *Hayotim* — yoki *Orzu–istaklarim*.

**102:14** *...Biz tuproq ekanimiz...* — Ibtido 3:19 ga qarang.

**103:3** *Osmondagi suvlar* — Ibtido 1:6-8 ga qarang.

**103:5** *zaminning poydevori* — 17:16 izohiga qarang.

**103:16** *...Lubnonda...sadr daraxtlaring...* — 28:5 izohiga qarang.

**103:26** *Levitan* — Kan'on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluqqa ishora qiladi (73:14 ning birinchi izohiga qarang). Ammo bu oʻrinda kitga yoki bahaybat dengiz maxluqiga ishora qilingan boʻlishi ham mumkin.

**103:30** *Ruh* — bu oʻrindagi ibroniycha soʻz *nafas* ma'nosini ham ifodalaydi.

**104:11** *Aytdiki...* — Ibtido 12:7, 17:8, 26:3, 28:13 ga qarang.

**104:15** *Paygʻambarlarim* — Ibrohim, Is'hoq, Yoqubga ishora.

**104:17** *Yusuf* — Ibtido 37:1-36, 39:1-41:57, 45:4-7 ga qarang.

**104:22** *...a'yonlarimni zanjirband qilsin...* — yoki *...u a'yonlarim ustidan hukmronlik qilsin...* yoxud *...u a'yonlarimga koʻrsatma bersin...*.

**104:23** *Xom yurti* — Misrga nisbatan qoʻllangan she'riy usul. Xomning oʻgʻli Mizra Misr xalqining bobokalonidir (Ibtido 10:6 ga va oʻsha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

**104:27** *Misrliklar orasida...moʻjizalarini, ajoyibotlarini koʻrsatdi* — Chiqish 7:8-11:10, 12:29-30 ga qarang.

**104:28** *...Axir, Misrliklar Egamizning amrlariga itoatsizlik qildi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *...Ular Egamizning amrlariga itoatsizlik qilmadi*, ya'ni *...Muso va Horun Egamizning amrlariga itoatsizlik qilmadi*.

**104:34** *chigirtkalar* — ba'zan toʻda–toʻda boʻlib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

**104:37** *...Egamiz Oʻz xalqini Oltinu kumushga boyitib...* — Chiqish 12:33-36 ga qarang.

**104:39** *...Egamiz bulutni yoydi, Kechasi...alanga berdi* — Chiqish 13:20-22 ga qarang.

**104:40** *...Egamiz bedanalar berdi, Osmondan non yogʻdirib, ularni toʻygʻazdi* — Chiqish 16:2-15 ga qarang.

**104:41** *Egamiz qoyani ochdi, suv otilib chiqdi...* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:2-11 ga qarang.

**105:7** *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma'nosi *Qamish dengizi* (shu sanoning 9, 22–oyatlarida ham bor). Bu sanodagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qoʻltigʻi (ya'ni Qizil dengizning shimoli–gʻarbidagi qoʻltiq) yoki Suets qoʻltigʻi va Oʻrta yer dengizi oraligʻida joylashgan koʻllardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga koʻra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga toʻsiq boʻlgan, chuqurligidan Misr lashkari choʻkib ketgan.

**105:9** *U Qizil dengizga doʻq urdi...Isroil xalqini dengiz tubidan oʻtkazdi* — Chiqish 14:1-31 ga qarang.

**105:14** *Sahroda...ular Xudoni sinadi* — Sahroda 11:4-34 ga qarang.

**105:16** *...Musoga...Horunga hasad qildi* — Sahroda 16:1-35 ga qarang.

**105:19** *Sinay togʻi* — ibroniycha matnda *Xorev togʻi*, Sinay togʻining yana bir nomi.

**105:19** *Sinay togʻida...oltin butga sajda qildilar* — Chiqish 32:1-14 ga qarang.

**105:22** *Xom yurti* — Misrga nisbatan qoʻllangan sheʼriy usul. Xomning oʻgʻli Mizra Misr xalqining bobokalonidir (Ibtido 10:6 ga va oʻsha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

**105:24** *...ular...Egamizning vaʼdasiga ishonmadilar* — Sahroda 14:1-35 ga qarang.

**105:28** *...bizning ota–bobolarimiz Piyor togʻidagi Baalga sajda qilishga qoʻshildilar...* — Sahroda 25:1-13 ga qarang.

**105:28** *...Oʻliklarga...* — yoki *...Jonsiz butlarga...*.

**105:32** *Mariva suvlari boʻyida...* — Sahroda 20:1-13 ga qarang.

**106:3** *janub* — ibroniycha matnda *dengiz*. Bu oʻrinda Oʻrta yer dengizining janubiy sohili yoki Aqaba qoʻltigʻi nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

**106:30** *bandargoh* — kemalar toʻxtaydigan joy, port. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi BANDARGOH soʻziga qarang.

**107:8** *...Oʻz muqaddas makoningdan vaʼda bergansan...* — yoki *...Sen muqaddassan, vaʼda bergansan...*.

**107:8** *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar.

**107:8** *Suxot vodiysi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

**107:9** *Gilad...Manashe...* — Gilad oʻlkasi Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan. Manashe Isroil xalqining qabilalaridan biri boʻlib, bu qabilaning hududi Iordan daryosining sharq va gʻarb tomonida joylashgan edi.

**107:9** *...Efrayim...Yahudo...* — Isroil xalqining ikkita yetakchi qabilasi. Efrayim Isroilning shimolida, Yahudo janub tomonida joylashgan edi. Ikkala qabila ramziy maʼnoda butun Isroil xalqini ifoda etadi.

**107:10** *...chorigʻimni otaman...* — qadimgi Isroilda kimdir yerdan bir qismini mulk qilib olishga daʼvogarlik qilganda chorigʻini otgan, shu ramziy xatti–harakat odat boʻlib qolgan.

**107:10** *Moʻab...Edom...Filistlar...* — Isroilning sharq, janub va gʻarbidagi qoʻshni xalqlar boʻlib, ular Isroilga dushman edilar. Moʻab yurti Oʻlik dengizning sharqida, Edom yurti Oʻlik dengizning janubida joylashgan edi. Filistlar Oʻrta yer dengizi boʻyida yashagan.

**107:11** *mustahkam shahar* — Edom yurtining poytaxti Sela nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

**108:17** *...kelsin...boʻlsin* — yoki *...keldi...boʻldi*.

**109:1** *Rabbim* — ibroniycha matnda *adon*. Bu oʻrinda *adon* soʻzi Xudo tanlagan shohga ishora qiladi. Mazkur sanoda Dovud oʻzining avlodi va kelajak shoh haqida bashorat qilgan. Oʻsha shoh ruhoniy ham boʻladi va Xudoning oʻng tomonida oʻtirib, abadiy hukmronlik qiladi (shu sanoning 4–oyatiga va 2 Shohlar 7:16, 23:2-5 ga qarang).

**109:1** *Mening oʻng tomonim* — oʻng tomon muruvvat va baraka oʻrni deb hisoblangan.

**109:2** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**109:3** *Erta tong yosh yigitlaring...Ular muqaddas ulugʻvorlikka burkangan* — yoki *Siz muqaddas ulugʻvorlikka burkangansiz, sizning kuch–qudratingiz tonggi shabnamga*

*oʻxshab har kuni yangilanib turadi*. Ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Bachadondan, sahardan sizda yoshligingiz shabnami bor* yoki *...yigitlaringizning shabnami bor*.

**109:4** *"Sen Maliksidiq singari, To abad ruhoniysan"* — Dovud nasli, Maliksidiq singari, ham shoh, ham ruhoniy boʻladi (Ibtido 14:18-20 ga qarang). Horun va uning nasliga berilgan martabaga qaraganda, bu ruhoniylik martabasi yuksak edi (Ibroniylar 7:1-28 ga qarang).

**110:1** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she'rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi soʻz ibroniy alifbesi tartibi boʻyicha boshlanadi.

**110:8** *...Egamiz ularni sadoqat, toʻgʻrilik ila ijro qildi* — yoki *...Ularga sadoqat va toʻgʻrilik bilan itoat etish shart*.

**111:1** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she'rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi soʻz ibroniy alifbesi tartibi boʻyicha boshlanadi.

**113:3** *Dengiz Xudoni koʻrdi–yu, qochdi...* — Chiqish 14:21-22 ga qarang.

**113:3** *...Iordan daryosi orqaga qaytdi* — Yoshua 3:7-17 ga qarang.

**113:4** *Togʻlar qoʻchqorlar kabi sakradi...* — Chiqish 19:16-19 va Hakamlar 5:4-5 ga qarang.

**113:8** *U...qoyadan buloq chiqargan* — Chiqish 17:1-7 ga qarang.

**113:18** *Horun xonadoni* — Ma'badda ruhoniylar boʻlib xizmat qilgan Horun nasli.

**114:3** *Oʻliklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheoʻl*. 6:6 izohiga qarang.

**115:1-2** *Juda koʻp azob cheksam ham, Xudoga boʻlgan ishonchim yoʻqolmadi. [2] Oʻylamasdan...* — yoki *Men Xudoga ishondim. Juda koʻp azob chekkanimdan, oʻylamasdan [2]...*.

**117:14** *...kuch–qudratimdir...* — yoki *...qudratim, shukrona qoʻshigʻimdir...*.

**117:22** *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qoʻyilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi oʻsha toshning joylashuvi boʻyicha qurilardi.

**117:27** *Palma shoxlarini olib, qurbongoh oldiga boring* — yoki *Qurbonlik qilinadigan hayvonni arqon bilan bogʻlab, qurbongohga olib keling*.

**118:1** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she'rdir. Bu sanoda 22 bayt boʻlib, har bir bayt 8 oyatdan iborat. Baytning har bir oyati ibroniy alifbesining bir xil harfi bilan boshlanadi. Misol uchun, birinchi baytdagi oyatlar ibroniy alifbesining birinchi harfi bilan boshlanadi, ikkinchi baytdagi oyatlar ibroniy alifbesining ikkinchi harfi bilan boshlanadi va hokazo.

**118:37** *...Va'dangga binoan hayotimni saqlagin* — Qumron qoʻlyozmalaridan va ba'zi ibroniy qoʻlyozmalaridan. Ibroniycha matnda *...Sening yoʻllaringdan yurarkanman, hayotimni saqlagin*.

**118:83** *Tutunda qorayib, bujmaygan meshday...* — qadimgi paytlarda suyuqlik odatda hayvon terisidan qilingan meshlarda saqlanardi. Sano ijodkori oʻzini shipda osilib, tutundan qorayib, burishib ketgan meshga qiyoslaydi. Bunday mesh yaroqsiz boʻlib,

undan foydalanib boʻlmaydi.

**119** *Ziyorat qoʻshigʻi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Yuqoriga chiqish qoʻshigʻi*, yaʼni Quddusga va Maʼbad turgan tepalikka chiqilayotganda aytiladigan qoʻshiq. 119-133–sanolarning hammasi “ziyorat qoʻshiqlari” deb atalgan. Ziyoratchilar diniy bayramlarni nishonlash uchun Quddusga borayotganlarida ham, bayramlarni Maʼbadda nishonlaganlarida ham, sajda sifatida shu qoʻshiqlarni kuylagan boʻlishlari mumkin. Yana 83–sanoga qarang.

**119:5** *...Meshex...Kedar...* — Meshex hududi Kaspiy dengizi bilan Qora dengiz orasida, Kedar yerlari esa Arabiston sahrosida joylashgan. Odamlarning tasavvuriga koʻra, bu joylarda yashaydigan xalqlar varvarlar boʻlib, ularning yerlari nihoyatda olisda deb hisoblangan.

**124:3** *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa boʻlib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

**125:1** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**125:1** *Egamiz Quddusni yana farovonlikka erishtirganda...* — yoki *Egamiz bizni surgundan Quddusga qaytarib olib kelganda...*.

**126:2** *Egamiz Oʻz sevganlarining ehtiyojini Uyqularida ham qondiradi* — yoki *Egamiz Oʻz sevganlariga uyqu ato qiladi*.

**128:5** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**128:6** *Tom ustidagi oʻtlar* — qadimgi Isroilda odatda uylarning tomlari tuproqdan boʻlib, shibbalangan. Baʼzan tomlarda maysalar oʻsib chiqar, lekin quyosh va garmsel taʼsirida tez qurib qolar edi.

**131:6** *Efrat* — Baytlahm shahri atrofidagi yerlar.

**131:6** *Yoʻr* — *Xirat–Yoʻrim*ning qisqa shakli boʻlishi mumkin. Xirat–Yoʻrim Quddusdan 15 kilometr shimoli–gʻarbda joylashgan shahar edi. Filist xalqi jangda Ahd sandigʻini oʻlja qilib olgan edi. Isroil xalqi Ahd sandigʻini ulardan tortib olib, mana shu yerga olib kelgan edi (1 Shohlar 6:13-7:2 ga qarang).

**131:13** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**132:2** *qimmatbaho moy* — Chiqish 30:22-33 ga qarang.

**132:3** *baraka* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *shabnam*. Shabnam Xudo marhamatining ramzidir. Xudoning Sion togʻiga bergan moʻl–koʻl barakasi Xermon togʻiga tushadigan moʻl shabnamga taqqoslangan. Xermon togʻi hozirgi Suriyaning eng baland togʻidir. Quddus va Maʼbad joylashgan togʻlar undan anchagina past edi.

**133:3** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**134:3** *bu* — yoki *U*.

**134:8** *Egamiz Misrning toʻngʻichlarini...nobud qildi* — Chiqish 12:29-30 ga qarang.

**134:9** *Firʼavn va uning hamma aʼyonlariga qarshi...Egamiz alomatu moʻjizalarni yubordi* — Chiqish 7:8-11:10 ga qarang.

**134:11** *Amor xalqining shohi Sixoʻnni, Bashan shohi Oʻgni...qirgan* — Sahroda 21:21-35 va Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang.

**134:19** *Horun xonadoni* — Horunning avlodi Ma’badda ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan.

**134:20** *Levi xonadoni* — Ma’baddagi xizmatlarda ruhoniylarga yordam beradigan Levi qabilasining a’zolari.

**135:2-3** *xudolarning Xudosi…[3]…egalarning Egasi* — Qonunlar 10:17 izohiga qarang.

**135:5** *…samolarni yaratganga…* — Ibtido 1:1, 6-8, 14 ga qarang.

**135:6** *…suvlar uzra yerni barpo qilganga…* — 23:2 izohiga qarang.

**135:10** *…Misrning to‘ng‘ichlarini urganga…* — Chiqish 12:29-30 ga qarang.

**135:11** *…Misrdan Isroilni olib chiqqanga…* — Chiqish 6:6, 13:3-4 ga qarang.

**135:13** *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi* (shu sanoning 15–oyatida ham bor). 105:7 izohiga qarang.

**135:13** *…Qizil dengizni ikkiga bo‘lganga…* — Chiqish 14:1-31 ga qarang.

**135:19-20** *…Amor xalqining shohi Sixo‘nni o‘ldirganga…[20]…Bashan shohi O‘gni o‘ldirganga…* — Sahroda 21:21-35 va Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang.

**136:1** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 3–oyatida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

**136:7** *Edomliklar* — azaldan Isroil xalqiga dushman bo‘lib kelgan xalq, ularning yurti O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Bobilliklar Quddusni vayron qilganlarida, Edom xalqi ularga yordam bergan edi (yana Hizqiyol 35:5 va Obodiyo 10-14–oyatlarga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EDOM so‘ziga qarang.

**136:8** *Qirg‘inga mahkum bo‘lgansan* — yoki *Ey qotil!*

**137:1** *Farishtalar* — ibroniycha matnda *Elohim*, 8:6 izohiga qarang.

**137:8** *…men uchun qasos olasan* — yoki *…mening hayotim uchun qo‘ygan o‘z maqsadingni bajarasan* yoxud *…menga ezgulik qilasan*.

**138:8** *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**138:15** *Yerning tubi* — ona qorniga ishora qilayotgan ko‘chma ma’nodagi ibora (yana Ayub 1:21 ga qarang).

**138:24** *abadiy yo‘l* — yoki *qadimgi yo‘l*, ya’ni vaqt sinovlariga bardosh bergan ishonchli yo‘l (Yeremiyo 6:16 ga qarang).

**140:7** *qabr* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

**141** *Dovud g‘orda bo‘lgandan keyin…* — 1 Shohlar 22:1-2 da yoki 1 Shohlar 24:1-22 da tasvirlangan voqeaga ishora.

**141** *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

**143:2** *Xalqlar* — Qumron qo‘lyozmalaridan, ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Xalqim*.

**143:3** *Bandalar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Inson o‘g‘li*. Bu ibroniycha ibora ko‘chma ma’noda ishlatilib, odamning o‘tkinchi ekanligini bildiradi.

**143:14** *Ho‘kizimiz og‘ir yuklarni tortsin…* — yoki *Ho‘kizlarimiz semirsin…* yoxud *Chorvamiz buzoqlar tug‘sin…*.

**144:1** Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

**144:5** *Ular...so‘ylaydilar, Men esa...o‘ylayman* — Qumron qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Shonli dabdabang, ulug‘vorliging, ajoyib mo‘jizalaring haqida men o‘ylayman*.

**144:13** *...Hukmronliging nasllar osha davom etar* — Qumron qo‘lyozmalarida, bitta ibroniy qo‘lyozmasida, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalarda shu oyatning oxiriga *Egamiz O‘zining va’dalariga sodiq va O‘zi yaratganlarning hammasiga mehribon*, deb qo‘shimcha qilingan.

**145:10** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

**148:4** *samolar uzra joylashgan suvlar* — Ibtido 1:6-8 ga qarang.

**148:14** *...O‘z xalqini qudratli qildi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...O‘z xalqi uchun bir shox chiqardi*. Eski Ahdda buqaning shoxi ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilib, kuchli hukmdorga yoki harbiy qudratga ishora qilgan.

**149:2** *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.